





# 100 **KITOB** **HAQIDA KITOB**

TOSHKENT  
“MA’NAVIYAT”  
2026







*Insoniyat dunyosining buyuk bir mash'alasi, ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. Bugun O'zbekistonning yangi Uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etishi zarur.*

**Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**





# MILLAT ILM VA MUTOLAA BILAN TARAQQIY ETADI

*Insoniyat tafakkuri tarixida kitob va mutolaa doimo taraqqiyotning eng asosiy poydevori sanalgan. Bu g'oya Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlarida ham uyg'un tarzda namoyon bo'ladi.*

*Ma'rifatparvar ajdodimiz Abdulla Qodiriy millatning ma'naviy yuksalishi avvalo tarixni anglash, o'tmishdan saboq olish va tafakkur madaniyati bilan bog'liq ekanini ta'kidlagan. Uning o'tmishni, o'tkan kunlarni anglamay turib, kelajakni qurib bo'lmaslikka ishora qiladigan g'oyaviy yo'nalishi kitobxonlikning ham asl mohiyatini ochib beradi. Kitob – insonni fikrlashga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Fazilatli jamiyatda Farobiyning komil insoni ilm va aqlni eng yuqori mezon sifatida ko'radi. Kitob va bilim insonni fazilatli jamiyat sari yetaklovchi asosiy vositadir.*

*G'arb adabiyoti namoyandasi Erix Maria Remark insonni qutqaradigan yagona kuch uning qalbidagi insoniylik va tafakkurdir degan g'oyani ilgari surarkan, insonni ichki jihatdan qayta tarbiyalash qudratiga ega tarbiyachi bu kitobdir degan mulohazani ilgari suradi. Farobiy va Remarkning ushbu qarashlari Sharq va G'arb tafakkurini bir umumiy haqiqat asosida birlashtiradi: kitob – bu faqat ma'lumot emas, balki insonni qayta shakllantiruvchi ma'naviy kuchdir. U insonni o'tmish bilan bog'laydi, bugunni anglatadi va kelajakka yo'l ko'rsatadi.*

*Tafakkurni uyg'otuvchi, qalbni tozalovchi va insonni kamolga yetaklovchi ma'naviy maktab hisoblangan kitob, kitobxonlik madaniyati shaxsiy odat emas, balki sivilizatsion taraqqiyotning asosiy sharti sifatida shakllanganligi ham biz nima uchun kitob o'qishimiz kerak degan savolga*

aniq javobdir. Bugungi zamon o'zgarishi, dunyoda armiya qudratiga bo'lgan mezonlarning butunlay yangilanishi, haqiqiy kuch – yuksak bilim, teran fikr, mustahkam iroda va vatanparvarlik bilan o'lchanishi haqidagi mulohazalar yana dolzarb bo'la boshlagani bejizmas. Yangi O'zbekiston armiyasining kuchi nafaqat qurol-yarog' yoki texnika bilan, balki harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy qudrati va tafakkur boyligi bilan baholanadi.

Ongi va tafakkuri boyigan insongina haqiqiy boylik nima ekanini anglaydi, jasoratning mazmunini, mas'uliyatning og'irligini va sadoqatning muqaddasligini teran his etadi. Tafakkur yuksalgan joyda intizom mustahkam bo'ladi, bilim ustuvor bo'lgan joyda esa g'alaba muqarrardir. Harbiy jangchi, avvalo, ma'naviy jangchiga aylanishi lozim. Mutolaa insonning ruhiy quvvatini oshiradi, dunyoqarashini yuksaltiradi. Ayniqsa, qo'lida qurol tutgan insonning nafaqat jismonan kuchi, ongi ham yuksak bo'lsagina, u Vatanning haqiqiy va ishonchli himoyachisiga aylanadi.

"100 kitob haqida kitob" – harbiy jangchilar va g'oyaviy jangchilarni birlashtiradigan loyiha. Har bir qimmatli vaqtini Vatan himoyasiga safarbar etadigan harbiylarimiz, jumladan, harbiy yo'nalishda ta'lim olayotgan farzandlarimiz, muddatli harbiy xizmatchilarimiz, umuman, mudofaa xodimlari uchun kitob tanlash, bir qarashda, yengil va oddiy jarayonday tuyuladi. Ammo inson tafakkuri ulkan ma'naviy kutubxonaga kirgan sari, u yerdagi asarlar olamini anglash va saralash oson ish emasligiga amin bo'ladi. Chunki har bir kitob – bu alohida dunyo, har bir muallif esa inson


ruhiyati va tafakkurining o'ziga xos ifodasidir. Loyiha doirasida ma'naviyat darg'alari bo'lgan ustozlar, mazkur sohaga mutasaddilarning kitobxonlik bo'yicha, kitob tanlash bo'yicha muhim fikr-mulohazalari o'rganildi va ularga amal qilingan holda 100 ta kitob ro'yxati shakllantirildi.

Mazkur loyiha doirasida tavsiya etilgan asarlar – ma'naviy tanlovning birinchi bosqichi, kitob dunyosidan dastlabki tomchi xolos. Ushbu tanlov ortida yana qanchadan-qancha tavsiya etilishi lozim bo'lgan, o'z qiymati, badiiy va intellektual qudrati jihatidan beqiyos bo'lgan qanchadan-qancha durdona asarlar mavjudligi – birinchidan, bizning ma'naviy merosimiz naqadar boy ekandidan dalolat bersa, ikkinchidan, ushbu loyiha yildan-yilga yangilanib, takomillashib borishiga ishoradir.

Inson ruhiyati kamoloti yo'lida biz hali qanchadan-qancha kitob javonlariga murojaat qilishimiz, yangi ma'no qatlamlarini kashf etishimiz, tafakkur chegaralarimizni kengaytirishimiz lozim. Chunki haqiqiy ma'naviy yuksalish – bu to'xtab qolish emas, balki doimiy izlanish va uzluksiz mutolaa jarayonidir. Kitobxonlik madaniyati – bu faqat o'qish emas, balki tanlash, anglash, solishtirish va eng muhimi, tafakkur qilish madaniyatidir. Va aynan shu jarayon inson tafakkurini yetiltiradi, mas'uliyatini tarbiyalaydi va uni dunyoga ilm, chin insoniy fazilatlar orqali yuz tutadigan shaxsga aylantiradi.

100 kitob – yangi tafakkur bilan hamqadam loyiha!

**OTABEK XASANOV,**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat**  
**markazi rahbari**



# HOZIRGI ZAMON VA YANGI O'ZBEKISTON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....HOZIRGI ZAMON VA  
YANGI O'ZBEKISTON

MUALLIFI: .....SHAVKAT MIRZIYOYEV

YOZILISHI: .....LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Kitobda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi – davlat va jamiyatni yangilash, inson qadrini yuksaltirish va barqaror rivojlanishga erishish tamoyillari yoritiladi. Unda hozirgi zamon talablari, globallashuv jarayonlari va ularga mos ravishda mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar haqida so‘z boradi.

Asarda asosiy e‘tibor qonun ustuvorligi va adolatli boshqaruvni kuchaytirish; iqtisodi-

yotni modernizatsiya qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash; ta‘lim, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish; aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish; yoshlar uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Shu bilan birga, kitobda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi faqat iqtisodiy emas, balki ma‘naviy yangilanish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson qadrini ustuvor qilish bilan bog‘liq ekani ta‘kidlanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitob “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini shakllantirish va targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Unda davlat va jamiyatni yangilash, adolatli jamiyat qurish, inson manfaatini ustuvor qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Shu orqali aholida umumiy maqsad va yagona taraqqiyot yo‘li haqida tasavvur mustahkamlanadi.

Asar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning mafkuraviy asosini tushuntiradi. U fuqarolarni vatanparvarlik, mas‘uliyat, qonunga hurmat va faol fuqarolik pozitsiyasi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, turli

tahdid va yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetni kuchaytiradi.

Kitob inson qadrini ulug‘lash, axloqiy poklik, halollik, mehnatsevarlik va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi. U yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga yo‘naltiradi, jamiyatda ma’naviy muhitni yaxshilashga hissa qo‘shadi.

Asarning umumiy ahamiyati shundaki, u “Yangi O‘zbekiston”ning nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki ma’naviy-mafkuraviy poydevorini mustahkamlashga va jamiyatni bir maqsad sari birlashtirishga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining asosiy mazmuni nimadan iborat va u davlat taraqqiyotida qanday o‘rin tutadi?

2. Asarda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari qanday tushuntirilgan va ular mudofaa sohasida qanday ahamiyatga ega?

3. Vatanparvarlik tushunchasi kitobda qanday yoritilgan, mazkur tushuncha negizida harbiylar burchi qanday?

4. Hozirgi zamonda global tahdidlar deganda nimalar tushuniladi, sizningcha, ularga qarshi qanday choralar ko‘rish zarur?

5. Asarda yoshlar siyosatiga qanday e‘tibor qaratilgan va bu boshlang‘ich harbiy maktab o‘quvchilari uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?


6. Inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi bugun harbiy xizmatda qay tarzda aks etmoqda?

7. Kitobda ma’naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni qanday o‘rin egallaydi? Harbiy intizom uchun ular qanday ahamiyatga ega?

8. Iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning mamlakat xavfsizligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini gapirib bering.

9. “Yangi O‘zbekiston”da fuqarolik jamiyatini rivojlantirish g‘oyasini harbiylar faoliyati bilan bog‘lagan holda tushuntirib bering.

10. Asardan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston harbiy xizmatchisining ma’naviy qiyofasini qanday tasavvur qilasiz?



# **YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI**

## **KITOB HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT**

**KITOB NOMI:** ..... **YANGI O‘ZBEKISTON  
STRATEGIYASI**

**MUALLIFI:** ..... **SHAVKAT MIRZIYOYEV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## **KITOBNING QISQACHA MAZMUNI**

Asarda asosiy e’tibor O‘zbekistonni 2030-yilgacha rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish maqsadiga qaratiladi. Bu yo’lda davlat boshqaruvini isloh qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, adolatli sud tizimini shakllantirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash ustuvor vazifalar sifatida ko’rsatiladi.

Iqtisodiy yo’nalishda xususiy mulkni himoya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat va qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish

hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga alohida urg’u beriladi.

Ijtimoiy sohada ta’lim, sog’liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish, yoshlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish va inson kapitaliga investitsiya qilish asosiy yo’nalishlar sifatida belgilanadi.

Siyosiy yo’nalishda esa ochiqlik, hisobdorlik, fuqarolik jamiyatini kuchaytirish va inson huquqlarini himoya qilish konsepsiyasi ilgari suriladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarda davlat siyosati markaziga inson manfaatini qo‘yiladi. Fuqaroning farovonligi, huquqlari va erkinligi davlat islohotlarining asosiy mezon sifatida qaraladi. Barcha sohada adolatni ta‘minlash, sud-huquq tizimini mustaqil va shaffof qilish, qonun oldida tenglikni mustahkamlash g‘oyasi ilgari suriladi. Mamlakatni tarixiy meros va milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy rivojlanish yo‘liga olib chiqish maqsadi qo‘yiladi. Bu “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili bilan bog‘liq.

Jamiyatda nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning ishtirokini kuchaytirish orqali demokratik muhitni rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga ijtimoiy himoyani kuchaytirish, kam ta‘minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Asarning mafkuraviy asosi “inson qadri”, “adolat”, “modernizatsiya” va “ochiq davlat” kabi tamoyillarga tayanadi va “Yangi O‘zbekiston” degan yangi rivojlanish modelini shakllantirishni maqsad qiladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasida Inson qadri nima uchun eng ustuvor tamoyil sifatida qaraladi?

2. Qonun ustuvorligi armiya va davlat xizmatchilari faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

3. Milliy xavfsizlikni ta‘minlashda mudofaa tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4. Asarda davlat va fuqaro o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash uchun qanday yo‘llar taklif etiladi?

5. Armiyada xizmat qilayotgan harbiylar uchun islohotlar qanday imkoniyatlar yaratadi?


6. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta‘lim tizimining o‘rni qanday bayon etilgan?

7. Davlat boshqaruvini takomillashtirish mudofaa sohasi samaradorligiga qanday ta‘sir qiladi?

8. Iqtisodiy rivojlanish va milliy xavfsizlik o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

9. Ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari harbiy tizimda qanday amaliy ahamiyatga ega?

10. Sizningcha, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini amalga oshirishda yoshlarning roli nimada?



# SOHIBQIRON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....SOHIBQIRON

**MUALLIFI:** ..... ABDULLA ORIPOV

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI


## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Abdulla Oripovning ushbu asari buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, saltanatni boshqarish falsafasi va murakkab insoniy qiyofasiga bag'ishlangan yuksak badiiy obidadir. Drama voqealari shunchaki jangnomalardan iborat emas, balki Sohobqironning hayot yo'li, uning dunyoqarashi va "Kuch – adolatdadir" tamoyiliga asoslangan davlatchilik tafakkurining badiiy tahlilidir.

Asar markazida Amir Temurning eng zafarli davrlari, xususan, Rum sultoni Boyazid Yildirim ustidan qozonilgan tarixiy g'alaba turadi. Biroq muallif diqqatni Anqara jangining tafsilotlariga emas, balki ikki buyuk hukmdor – Temur va Boyazidning yuzma-yuz kelishiga qaratadi. Bu epizodda Temurning naqadar olijanob va mag'rur siymo ekanligi namoyon bo'ladi: u mag'lub dush-

manni kamsitmaydi, aksincha, dunyoning o'tkinchiligidan, ikki ojiz bandaga (biri cho'loq, biri ko'r) shuncha saltanatni berib qo'ygan qismatning o'yinidan so'z ochadi.

Asarda Temur nafaqat yengilmas sarkarda, balki ilm-fan, san'at va ma'naviyat homiysi sifatida namoyon bo'ladi. Uning buyuk shoir Hofiz She-roziy bilan uchrashuvi, "Sening bir xolingga Samarqand-u Buxoroni berib yuboramanmi?" degan mashhur lutfi orqali hukmdorning so'z san'atiga bo'lgan cheksiz ehtiromi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, asarda Temurning shaxsiy hayoti – rafiqasi Saroymulxonim (Bibixonim) bilan bo'lgan iliq munosabatlari, farzandlari va nabiralari (ayniqsa, Mirzo Ulug'bek) kelajagi haqidagi xavotirlari uning insoniy qiyofasini yanada boyitadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asari shunchaki tarixiy dramadan iborat bo’lmay, har bir o’quvchi uchun yuksak ma’naviy darslik vazifasini o’taydi. Asarning markaziy g’oyasi bo’lmish “Kuch – adolatdadir” tamoyili orqali muallif har qanday qudratli davlat va jamiyatning poydevori faqat adolat bilan mustahkam bo’lishini, adolatsizlik esa har qanday saltanatni zavolga mahkum etishini uqtiradi.

O’quvchi Amir Temur siymosi orqali milliy birlik va hamjihatlikning naqadar ulkan kuch ekanligi-

ni, bo’lingan va parokanda xalq hamisha mag’lubiyatga uchrashini teran anglaydi. Eng muhimi, doston o’quvchida tarixiy mas’uliyat tuyg’usini shakllantiradi. Har bir shaxs o’z xatti-harakati uchun nafaqat bugun, balki kelajak avlod va tarix oldida javobgar ekanligi asarning bosh xulosasidir. Bu asar orqali o’quvchi o’zligini anglaydi, ajdodlar matonati bilan faxrlanadi va mustaqil vatanimizning tinchligini ko’z qorachig’idek asrashga ma’naviy kuch topadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda “Kuch – adolatdadir” tamoyili shunchaki shior emas, balki saltanatning yashovchalligini ta’minlovchi me’yoriy asos sifatida qanday badiiy dalillar bilan mustahkamlanadi?

2. Amir Temurning mag’lub sulton Boyazid Yildirimga bo’lgan munosabatida g’oliblik kibri emas, balki insoniy fojia va dunyoning o’tkinchiligi haqidagi falsafiy qarashlar qanday aks etgan?

3. Abdulla Oripov talqinidagi Amir Temur obrazi qaysi jihatlar bilan “Tuzuklar”dagi tarixiy Temurdan farq qiladi?

4. Asarda Temurning vazirlar, ulamolar va shoirlar bilan maslahatlashishi jamoaviy boshqaruv madaniyatining qaysi jihatlarini ochib beradi?

5. Hukmdor Temur va shoir Hofiz Sheroziy o’rtasidagi muloqotda “dunyo fotihi” hamda “so’z fotihi”ning o’zaro mavqeyi va ma’naviy qudrati qanday qiyoslanadi?


6. Asar so’nggida Temurning kelajak avlod va tarix oldidagi hisoboti qaysi me’yoriy-axloqiy qoidalariga asoslangan va u o’quvchida qanday javobgarlik hissinı uyg’otadi?

7. Dramada tarqoq o’lkalarni birlashtirish jarayoni qanday qiyinchiliklar va qurbonliklar evaziga amalga oshirilganligi ko’rsatilgan?

8. Bibixonim (Saroymulxonim) obrazi orqali hukmdor hayotidagi ma’naviy tayanch va oilaviy qadriyatlarning davlat ishlaridagi o’rni qanday tasvirlangan?

9. Dramatik dostonida tarixiy voqelik va badiiy to’qima qanday mutanosiblikda berilgan?

10. Temurning o’z vorislari (masalan, Mirzo Ulug’bek) haqidagi xavotirlari va ularga qo’ygan talablari bugungi boshqaruv madaniyati hamda kadrlar tayyorlash etikasi bilan qanchalik hamohang?



# SAROB

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... SAROB

**MUALLIFI:** ..... ABDULLA QAHHOR

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Sarob” – inson ruhiyatini ochib beradigan, fikrlashga majbur qiladigan va kitobxonni o‘z dunyoqarashi bilan yuzlashtiradigan asar. Abdulla Qahhor ushbu asar orqali oddiy voqeani emas, balki jamiyat, inson, ishonch, adashish va haqiqat o‘rtasidagi kurashni juda chuqur psixologik tahlil bilan tasvirlaydi. Shuning uchun ham ko‘plab o‘zbek va qardosh xalqlar adiblari “Sarob”ni mahorat maktabi deb bilgan. Chunki bu romanni o‘qigan inson faqat syujetni kuzatmaydi, balki u qahramonlarning ichki dunyosini his qiladi, inson tabiatini anglay boshlaydi. Asarning eng kuchli jihati – uning badiiy tili. Har bir jumlada fikr, tuyg‘u va hayot

bor. Muallif so‘z orqali obraz yaratadi, ruhiy holatni tiriltiradi. Shu sabab “Sarob”ni o‘qish adabiyotdan zavq olishni, so‘z qudratini his qilishni o‘rgatadi.

Yana bir muhim tomoni – bu asar hanuzgacha bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Demak, u vaqt sinovidan o‘tgan, hozir ham dolzarb. Chunki haqiqiy adabiyot insonni befarq qoldirmaydi. “Sarob”ni kitob sifatida inson psixologiyasini tushunishga yordam berishi, mustaqil fikrlashni kuchaytirish xususiyatiga egaligi, badiiy tafakkurni boyitishi, haqiqiy adabiyot qanday bo‘lishini his etishga o‘rgatishi uchun ham o‘qish kerak.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Romanining asosiy g‘oyaviy maqsadi inson ongi, jamiyat va mafkura o‘rtasidagi ziddiyatlarini ochib berishdan iborat. Asarda ilgari surilgan ideologiya o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning ma‘naviy-mafkuraviy ahamiyati hozir ham dolzarbdir. Asarda insonning yolg‘on g‘oyalar, soxta orzular va manfaatlar ortidan ergashishi “sarob” – ya‘ni aldamchi tasavvur ekani ko‘rsatiladi. Abdulla Qahhor shu orqali kitobxonni haqiqatni ang-

lashga, mustaqil fikrlashga va hayotga ongli munosabatda bo‘lishga chaqirgan. Muallif asar orqali insonni tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi, shaxs ma‘naviyati va ichki dunyosining ahamiyatini ko‘rsatadi, jamiyatdagi ma‘naviy inqirozlarni badiiy tahlil qiladi, kitobxonni haqiqat va adolat haqida o‘ylashga undaydi. “Sarob” – ma‘naviy tarbiya, mafkuraviy ogohlik va hayotiy saboq manbayi hisoblanadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Olam to‘la baxt, faqat men baxtsiz... Bu so‘zlar asarning qaysi qahramoniga tegishli va uning bu so‘zlarini o‘z mulohazalaringiz orqali tushuntiring.

2. Saidiyning jurnalda ilk hikoyasi chop etilishi uning ruhiyatida qanday o‘zgarishlar sodir etadi?

3. Asardagi Murodxo‘ja domlaga berilgan ta‘rif orqali uning ma‘naviy qiyofasini ochib bering.

4. Saidiy “badhazm” odamlar deb kimlarni ta‘riflaydi?

5. Asarda Saidiy va Munisxonning munosabati qanday tasvirlangan?


6. Saidiyning universitetga kirishiga turtki bo‘lgan voqeani gapirib bering.

7. Ayollar va erkaklar tengligi haqida bong urib, aslida ularni kamsitadigan obraz kim?

8. Saidiy insonning qaysi jihatini hurmat qiladi va o‘ziga do‘st deb biladi?

9. “Sarob” tushunchasi qanday ramziy ma‘no kasb etadi va qahramonlar taqdiri orqali u qanday ifodalanadi?

10. Abdulla Qahhor inson ongi va jamiyat mafkurasi o‘rtasidagi ziddiyatni qay tarzda ochib bergan?



# MEHROBDAN CHAYON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....MEHROBDAN  
CHAYON

MUALLIFI: .....ABDULLA QODIRIY


YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Mehrobdan chayon” – faqat tarixiy roman emas, u millatning o'tmishi, inson qadri, adolat va vijdon haqidagi buyuk saboqdir. Abdulla Qodiriy asar orqali jamiyatdagi zulm, ikkiyuzlamachilik, mansabparastlik va adolatsizlikni juda ta'sirli tarzda ochib beradi. Asarni o'qigan inson nafaqat qahramonlar taqdiriga guvoh bo'ladi, balki haqiqat uchun kurashish, insoniylikni saqlab qolish qanchalik muhim ekanini anglaydi. Romanning eng muhim jihati – u tashqi tomondan yaxshi ko'rinib, ammo ichida “chayon” kabi zahar saqlaydigan kimsalar jamiyat uchun xavflar tug'dirishi mumkinligini ko'rsatadi. Asar o'quvchini odamlarning tashqi ko'rinishiga emas, ma'naviyati va amal-

lariga qarab baholashga o'rgatadi. Shuningdek, milliy tarix va qadriyatlarni, adolat va haqiqatning qadrini anglashda, yolg'on, xiyonat va manfaatparastlikning oqibatini tushunishda asarning qiymati juda yuqoridir.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Mehrobdan chayon” ma’naviy tarbiya, milliy ong va hayotiy tajriba maktabidir. Uning bosh g’oyasi adolat, insoniylik va vijdonni himoya qilish, jamiyatdagi zulm, mansabparastlik va axloqiy buzilishlarni fosh etishga qaratilgan. “Mehrob” muqaddaslik va poklik ramzi, “chayon” esa xiyonat, razolat va ikkiyuzlamachilik timsoli. Muallif asarda tashqi tomondan yaxshi ko‘rinib, aslida jamiyatga zarar yetkazuvchi kimsalarni tanqid qiladi.

Asar inson qadrini ulug‘lash, haqiqat va adolat uchun kurashish g’oyasiga qaratilgan. Qodiriy

jamiyat taraqqiyoti uchun ma’naviy poklik, halollik va bilim zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u mustabid tuzum, manfaatparast amaldorlar va xalq taqdiriga befarq shaxslarni qattiq qoralaydi. Roman insonni adolatli va vijdonli bo‘lishga chaqiradi, yolg‘on va xiyonatning oqibatini anglatadi, milliy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarini targ‘ib qiladi, mustaqil fikrlash va haqiqatni anglashga o‘rgatadi, inson qalbi va jamiyat munosabatlari haqida chuqur o‘ylashga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asardagi adolat va zulm o‘rtasidagi kurash jamiyat hayotida qay tarzda aks etadi va qanday ma’naviy saboq beradi, “mehrob” va “chayon” so‘zlari nimani ifodalaydi?

2. Muallif nega insonning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra uning ichki dunyosi va vijdonini muhimroq deb ko‘rsatadi?

3. Asar qahramonlari harakatlari orqali Vatan va xalq oldidagi mas’uliyat qanday ifodalangan?

4. “Mehrobdan chayon”dagi salbiy obrazlar jamiyat xavfsizligi va millat taraqqiyotiga qanday tahdid soladi?

5. Asardagi yoshlarni jasur, sergak va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga undaydigan xususiyatlarni ayting.


6. Qahramonlarning qaror qabul qilish jarayonidan strategik fikrlash va vaziyatni tahlil qilish bo‘yicha qanday xulosalar chiqarish mumkin?

7. Asarda vijdon va manfaat to‘qnashuvi qanday ochib berilgan va bugungi hayotda bu qay darajada dolzarb?

8. Millat kelajagi uchun ma’naviy poklik va halollik eng katta kuch hisoblanishini asar misolida tushuntirib bering.

9. Anvar va Ra‘no o‘rtasidagi munosabatlarda Vatanga sadoqati va xalq manfaati uchun kurashish qanday ifodalangan?

10. “Mehrobdan chayon” asarini o‘qigan yosh avlod milliy qadriyatlar, insoniylik va vatanparvarlik haqida qanday muhim hayotiy saboq olishi mumkin?



# O'TKAN KUNLAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:**..... O'TKAN KUNLAR

**MUALLIFI:**..... ABDULLA QODIRIY


**YOZILISHI:**.....KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“O’tkan kunlar” nafaqat o‘zbek adabiyotining durdonasi, balki millatning ma’naviy uyg‘onishi, vatanparvarlik, jasorat va strategik tafakkurni tarbiyalaydigan buyuk asardir. Asarda XIX asrdagi siyosiy parokandalik, mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun kurashi, ichki nizolar va millat taqdiri badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Asar markazida Otabek obrazi turadi. U zamonasidan ilgarilab fikrlaydigan, millat taraqqiyoti uchun qayg‘uradigan, iqtisodiy va ma’naviy islohot tarafdori bo‘lgan jasur inson. Otabek orqali Abdulla Qodiriy Vatan ravnaqi uchun bilim, ong, birlik va strategik fikrlash zarurligini ko‘rsatadi. Kumush

obrazi esa sadoqat, poklik, sabr va insoniy fazilatlarining timsoli sifatida gavdalanadi. Asardagi fojialar orqali yozuvchi millatni zaiflashtiruvchi ichki nizo, jaholat va eskicha tafakkurning qanday og‘ir oqibatlariga olib kelishini ochib beradi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar o‘quvchida Vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini kuchaytiradi, millat xavfsizligiga ichki bo‘linish va manfaatparastlik qanday tahdid solishini anglatadi, jasorat, sadoqat va vijdonning haqiqiy qadrini ko‘rsatadi, strategik fikrlash va vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi, millat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishga o‘rgatadi, ma’naviy barqarorlik va iroda kuchini tarbiyalaydi. Asar-

ning ma’naviy ozuqasi shundaki, yurt taraqqiyoti uchun qurolning o‘zi yetarli emas, millatni saqlab qoladigan eng katta kuch bu ong, birlik, adolat va vatanparvarlikdir. Otabekning hayoti va kurashi har bir yoshga “Vatan uchun faqat jang maydonida emas, fikr va ma’naviyat bilan ham xizmat qilish kerak” degan g‘oyani singdiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Otabek obrazi orqali millat taraqqiyoti uchun qanday strategik fikrlar ilgari surilgan?

2. Asardagi ichki siyosiy nizolar va hokimiyat uchun kurash millat xavfsizligiga qanday tahdid sifatida tasvirlangan?

3. Nega muallif jaholat va bo‘lingan jamiyatni millatning eng katta dushmani sifatida ko‘rsatadi?

4. Otabekning qaror qabul qilish jarayonidan liderlik va mas’uliyat borasida qanday saboq olish mumkin?

5. Kumush obrazidagi sabr, sadoqat va ma’naviy poklik bugungi yoshlar tarbiyasida qanday ahamiyatga ega?

6. Asardagi fojialarning kelib chiqish sabablari orqali milliy birlikning ahamiyati qanday ochib berilgan?

7. “O‘tkan kunlar”da Vatan himoyasi va xalq manfaati uchun kurash g‘oyasi qay tarzda badiiy ifodalangan?

8. Asar yosh avlodni qanday qilib ogoh, jasur va ma’naviy barkamol inson bo‘lishga undaydi?

9. Otabekning islohotchilik g‘oyalari bugungi davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan qanday uyg‘unlashadi?

10. Asardan kelib chiqib, ayting-ch, millatni zaiflashtiruvchi eng katta xavf tashqi dushmanmi yoki ichki parokandalik?



# KECHA VA KUNDUZ

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... KECHA VA KUNDUZ

**MUALLIFI:** ..... ABDULHAMID CHO'L PON

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI


## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Kecha va kunduz” asarini adabiyot ahli ziyolilarimiz o‘zbek nasrida milliy ongning uyg‘onishi, ijtimoiy tanqid va ma’naviy uyg‘onishning eng yuksak namunasi deb baholaydi. Jumladan, Ozod Sharafiddinov asarni Cho‘lpon ijtimoiy tafakkurining eng chuqur ifodasi sifatida e’tirof etgan. Asardagi “kecha” va “kunduz” qarama-qarshiligi – millatning jaholatdan ma’rifatga o’tish zarurati sifatida ochib berilgan. Cho‘lponshunoslar esa asarda inson erki, jamiyat adolati va ma’rifat g‘oyalari kuchli badiiy asosda berilganini, ayniqsa, Zebi obrazi orqali butun bir ezilgan xalq taqdiri umumlashtirilganini qayd etadilar.

Ibrohim G‘afurov esa asarni faqat ijtimoiy voqealik tasviri emas, balki inson ruhiyati va milliy ong-

ni uyg‘otuvchi badiiy-falsafiy matn sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Kecha va kunduz”dagi asosiy kuch – jamiyatni ichkaridan yemiruvchi jaholatni fosh etish va insonni ma’rifatli hayot sari chaqirishdir. G‘afurov asarni o‘quvchini fikrlashga, o‘z taqdiri va jamiyat oldida mas’uliyatni his qilishga undaydigan ruhiy uyg‘onish manbayi sifatida baholaydi. Cho‘lpon asar orqali jaholat, zulm va mustamlakachilik davrida inson qadri qanday poymol bo‘lishini, ayniqsa, ayollar va zaif qatlamlar qanday ezilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u kitobxonni uyg‘onishga, fikrlashga va ma’rifatni eng katta kuch sifatida anglashga chaqiradi.

Asarning asosiy g‘oyaviy o‘zagi jamiyatni jaholat va zulm (“kecha”)dan ma’rifat, ozodlik va ongli hayot (“kunduz”) sari yetaklashdir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVİY OZUQASI

Ma’rifat va onglilik g’oyasi jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida bilim va uyg’onishni ko’rsatadi. Inson erki va qadri Zebi taqdiri orqali, uning insoniy huquqlari poymol bo’lishi orqali fojiali tarzda ochib beriladi. Asardagi ijtimoiy adolat g’oyasi – zulm va tengsizlikka qarshi ma’naviy norozilikni ifodalasa, milliy uyg’onish g’oyasi – xalqni befarqlikdan o’z taqdiri uchun mas’uliyatni olishga targ’ib qiladi.

Asarning muhim jihati shundaki, u jamiyatdagi muammolarni tashqi kuchlar emas, balki ichki jaholat va ma’naviy zaiflik bilan bog’lab ko’rsatadi. Shu orqali Cho’lpon o’quvchini faqat kuzatuvchi emas, balki fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs bo’lishga undaydi. Asarning g’oyaviy-mafkuraviy qiymati uning har bir avlodni uyg’otish, ongini kengaytirish va insonni ma’rifatli, erkin va mas’uliyatli hayot sari yetaklash qobiliyatidadir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda tasvirlangan “kecha” – jaholat va zulm muhiti bugungi kunda millat xavfsizligiga qanday tahdid sifatida talqin qilinishi mumkin?

2. “Kunduz” – ma’rifat va uyg’onish g’oyasi harbiy xizmatchi uchun strategik fikrlash va qaror qabul qilishda qanday ahamiyat kasb etadi?

3. Zebi taqdiri orqali inson huquqi va adolat masalasini qanday baholash mumkin?

4. Asardagi ichki ijtimoiy zulm va adolatsizlik davlat barqarorligiga qanday ta’sir ko’rsatadi?

5. Harbiy xizmatchi uchun ma’naviy barqarorlik va jamoaviy birlik g’oyalari asar mazmuni orqali tushuntiring.

6. Jaholat va manfaatparastlik millat parokandaligiga olib kelishi asarda qanday misollar orqali keltirilgan?

7. “Kecha va kunduz”da ichki tahdidlar va tashqi xavflarning strategik farqlarini yozuvchi qanday ifodalagan?

8. Harbiy xizmatda sadoqat va vijdon tushunchalarini asar g’oyalari bilan uyg’un holda tushuntiring.

9. Asardagi fojialardan kelib chiqib, intizom va mas’uliyatli qaror qabul qilishning ahamiyatini izohlang.

10. Asar g’oyasi asosida millatni himoya qiluvchi eng muhim kuch – qurol, birlik yoki ma’rifat ekanligini asoslab bering.



# ABU ALI IBN SINO

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... ABU ALI IBN SINO

MUALLIFI: ..... ABDUJALOL RAHIM

YOZILISHI: ..... KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Eng yaxshi asarlar" (2018) tanlovi g'olibi sifatida e'tirof etilgan mazkur romanda buyuk vatan-doshimizning bolaligi, o'smirligi, hayotining 1005-yilgacha, ya'ni yigirma besh yoshigacha Buxoroda kechgan davri qalamga olingan. O'z-likni anglash – inson haqiqatni o'z qalbidan topishi mumkinligi g'oyasi.

Sabr va matonat – komillikka yetishish mashaqqatsiz bo'lmasligini anglashni osonlashtiradi. Harbiy xizmatchi esa har qanday davr mashaqqatlarida ham bilim olishga intilgan inson uchun to'siq bo'lmasligini va ko'plab yutuqlarga erishishi mumkinligini anglaydi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari na-  
faqat tibbiyot sohasi vakillari, balki harbiy xiz-  
matchilar uchun ham o‘ta qimmatli amaliy man-  
ba hisoblanadi. Harbiylar ushbu asar mutolaasi  
orqali jang maydonida birinchi tibbiy yordam  
ko‘rsatish, jarohatlarni to‘g‘ri bog‘lash va da-  
volash, shuningdek, dala sharoitida va uzoq  
muddatli harbiy safarlarda yuqumli kasalliklar

tarqalishining oldini olish kabi hayotiy muhim  
bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Buyuk hakimning shaxsiy gigiyena, askarlar-  
ning jismoniy chiniqishi, sog‘lom ovqatlanish  
tartibi va ruhiy barqarorlikni saqlash bo‘yicha  
tavsiyalari bugungi kun armiyasida ham shax-  
siy tarkibning jangovar shayligi, chidamliligi va  
salomatligini ta‘minlashda beqiyos ma‘naviy va  
amaliy ahamiyat kasb etadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda qaysi tarixiy shaxsning hayoti va faoliyati yoritilgan?
2. Abu Ali Ibn Sinoning bolalik va yoshlik davri qanday tasvirlangan?
3. Uning ilmga bo‘lgan qiziqishi qanday shakl-  
langan?
4. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi eng muhim asari qaysi va uning ahamiyati nimada?
5. Asarda uning qaysi ustozlari yoki zamon-  
doshlari tilga olingan?
6. Ibn Sinoning ilmiy izlanishlari qaysi so-  
halarni qamrab olgan?
7. Asarda qahramonning xarakteri va insoniy fazilatlari qanday ochib berilgan?
8. Sizningcha, Ibn Sinoning muvaffaqiyatga erishishida eng muhim omil nima bo‘lgan?
9. Asardan bugungi yoshlar qanday ibrat oli-  
shi mumkin?
10. Ibn Sinoning ilm-fanga qo‘shgan hissasini bugungi zamon bilan qanday bog‘lash mum-  
kin?



# DUNYONI TITRATGAN IKKI SARKARDA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **DUNYONI TITRATGAN  
IKKI SARKARDA**

**MUALLIFI:** ..... **AKMAL MAHKAMOV**

**YOZILISHI** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Dunyoni titratgan ikki sarkarda” asari bir qarashda ikki mashhur sarkardaning hayotini yoritgandek tuyulsa-da, aslida ularning harbiy tafakkur, strategik qaror qabul qilish va davlat boshqaruvi sirlarini ochib beradi. Bu asar orqali o'quvchi Chingizxon va Amir Temur qanday qilib kichik imkoniyatlardan katta g'alabalar yaratganini, vaziyatni to'g'ri baholash va rejalashtirish harbiy sarkarda faoliyatida va davlat boshqaruvida ne chog'li ahamiyatga egaligini anglaydi.

Asar o'quvchining strategik fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi, harbiy rahbarlik va mas'uliyat tushunchasini chuqurlashtiradi, tarixiy tajriba orqali xatolar va yutuqlardan saboq beradi, qat'iyat, intizom va iroda kuchini tarbiyalaydi, vatanparvarlik va jamoaviy birlik g'oyasini mustahkamlaydi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun bu asar real jang maydoni, qo'shin ruhiyati va strategiyani tushunishga yordam beradi. Asar faqat tarix emas, balki rahbarlik, jasorat va aql uyg'unligi haqidagi amaliy saboqlar kitobidir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarning bosh g‘oyasi – g‘alaba faqat kuch bilan emas, aql, reja va intizom bilan qo‘lga kiritilishini ilgari suradi. Dunyoni titratgan ikki sarkardaning ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati uning asosiy mazmunida mujassam bo‘lgan rahbarlik, strategiya, iroda va mas’uliyat g‘oyalarida namoyon bo‘ladi. G‘alaba va kuch uzoqni ko‘ra bilish orqali qo‘lga kiritilishi haqida mulohazalar hayotiy misollar orqali ochib beriladi. Unda sarkarda shaxsi davlat va millat taqdiri uchun mas’ul strategik yetakchi sifatida talqin qilinadi. Asarda vatanparvarlik va millat manfaatini ustun qo‘yish, strategik

fikrlash va vaziyatni to‘g‘ri baholash, qat’iyat va mas’uliyatli qaror qabul qilish, jamoaviy birlik va intizomning hal qiluvchi ahamiyati, tarixiy tajriba orqali saboq olish va takror xatolarga yo‘l qo‘ymaslik kabi tamoyillari ilgari suriladi.

Asar o‘quvchini irodali va sabrli bo‘lishga, qiyin vaziyatda ham to‘g‘ri qaror qabul qilishga, mas’uliyatni his qilish va yetakchilik sifatlarini rivojlantirishga, vatan oldidagi burchni anglashga, ichki tartib, intizom va sadoqatni shakllantirishga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda tasvirlangan ikki buyuk sarkardaning harbiy tayyorgarlikka yondashuvida qanday asosiy farqlar va umumiy jihatlar mavjud?

2. G‘alabaga erishishda strategik fikrlashning ahamiyatini tushuntiring, buni bugungi harbiy ta’limga qanday tatbiq qilish mumkin?

3. Buyuk sarkarda bo‘lish uchun asarda qayd etilgan eng muhim uchta fazilat va ular qanday shakllantirilganligi haqida gapiring.

4. Harbiy intizom va ruhiy barqarorlik sarkardaning qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

5. Asardagi sarkardalarning g‘alabalarida razvedka, ma’lumot to‘plash va tahlil qilishning ahamiyati qanday yoritilgan?

6. Harbiy yurishlarda inson hayotiga bo‘lgan munosabat qanday ifodalangan va bu zamonaviy harbiy etika bilan qanday bog‘lanadi?

7. Sarkardalarning qo‘shin boshqarish uslublarida liderlik va jamoani ilhomlantirish qanday ahamiyat kasb etadi?

8. Asar misolida strategiya va taktika o‘rtasidagi farq qanday tushuntiriladi va qaysi holatlarda ular ustunlik qiladi?

9. Harbiy xizmatchi uchun sadoqat, vatanparvarlik va mas’uliyat tushunchalari asarda qanday talqin etilgan?

10. Ushbu asardan kelib chiqib, bugungi yosh avlodni haqiqiy sarkardalikka tayyorlash uchun qanday tarbiyaviy yondashuvlar zarur deb hisoblanadi?



# IBRATLI HIKOYATLAR VA XISLATLI HIKMATLAR

## **KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** .....**IBRATLI HIKOYATLAR VA  
XISLATLI HIKMATLAR**

**MUALLIFI:**..... **ALISHER NAVOIY**

**YOZILISHI:**..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar – inson qalbiga ezgulik, mehr-oqibat, halollik va vatanparvarlik tuyg'ularini singdiruvchi ma'naviy-ma'rifiy asardir. Ushbu kitobni o'qish orqali inson hayotda to'g'ri yo'l tanlash, yaxshi va yomonni farqlash, sabr-bardoshli bo'lish hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Asarda keltirilgan har bir hikoya va hikmat o'quvchini chuqur mushohada qilishga, o'z hayotiga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi.

Kitobning asosiy qiymati shundaki, u insonning ma'naviy dunyoqarashini boyitadi, axloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi va komil inson tarbiyasiga xizmat qiladi. Asarda ilgari surilgan mafkura insonparvarlik, sadoqat, mehnatsevarlik, halollik va Vatanga muhabbat g'oyalari bilan uyg'un holda yoritilgan. Bu g'oyalar, ayniqsa, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asardagi ibratli voqealar va hikmatli so‘zlar insonni ma’naviy yuksalishga chorlaydi. Unda ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom, el-yurtga sadoqat kabi milliy qadriyatlar keng targ‘ib qilingan. Shu bois kitob nafaqat oddiy o‘quvchilar, balki yoshlar, harbiy xizmatchilar va rahbar kadrlar uchun ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Asar inson qalbida jasorat, matonat va burch hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, harbiylar uchun kitobdagi vatanparvarlik va fidoyilik ruhi jangovar kayfiyatni oshirish, intizom va mas’uliyatni mustahkamlashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, kitob insonni ezgulikka yetaklaydigan, hayot saboqlarini o‘rgatadigan va ma’naviy kamolotga chorlaydigan qimmatli asar hisoblanadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarini o‘qish insonning ma’naviy dunyoqarashini boyitishda qanday ahamiyat kasb etadi?

2. Asarda ilgari surilgan insonparvarlik, halollik, jasorat va sadoqat g‘oyalari harbiy xizmatchilarning Vatanga bo‘lgan muhabbati va burch hissini mustahkamlashda qanday o‘rin tutadi?

3. Asardagi ibratli qahramonlar obrazi orqali milliy qadriyatlar va o‘zbekona axloq qanday targ‘ib qilingan?

4. Asarda bayon etilgan hikmatlar inson irodasini chiniqtirish, sabr-bardosh va matonatni shakllantirishda qanday tarbiyaviy vazifani bajaradi?

5. Ushbu asardagi ma’naviy g‘oyalar harbiylarning jangovar ruhini oshirish va jamoada o‘zaro hurmat muhitini shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

6. Insonni yomon illatlardan qaytarish va ezgulikka undashda asardagi hikmatli fikrlarning ta’sirchanligi nimada?

7. Asarda milliy an’analar, ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom kabi qadriyatlar qanday yoritilgan?

8. Asar qahramonlarining hayotiy misollari orqali Vatan himoyasi, burch va fidoyilik tushunchalari qanday talqin qilingan?

9. Asarni mutolaa qilish yoshlarda mustaqil fikrlash, axloqiy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burchini anglash hissini qanday rivojlantiradi?

10. Asardagi ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar asosida vatanparvarlik, milliy g‘urur va insoniy fazilatlarini mustahkamlash uchun qanday amaliy xulosalar chiqarish mumkin?



# LISON UT-TAYR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....**LISON UT-TAYR**

**MUALLIFI:** .....**ALISHER NAVOIY**

**YOZILISHI:** .....**LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Lison ut-tayr” Alisher Navoiy umrining soʻngi pallasida, 1499-yilda yozilgan yirik irfoni doston boʻlib, hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. “Lison ut-tayr” (“Qushlar tili”) – ramziy va tasavvufiy doston boʻlib, unda qushlar podshoh izlab safarga chiqishi tasvirlanadi. Qushlar oʻzlariga haqiqiy podshoh kerakligini anglab, Simurgʻ nomli afsonaviy qushni topish uchun yoʻlga tushadilar. Ularni dono qush – Hudhud boshqaradi. Safar davomida ular 7 vodiya oʻtishlari kerak boʻladi. Har bir vodiya insonning maʼnaviy kamolot bosqichini anglatadi.

Yoʻl juda ogʻir boʻlgani uchun koʻplab qushlar ortga qaytadi. Faqat 30 ta qush manzilga yetib

boradi. Oxirida ular anglaydiki, Simurgʻ oʻzlari ekan (“si” – oʻttiz, “murgʻ” – qush). Yaʼni ular izlagan haqiqat oʻz qalblarida ekanini tushunishadi.

Asarning asosiy gʻoyasi: Inson Haqni (Allohni) izlash orqali oʻzini topadi. Haqiqiy kamolot – nafsni yengish va ruhiy poklanish orqali erishiladi. Inson izlagan haqiqat tashqarida emas, oʻz qalbida ekanligini anglaydi. Birlik va hamjihatlik orqali yuksalish mumkin. Tasavvuf falsafasini chuqur yoritadi. Insonning maʼnaviy oʻsish yoʻlini ramziy obrazlar orqali koʻrsatadi. Sharq adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI


O‘quvchi uchun inson ruhiy kamoloti – maqsad yo‘lidagi mashaqqatlar, hamma ham manzilga yetib bora olmasligi, matonatning g‘olib bo‘lishi.

Harbiy xizmatchi Davlat boshqaruvida inson qadri tamoyilini ilgari surishning Navoiyga xos tajribalarini, tarbiyada qadriyatlarning o‘rnini o‘rganadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda qushlar nima sababdan safarga chiqadilar?
2. Qushlarga yo‘l ko‘rsatuvchi qahramon kim va uning vazifasi nimadan iborat?
3. Simurg‘ qanday ramziy ma‘noni anglatadi?
4. Qushlar nechta vodiydin o‘tadilar va bu vodiylar nimani ifodalaydi?
5. Safar davomida nega ko‘plab qushlar ortga qaytadi?
6. Oxirida manzilga nechta qush yetib boradi?
7. Asardagi safar inson hayoti bilan qanday qiyoslanadi?
8. 7 vodiylar bosqichlari insonning qaysi ma‘naviy holatlarini ifodalaydi?
9. Asarda birlik va hamjihatlik g‘oyasi qanday ochib berilgan?
10. Asarning yakunidagi haqiqat nimani anglatadi?



# MAHBUB UL-QULUB

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **MAHBUB UL-QULUB**

**MUALLIFI:** ..... **ALISHER NAVOIY**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Mahbub ul-qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”) Hazrat Navoiyning umri poyonida yozgan so’nggi asari bo’lib, 1500-yilda yaratilgan. Asar muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Muqaddima an’anaga ko’ra, Alloh hamdi bilan boshlanadi. 1-qism “Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati haqida” deb nomlanib, shoir unda 40 faslda turli ijtimoiy tabaqalar haqida o’z xulosa va kuzatuvlarini bayon qiladi. 2-qism “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” (Maqtovga loyiq axloq va yomon xislatlar haqida, 10 bob). Har bir axloqiy fazilat hikoyat bilan dalillangan. 3-qism “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (Turli foydali o’gitlar va masalalar) haqida yozilgan.

Hayoti davomida undan kerakli saboq olgan va insoniylik bobida ko’p tajriba orttirgan mutafakkir ushbu kitobni balog’at bo’sag’asida turgan yoshlarni to’g’ri yo’ldan adashmaslik uchun dasturulamal tariqasida yozganini qayd qiladi. “Mahbub ul-qulub” turkiy adabiyotda yaratilgan didaktik asarlarning ilk namunalaridan bo’lishi bilan birga, Navoiyning hayoti oxirida yaratilgani hamda uning dunyoqarashini yaxlit tarzda ifodalaydigan yirik axloqiy-falsafiy qomus sifatida bugungi kunga qadar o’z ahamiyatini yo’qotmagan. “Mahbub ul-qulub”dagi hikmatlarning aksariyati xalq maqollariga aylanib, keyingi avlodlarning tarbiyasi uchun muhim dasturulamal bo’lib kelmoqda.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun – Inson ruhiy kamoloti – maqsad yo‘lidagi mashaqqatlar – hamma ham manzilga yetib bora olmasligi – matonatning g‘olib bo‘lishi.

Harbiy xizmatchi Davlat boshqaruvida inson qadri tamoyilini ilgari surishning Navoiyga xos tajribalarini va tarbiyada qadriyatlarning o‘rni ni o‘rganadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarning birinchi qismida jamiyatdagi qaysi toifa va kasb egalari haqida so‘z yuritiladi?

2. Asarda podshoh va amaldorlarga qanday axloqiy talablar qo‘yilgan?

3. Asarda ishq necha turga bo‘lingan?

4. Ikkinchi qismda insonning qanday fazilat va illatlari haqida fikr bildiriladi?

5. Navoiy tavba maqomi bilan bog‘liq qanday hikoyat keltiradi?

6. Asarda keltirilgan, tabobat ilmi bilan


shug‘ullanuvchilarga kerakli bo‘lgan uchta qurolni ayting?

7. Asarda shoir qanoat tushunchasi haqida so‘zlab, qaysi hikoyatni ilova tarzida keltiradi?

8. Asarning 1-qism, 7-faslida qaysi masala yoritilgan?

9. “Mahbub ul-qulub”da takabburlik va manmanlik to‘g‘risida nima deyilgan?

10. Navoiy takabburlik va manmanlik illatiga muhtalo bo‘lganlarni qanday toifalarga ajratadi?



# XAMSA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....XAMSA

MUALLIFI: ..... ALISHER NAVOIY

YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Xamsa buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan besh dostonidan iborat yirik asardir. Unda "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlari jamlangan.

Dostonlarda insonning ma'naviy kamoloti, muhabbat, adolat va ezgulik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. "Hayrat ul-abror" dostonida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, insonning ma'naviy mas'uliyati tasvirlanadi. "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlarida pok muhabbat va fidoyilik mavzulari yoritilgan. Qolgan dostonlarda esa hukmdorlik, adolat va insoniy fazilatlar haqida badiiy fikrlar bayon etilgan.

"Xamsa" insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi, muhabbat, adolat va ezgulikni targ'ib etuvchi buyuk adabiy yodgorlik hisoblanadi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Xamsa” orqali Alisher Navoiy insonni komillikka yetaklaydigan asosiy g’oyalarni ilgari suradi. Avvalo, dostonlar insonni yuksak axloq-odobga chorlaydi. Ularda adolat, halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat kabi fazilatlar ulug’lanadi. Insonning nafsini jilovlash, yomon xulqlardan voz kechib, yaxshilik sari intilishini targ’ib qiladi. Shu bilan birga, asarda muhabbat g’oyasi markaziy o’rin tutadi. Muhabbat nafaqat ikki inson o’rtasidagi his-tuyg’u, balki

insonning Vatanga, xalqqa, borliqqa bo’lgan sadoqati sifatida talqin qilinadi. “Xamsa”da adolatli jamiyat va ideal rahbar masalasi ham muhim o’rin egallaydi.

Bundan tashqari, asar ilm-fan va ma’rifatni ulug’laydi. Navoiy inson kamolotining asosi bilim va tafakkurda deb hisoblaydi. Shu bois “Xamsa” yoshlarni ilm olishga, fikrlashga va o’z ustida ishlashga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Xamsa”dagi qaysi g’oya intizom va tartibni ifoda etadi?

2. “Hayrat ul-abror”dagi adolat va halollik tamoyillarini o’z hayotingiz va faoliyatingizda qanday qo’llash mumkin deb o’ylaysiz?

3. “Farhod va Shirin”dagi Farhod timsoli orqali qanday fazilatlar (sadoqat, sabr, mehnat) ulug’lanadi?

4. Jamoa bilan ishlash, qat’iy qaror qabul qilish va maqsadga intilishda og’ishmaslik nuqtayi nazaridan Farhodning harakatlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin?

5. “Layli va Majnun”da fojiali muhabbatning sababini nimalarda ko’rasiz? Dostondan qan-

day hayotiy saboq olish mumkin?

6. His-tuyg’ular va burch o’rtasidagi muvozanatni saqlashda Farhodning ibрати haqida gapiring.

7. “Sab’ai sayyor”dagi hikoyalar qanday axloqiy saboqlarni beradi?

8. Qaror qabul qilishda “Sab’ai sayyor”dagi hikoyalarning qaysi jihatlari o’rnak bo’ladi?

9. “Saddi Iskandariy”dagi adolatli hukmdor obrazi rahbar uchun qanday namuna bo’la oladi?

10. “Xamsa” asari shaxsning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qanday hissa qo’shadi, o’z fikringiz orqali ifodalab bering.



# TURKISTON QAYG'USI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **TURKISTON QAYG'USI**

**MUALLIFI:** ..... **ALIXONTO'RA SOG'UNIY**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Asar 1917–1950-yillar mobaynida G'arbiy va Sharqiy Turkistonda sodir bo'lgan voqealarining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan tomonlarini ochib beradi. “Turkiston qayg'usi” asari 1966–1973-yillarda Toshkentda yoziladi. Asarning birinchi qismi muallifning o'z qo'li bilan 1969-yilda yozib bitirilgan. Ikkinchi qismi esa muallif xohishiga ko'ra, o'g'li Asilxon tomonidan 1969-yildan boshlab bir necha yil davomida yozilgan va asar butun holatga keltirilgan. Alixonto'ra Sog'unij “Turkiston qayg'usi” nomli ushbu asarida Turkiston xalqi qanday qilib mustabid tuzumga qaram bo'lib qolganini davlat

arbobi sifatida siyosiy va ijtimoiy jihatdan tahlil etib ochiqlashga harakat qiladi. Shuningdek, asarda Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asr oxirlarigacha bo'lgan davrdagi davlatchilik tarixi, Amir Temur va turkiy xalqlar kelib chiqishiga doir qimmatli ma'lumotlar ham bor. Shuningdek, kitobning ikkinchi qismida Sharqiy Turkiston Jumhuriyatining yuzaga kelishi va parokanda bo'lishi sabablari ko'rsatilgan. Jumhuriyatning qurilish jarayoni, davlat asoslarini o'rnatish yo'l yo'riqlari keltirilgan. Bu davlatning tugatilish sabablari yoritilgan.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI


O‘quvchiga Turkiston xalqlarining ozodlik uchun kurashi va millatning fojialari haqida tarixiy ma’lumot beradi.

Harbiy xizmatchiga milliy ozodlik g‘oyasi, Vatan mustaqilligini asrab qolish naqadar muhimligini anglashga yordam beradi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Turkiston qayg‘usi asarida Qumul qo‘z-g‘oloni haqida nima deyilgan?
2. Shin Duban nima uchun hokimiyatga keltirildi?
3. Asarda XX asr madaniy yirtqichlari deb kimlarga ta’rif berilgan?
4. Asarda Angliya va Rusiya o‘rtasidagi munosabatlar qanday tasvirlangan?
5. Londonliklarning Turkiya sultonligiga yuborgan elchilari haqida nima deyilgan?
6. Asarda kim yosh bo‘lsa ham safarga chidamsizroq ekan deb ta’riflanadi?
7. Asarda keltirilgan ko‘r balo nima edi?
8. “Tarixi Komil”da qirg‘iz turklari qanday arabcha nom bilan atalgan?
9. Amir Temurga nisbatan qo‘llanilgan Ko‘ragon so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
10. Alixonto‘ra Sog‘uniy qamoqda o‘tirgan paytlarini qanday tasvirlagan?



# ALPOMISH

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI:.....ALPOMISH

MUALLIFI: .....XALQ

YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng mashhur qahramonlik asarlaridan biri bo‘lib, milliy epik merosimizning nodir namunasi hisoblanadi. Ushbu dostonning asosiy g‘oyasi vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, or-nomus va oila qadriyatlarini ulug‘lashdan iborat. Asarda el-yurtga muhabbat, yor va do‘stga sadoqat, ota-onaga hurmat, adolat uchun kurash kabi insoniy fazilatlar yuksak darajada tasvirlanadi. Alpomish obrazi orqali xalq o‘zining ideal qahramonini yaratgan – u kuchli, jasur, dono, sabr-toqatli va adolatparvar yigit sifatida gavdalanadi.

Doston voqealari Qo‘ng‘irot elida boshlanadi. Aka-uka Boybo‘ri va Boysari uzoq vaqt farzand ko‘rmay yuradilar va nihoyat ularning tilagi ijobat bo‘lib, Alpomish hamda Barchin dunyoga keldi. Yoshligidan Alpomish tengsiz kuch va jasorat

egasi bo‘lib ulg‘ayadi. U Barchinoyga uylanish uchun turli sinov va kurashlardan o‘tadi hamda o‘zining mardligini namoyon etadi. Keyinchalik turli fitnalar sabab asirga olinib, uzoq muddat zindonda qoladi. Shunga qaramay, u irodasini yo‘qotmaydi, sabr bilan qiyinchiliklarga bardosh beradi va oxir-oqibat ozodlikka chiqadi. Yurtiga qaytib, adolatni tiklaydi, dushmanlarni yengadi va elining tinchligini ta‘minlaydi.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining qadimiy tarixi, urf-odatlar, an‘analari va ma‘naviy dunyosini aks ettiradi. U nafaqat badiiy asar, balki xalqning ruhiy qudrati va orzu-intilishlarini ifodalovchi bebaho merosdir. Shu bois bu doston yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va mardlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun: o‘z ajdodlarining vatanparvarligi, oilaparvarligi, milliy qadriyatlarga hurmati, davlat va jamoat arboblarning ma’naviy qiyofasi haqida tasavvurlari kengayadi.

Harbiy xizmatchi uchun: jasorat, or-nomusni saqlash va umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lash yetakchi vazifa hisoblanadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Alpomish (Hakimbek) tug‘ilganida atrofda qanday muammolar bor edi? Shu holat keyingi voqealarga qanday ta’sir qildi?

2. Hakimbekning “Alpomish” deb atalishi uning taqdirida qanday aksini topadi?

3. Barchinoyning shart qo‘yishi orqali o‘zbek ayolining oilaga munosabatini, jamiyatda tutgan o‘rnini tushuntirib bering.

4. Qalmoq yurti bilan bog‘liq voqealar hikoyani qanday o‘zgartiradi? Vatanparvarlik va birlik g‘oyasi qanday aks ettirilganini ayting.

5. Alpomishning zindonga tushishi va u yerdagi his-tuyg‘ularini ifodalash orqali uning ichki dunyosini tasvirlang.

6. Yetti yillik ayriliq voqeasi asarda qanday keskinlik (drama) yaratadi va asosiy g‘oyaga qanday xizmat qiladi?

7. Ultontoz obrazi orqali xiyonat qanday ifodalanadi? Voqealar orqali qarama-qarshilik qanday kuchaygani haqida ayting.

8. Alpomishning qaytib kelishi, adolat o‘rnatishi xalqning qanday orzu-umidlari bilan ifodalanadi?

9. Do‘stlik, sadoqat va vafoning qudrati asardagi qaysi voqealar orqali eng yoritilgan?

10. Alpomishning ideal qahramonlik sifatlarini sanab bering. Uning siymosida o‘zbek xalqining qanday qadriyatlari ifodalanadi?



# BUXORO YOXUD MOVAROUNNAHR TARIXI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....**BUXORO YOXUD  
MOVAROUNNAHR TARIXI**

**MUALLIFI:** .....**ARMINIY VAMBERI**

**YOZILISHI:** .....**KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asari Movarounnahr – ya’ni Amudaryo va Sirdaryo oralig’idagi qadimiy o’lkaning siyosiy, harbiy va madaniy tarixini yoritadi. Asarda dastlab Movarounnahrning qadimiy davrlari, bu hududning boyligi, savdo yo’llari va strategik ahamiyati haqida so’z yuritiladi. Bu o’lka Buyuk Ipak yo’li ustida joylashgani sababli doimo kuchli davlatlarning e’tiborida bo’lgan. Asarning eng muhim qismlaridan biri arablarning Movarounnahr-ga yurishlari haqida. Arab lashkarboshilari dastlab Xuroson orqali kirib keladi. Buxoro va Samarqand bir necha bor bosib olinadi. Mahalliy hukmdorlar va turk qavmlari qarshilik ko’rsatadi. Qutayba ibn Muslim davrida Movarounnahr to’liq bo’ysundiriladi. Islom dini asta-sekin yoyila boshlaydi. Arab hukmronligidan keyin Movarounnahrda turli sulolalar hukmronlik qiladi: Somoniylar davrida Buxoro ilmfan va madaniyat markaziga aylanadi. Keyinchalik

qoraxoniylar, saljuqiylar va boshqa kuchlar hukmronlik qiladi. Ichki kurashlar va tashqi bosqinlar o’lkaning siyosiy zaiflashuviga sabab bo’ladi.

XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi mo’g’ullar Movarounnahr-ga bostirib kiradi. Buxoro va Samarqand vayron qilinadi. Aholi qirg’in qilinadi. Madaniy hayot tanazzulga yuz tutadi. Asarning eng yorqin va muhim bo’limlaridan biri Amir Temur shaxsiga bag’ishlangan. Temur siyosiy tarqoqlikka barham beradi, Samarqandni buyuk imperiya markaziga aylantiradi, harbiy intizom va davlat boshqaruvida kuchli tizim yaratadi.

Asar faqat tarixiy voqealar to’plami emas. Unda asosan o’tmishni bilmagan millat kelajakni qura olmaydi, birlik yo’q joyda zaiflik paydo bo’ladi, harbiy qudrat va ma’naviy kuch bir-biriga bog’liq bo’ladi degan fikrlar hamda Movarounnahr xalqi ko’p sinovlardan, qiyinchiliklardan o’tgan, lekin yo’qolmagan, birdamlikda tura olganligi tasvirlangan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchiga milliy o‘zlikni anglash, tarixdan saboq olish, ma’naviy uyg‘onishni o‘rgatadi. Asar qadimgi Movarounnahr xalqi oddiy xalq emasligini, balki buyuk tarixga ega millatligini hamda Movarounnahr ilm-fan, savdo va madaniyat markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Harbiy xizmatchi Vatan himoyasining muqaddasligini, intizom va strategiyaga ega bo‘lishni, birdamlikni, tariximizning jahon miqyosidagi o‘rnini o‘rganadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda arablarning Movarounnahrda yurishlari qanday tasvirlangan va buning mahalliy aholi hayotiga ta’siri qanday?

2. Qutayba ibn Muslimning olib borgan siyosati Movarounnahr tarixida qanday buri-lish yasadi?

3. Vamberi Temurning nasl-nasabiga doir bahslarga qanday munosabat bildiradi?

4. Asarda Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissi qanday baholanadi?

5. Bobur tomonidan tasvirlangan Samarqand me’morchiligi Movarounnahr madaniy yuksalishi haqida qanday tasavvur beradi?

6. Shayboniylarning Movarounnahrni egalashlari va harbiy siyosati qanday tasvirlangan?

7. Vamberining fikricha, davlatni boshqarishda “ruhoniy” va “askariy” tizim o‘rtasidagi farq nimada?

8. Movarounnahrdagi ichki nizolar va taxt uchun kurashlar davlat mustahkamligiga qanday ta’sir qilgan?

9. Asarda Buxoroning “Islom markazi” sifatidagi o‘rni qanday dalillar bilan asoslab berilgan?

10. Muallif tarixiy voqealarni yoritishda qanchalik xolis yondashgan deb o‘ylaysiz?



# TEMUR TUZUKLARI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **TEMUR TUZUKLARI**

**MUALLIFI:** ..... **AMIR TEMUR**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Temur tuzuklari – bu buyuk saltanat tajribasi-ning nazariy va amaliy qomusi bo'lib, unda Amir Temurning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari mujassamdir. Asar badiiy ruh va siyosiy tafakkur uyg'unligida yozilgan bo'lib, unda tarixiy voqealar sharhi bilan bir qatorda davlat boshqaruvining aniq tamoyillari ham izchil bayon etiladi. Tuzuklarda, avvalo, Temurning siyosiy maydonga kirib kelishi, markazlashgan davlat barpo etish yo'lidagi kurashlari tasvirlanadi. Bu jaryonda muallif shaxsiy jasoratdan ko'ra, strategik tafakkur va qat'iy intizomni ustun qo'yadi. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, asarda markazlashgan boshqaruv modeli, mansabdorlar iyerarxiyasi, harbiy tuzilma va nazorat mexanizmlari aniq tizimga solinganini ko'rish mumkin. Har bir

lavozim egasining vazifasi belgilangan, mukofot va jazo mezonlari esa adolat tamoyiliga asoslangan. Temur nazarida davlat qudrati uch ustunga tayangan: adolat, intizom va maslahat. Ulamolalar va donishmandlar bilan kengashish, tajribali amirlar fikrini inobatga olish – boshqaruvning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Bu jihat asarni oddiy harbiy qo'llanma emas, balki siyosiy-falsafiy risola darajasiga ko'taradi.

“Kuch – adolatdadir” degan g'oya esa tuzuklarning konseptual markazidir. Shuningdek, asarda ijtimoiy barqarorlik masalasi ham muhim o'rin tutadi. Xalqning roziligi, sadoqatli kishilarni qadrlash, xiyonat va beparvolikka nisbatan qat'iy choralar ko'rish davlat mustahkamligining asosi sifatida ko'rsatiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun – markazlashgan boshqaruv, qonun ustuvorligi va ijtimoiy tartib konsepsiyasi ilgari suriladi. Amir Temur tajribasi orqali davlat barqarorligi subyektiv iroda emas, balki tizimli boshqaruv, vakolat va javobgarlik muvozanati bilan ta’minlash stereotiplari o‘quvchi uchun yaqqol ochib berilgan.

Harbiy xizmat uchun – xizmat majburiyat emas, balki ijtimoiy ishonch shakli sifatida talqin etiladi. Xiyonat va beparvolik tizimni yemiruvchi omil sifatida keskin qoralanadi. Bu yondashuv askarda korporativ ruh va vatanparvarlik ongini mustahkamlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda davlat boshqaruvi konsepsiyasi qaysi nazariy tamoyillarga asoslangan va ular o‘rta asr siyosiy tafakkuri doirasida qanday boshqaruv modelini ifodalaydi?

2. “Kuch – adolatdadir” g‘oyasi matnda qanday me‘yoriy qoidalar va tarixiy dalillar orqali asoslanadi hamda u saltanat mafkurasining markaziy tamoyili sifatida qanday vazifa bajaradi?

3. Amir Temur shaxsiyati asarda qanday siyosiy-axloqiy ideal sifatida talqin etilgan va bu obraz orqali qanday rahbarlik modeli ilgari suriladi?

4. Tuzuklarda harbiy intizom, iyerarxiya va buyruq tizimi qanday tizimlashtirilgan hamda bu tartib davlat barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

5. Asarda maslahat (kengash) tamoyili qanday o‘rin tutadi va jamoaviy tafakkurni qadrlash g‘oyasi siyosiy boshqaruv jarayonida qanday ahamiyat kasb etadi?


6. Tarixiy voqelik va me‘yoriy-dasturiy qoidalar qanday uyg‘unlashtirilgan? Asarni bir vaqtning o‘zida tarixiy manba va siyosiy-huquqiy dastur sifatida qanday baholash mumkin?

7. Mansabdor shaxslarga qo‘yilgan axloqiy talablar – sadoqat, halollik, mas’uliyat va intizom qanday asoslangan va ular davlat mafkurasini bilan qanday bog‘langan?

8. Asarda adolat va jazolash siyosati qanday konseptual asosda yoritilgan va bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda qanday rol o‘ynagan?

9. Harbiy va fuqarolik boshqaruvi o‘rtasidagi nisbat qanday belgilangan va bu muvozanat saltanatning uzoq muddatli mustahkamligiga qanday xizmat qilgan?

10. “Temur tuzuklari”ni siyosiy-falsafiy tafakkur namunasi sifatida tahlil qilganda, undagi g‘oyalar bugungi boshqaruv madaniyati va rahbarlik etikasi bilan qanchalik mushtaraklik kasb etadi?



# CHINOR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **CHINOR**

**MUALLIFI:** ..... **ASQAD MUXTOR**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Chinor” asarini o’qish – bu faqat badiiy asar mutolaasi emas, balki insonning o’zligini anglashi, ildizini tanishi va hayot qadriyatlarini his qilishiga xizmat qiladigan ma’naviy sayohatdir. Asar har bir o’quvchini o’z ajdodlari, tarixi va oilasi haqida chuqur o’ylashga undaydi. Azimjon obrazi orqali inson o’z kelib chiqishini, naslini bilishi va uni qadrlashi qanchalik muhim ekani ta’sirchan tarzda ochib beriladi. Asarning yana bir muhim jihati – oila qadrini ulug’lashidir. Ochil boboning qarindosh-urug’laridan doimo xabar olib turishi, avlodlar o’rtasidagi mehr va bog’liqlikni asrashga intilishi bugungi yoshlar uchun katta tarbiya maktabidir. Chunki

insonni kuchli qiladigan narsa uning ma’naviy tayanchi, ya’ni oilasidir.

Harbiy xizmatchilar uchun esa bu asar alohida ahamiyatga ega. Asardagi chinor timsoli Vatanni asrab-avaylash, uni ko’z qorachig’idek himoya qilish g’oyasini anglatadi. Qanday qilib Ochil bobo chinorni ehtiyot qilsa, haqiqiy harbiy ham yurtini shunday mehr va sadoqat bilan himoya qilishi kerak. Chinorning baquvvat va mustahkamligi esa inson irodasining ramzi sifatida namoyon bo’ladi. Bu har bir yoshni metin irodali, sabrli va jasur bo’lishga undaydi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Oddiy o‘quvchiga asar quyidagi g‘oyalarni singdiradi: O‘z ildizini unutmaslik. Har bir inson o‘z tarixini, ajdodlarini bilishi kerak. Bu, asosan, asarda Azimjon obrazi orqali oydinlashadi. Ota-bobosini izlab topib keladi. Bobosi bilan birga yurib hamma avlod-ajdodini bilib yuradi. Asarda ma’naviy ozuqa tariqasida oilaning qadriga yetish ko‘zda tutiladi. Oila – inson hayotining eng muhim qismi. Ochil bobo doim qarindosh-urug‘laridan xabar olib turadi.

Harbiy xizmatchi uchun asar juda katta ma’naviy ahamiyatga ega: Vatanni himoya qilish g‘oyasi. Bu holatda Ochil boboning chinorni asrab-avaylab ehtiyot qilishi, harbiylarimizning o‘z vatanini ko‘z qorachig‘idek asrashiga qiyoslanadi. Bundan tashqari, chinorni mustahkam iroda timsoli qilib olsak, bu harbiylarimizni metin irodali va kuchli bo‘lishga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda chinor daraxtining gapirganini faqat bir kishi eshitgan. U kim va daraxt nima deb gapirgani haqida qanday mish-mishlar bor?

2. Asarda qaysi qahramon chinorning “mo‘rt bir bargi” deya ta’riflanadi?

3. Asarda ikkita Onabibi obrazi bor. Ular kimlar?

4. Asardagi Azimjonning tugilishini gapirib bering.

5. “Konchi do‘stlarini halokatdan qutqarishda qahramonlarcha halok boldi” degan yozuv qayerga yozilgan?

6. Asarda Vatanga muhabbat qanday ifodlangan?

7. Chinor daraxti qanday ramziy ma’noni bildiradi?

8. “Odam hamisha odamiylikka intilishi kerak” jumalari kimga tegishli?

9. Asarda Ergashning kasbi ham, laqabi ham ota meros deyilgan. U qanday laqab olgan edi?

10. Ochil boboni Chinor daraxtiga qiyoslasak bo‘ladimi? Asar haqida fikringiz.



# YAPON ZOBITI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... YAPON ZOBITI

**MUALLIFI:** .....ATO HAMDAM,  
LEONID CHIGRIN

**YOZILISHI:** ..... KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Roman 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi paytida Koreya qirg'oqlarida kema halokati-ga uchragan yapon dengiz floti ofitseri Yutaro Toda haqida hikoya qiladi. U hayoti davomi-da turli og'ir sinovlarni boshdan kechiradi va kuchli irodasi, sabri, vaziyatga tez moslashib qaror qilishi, taslim bo'lmasligi bilan kitob-xonga namuna bo'ladi. Roman Todaning hayo-tiy tajribalari haqida bo'lib, urush, madani-yat to'qnashuvi va omon qolish mavzularini izohlaydi.

Roman o'zining tarixiy aniqligi, hayajonli syujeti va koreys manzarasining yorqin tas-viri uchun yuqori baholangan. "Yapon zobiti" rus-yapon urushiga o'ziga xos nuqtayi nazar-ni taqdim etadigan yaxshi yozilgan va qizi-qarli roman. Yaponiya tarixi, Koreya tarixi yoki harbiy fantastika bilan qiziqqan, badiiy kitob-larni sevadigan, syujeti sabab o'ziga bog'lab qo'yadigan kitobni o'qishni istagan kitobxon-larga tavsiya etiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi asarni o‘qigach, har qanday sharoitda ham, hech qachon orzularidan voz kechmaslikni, davom etishga umid yo‘qdek tuyulsa ham, istagan narsangiz uchun kurashishingiz kerakligini, o‘z ustida ishlashni va sharoitlarga sabr bilan moslashuvchan bo‘lishni, qiyin vaziyatga tushib qolganingizda taslim bo‘lish o‘rniga muammoga yechim berishni, kitob muqovasi-ga qarab baholanmaganidek, insonni tashqi

ko‘rinishiga qarab baholamaslikni, do‘stlikning qadriga yetishni va agar insonning o‘zi yaxshi bo‘lsa, unga hayoti davomida yaxshi insonlar yo‘ldosh bo‘lishini, oilaning muqaddasligini, oila qadriyatining ahamiyatini tushunishni, oila insonni hamisha umidini yo‘qotmaslikka turtki bo‘ladigan eng iliq maskan ekanligini his etadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Burch va sadoqat tushunchalarini siz qanday qabul qilasiz? Ular hayotingizda qay darajada muhim?

2. Qo‘rquvni yengish haqida kitobda qanday g‘oyalar berilgan va siz ularni amalda qo‘llay olasizmi?

3. O‘limga tayyorlik g‘oyasi qanday ma‘noga ega va u inson ruhiyatiga qanday ta‘sir qiladi?

4. Intizom va o‘zini nazorat qilish nega samuray uchun eng muhim fazilatlardan biri hisoblanadi?

5. Soddalik va kamtarlik g‘oyalari zamonaviy hayotda qay darajada ahamiyatli?

6. Qaror qabul qilishda ikkilanmaslik (qat‘iyat) qanchalik muhim deb o‘ylaysiz?

7. Jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish g‘oyasiga munosabatingiz qanday?

8. Samuray axloqi zamonaviy harbiy xizmatchilar uchun qanday saboqlar beradi?

9. Ruhiy barqarorlikni saqlash uchun kitobdagi qaysi fikrlar sizga eng yaqin?

10. Ushbu asarni o‘qib, o‘zingizda qanday fazilatlarni rivojlantirishni istar edingiz?



# O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT

**KITOB NOMI:** .....O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI

**MUALLIFI:** .....AZAMAT ZIYO

**YOZILISHI:** ..... KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“O‘zbek davlatchiligi tarixi” asari xalqimizning uch ming yillik uzluksiz davlat boshqaruvi an‘analarini tizimli va ilmiy asosda yoritib beruvchi qomusiy qo‘llanmadir. Unda yurtimiz hududida shakllangan eng qadimgi davlat tuzilmalaridan (Qadimgi Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona) tortib, to XIX asr o‘rtalaridagi Rossiya imperiyasi bosqinigacha bo‘lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yaxlit bir zanjir sifatida bayon etilgan.

Asarda shunchaki quruq tarixiy faktlar emas, balki har bir davlatning mudofaa tizimi, iqtisodiy qudrati, soliq siyosati va markazlashgan boshqaruv apparati chuqur tahlil qilinadi. Ahamoniy-lar, Aleksandr Makedonskiy, arab xalifaligi va mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi olib borilgan ozodlik harakatlari (Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi jasorati) orqali xalqimizning mustaqillik-

ka bo‘lgan uzilmas irodasi yorqin ko‘rsatib berilgan.

Muallif Turk xoqonligi, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar hamda buyuk Amir Temur saltanati timsolida O‘rta Osiyoda yuksak harbiy san‘at va davlat boshqaruvi qoidalari qay darajada taraqqiy etganini faktlar bilan isbotlaydi. Shu bilan birga, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari davridagi o‘zaro nizo va tarqoqliklar qanday qilib davlatni tanazzulga va oxir-oqibat mustamlakaga olib kelgani kitobxonga xolis yetkaziladi.

Umuman olganda, bu asar o‘zbek davlatchiligi-ning poydevori qanchalik baquvvat ekanligini, xalqimiz azaldan tobe emas, balki yirik imperiyalar, kuchli armiyalar va sivilizatsiyalar yaratgan buyuk millat ekanligini anglashga yordam beruvchi o‘ziga xos tarixiy oyna hisoblanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchiga Vatan tarixi shunchaki o‘tgan voqealar xronikasi emas, balki bugungi kunda barqaror davlat qurish uchun o‘rganilishi shart bo‘lgan tajribalar maktabi ekanligi ilgari suriladi. Kitobxon kuchli markazlashgan hokimiyat, hushyorlik va ilmfan davlatni yuksaltirishini, ichki nizo va xiyonat esa parchalanishga olib kelishini anglab yetadi. Bu asar orqali ajdodlar merosidan g‘ururlanish hamda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Harbiy xizmatchi uchun asar chinakam harbiy jasorat, strategiya va mudofaa taktikasi darsligidir.

Unda tasvirlangan Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi sarkardalarining jang san‘ati harbiy xizmatchida professional g‘urur va vatanparvarlik ruhini shakllantiradi. Askar va ofitserlar davlat xavfsizligi va chegaralar daxlsizligi – har qanday davrda ham el-yurt hayot-mamot masalasi bo‘lganini, qat’iy intizom va zamonaviy harbiy bilimlar bo‘lmasa, Vatan mustaqilligini saqlab qolish imkonsiz ekanligini tarixiy achchiq saboqlar (xonliklar davri qismati) misolida chuqur xulosa qilib oladilar.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda O‘zbekiston hududida shakllangan eng qadimgi davlatlar (Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm) qanday ijtimoiy-siyosiy va mudofaa tamoyillariga asoslanib boshqarilgan?

2. Avesto yodgorligi asosida qadimgi ajdodlarimiz jamiyatining ijtimoiy qatlamlari (xususan, harbiylar tabaqasi) va davlat tuzilishi qanday talqin qilinadi?

3. Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qarshi Spitamen boshchiligidan olib borilgan kurashlarda qanday harbiy strategiya va partizanlik taktikalaridan foydalanilgan?

4. Turk xoqonligi davrida qo‘shinning tashkiliy tuzilishi, temir qurol-aslahalar ishlab chiqarish va otliq qismlarning davlat qudratini oshirishdagi o‘rni qanday yoritilgan?

5. Somoniylar davlatida markaziy boshqaruv apparati (devonlar) va harbiy tuzilma (g‘ulomlar instituti) tizimi qay tarzda mukammal shakllantirilgan edi?

6. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatida boshqaruv tizimi va harbiy safarbarlik masalalari asarda qanday qiyosiy faktlar bilan ochib berilgan?

7. Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan ko‘p yillik janglarida harbiy sarkardalik mahorati va shaxsiy irodasi qanday baholanadi?

8. Amir Temur saltanatida markazlashgan davlat boshqaruvi, harbiy iyerarxiya va qonun ustuvorligi davlat xavfsizligini ta‘minlashda qanday vazifani bajargan?

9. Asarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining o‘zaro tarqoqligi, zamonaviy harbiy islohotlarning yo‘qligi davlat tanazzuliga va Rossiya bosqiniga qanday zamin yaratgani tahlil qilinadi?

10. Ushbu asarni mutolaa qilish bugungi kun harbiy xizmatchilarida o‘z Vatani mudofaasi, harbiy burchga sadoqat va tarixiy xatolardan xulosa chiqarish nuqtayi nazaridan qanday ko‘nikmalarni shakllantiradi?



# KAZBEK. OSIYO ARSLONI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... KAZBEK. OSIYO ARSLONI

**MUALLIFI:** ..... BAXTIYOR  
ABDUG'AFUR

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Asarda Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan o'zbek yigiti, sobiq Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni va "Oltin yulduz" medali sohibi – Mama-dali Topvoldiyevning urushdagi mashaqqatli hayoti haqida hikoya qilinadi. Voqealar tarixiy haqiqatlarga asoslangan bo'lib, yozuvchi unga qo'shimcha badiiy sayqal beradi va o'quvchi ko'z oldida jonlantiradi. Millat, xalq taqdiriga befarq bo'lmagan elimizning har bir vakili ushbu kitobni o'qish davomida o'zbek xalqining qahramonlaridan birini o'zi uchun kashf etadi yoki yangidan taniydi.

Dushmanga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan partizanlar otryadiga qo'shilgan Kazbek

guruhdagi yagona o'zbek bo'lib, eng qo'rqmas va qaytmas jangchi sifatida tanila boshlaydi. Fashistlar lagerida asirga tushgan safdoshlarini qutqarish, Germaniyadan kelayotgan qurol va askarlar eshelonini to'xtatib qo'yish uchun temiryo'llarni portlatib yuborish, xavfli razvedka operatsiyalari olib borish va hatto Gitler armiyasining generalini yurib ketayotgan po-yezddan olib qochib, asirga olish kabi uddalab bo'lmas ishlarni qila olgani uchun ham undan hamma qo'rqgan. Kazbekning boshi uchun hatto shaxsan Gitlarning o'zi juda katta pul mu-kofoti e'lon qiladi va hech kim buning uddasi-dan chiqqa olmaydi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarning ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. U o‘quvchilarni vatanparvarlik, jasorat va xalq taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalaydi. Asardagi bosh qahramon – Mamadali Topvoldiyev obrazi orqali insonning Vatan ozodligi va xalq tinchligi uchun o‘z jonini fido qilishga tayyor bo‘lishi ulug‘lanadi. Shuningdek, asar yoshlarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini kuchaytiradi, qiyinchiliklar oldida sabr-toqat va

matonatli bo‘lishga o‘rgatadi, do‘stlik, sadoqat va birdamlik kabi insoniy fazilatlarini targ‘ib qiladi, urushning dahshatli oqibatlarini ko‘rsatib, tinchlik qadrini anglatadi.

Asar orqali o‘quvchi o‘zbek xalqining jasur farzandlari bilan faxrlanishni, tarixiy xotirani qadrlashni va Vatanga muhabbat bilan yashashni o‘rganadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Kazbek asarida bosh qahramonning Vatan ozodligi yo‘lida qilgan qaysi jasorati sizni eng ko‘p ta’sirlantirdi va nima uchun?

2. Asardagi partizanlik harakatlari harbiy strategiya va razvedka nuqtayi nazaridan qanday ahamiyatga ega deb o‘ylaysiz?

3. Mamadali Topvoldiyev obrazida haqiqiy harbiy uchun zarur bo‘lgan qaysi fazilatlar yoritilgan?

4. Kazbekning xavfli operatsiyalarda tez va aniq qaror qabul qilishi bugungi harbiy kursantlar uchun qanday ibrat bo‘la oladi?

5. Asarda dushman ortida olib borilgan razvedka ishlari qanday psixologik tayyorgarlik va iroda talab qilishini qay tarzda ko‘rish mumkin?


6. Kitobdagi vatanparvarlik g‘oyasi yosh askar va harbiy litsey kursantlarining ma’naviy tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

7. Kazbekning safdoshlariga bo‘lgan sadoqati va jamoaviy harakatlari harbiy intizom va birdamlik haqida qanday xulosa chiqarishga undaydi?

8. Asardagi urush sahnalari tinchlikning qadrini anglashda qanday ma’naviy saboq beradi?

9. Nima uchun dushman, hatto Kazbekdan qo‘rqqan va uni yo‘q qilish uchun katta mukofot e‘lon qilgan deb o‘ylaysiz?

10. Bugungi kunda Kazbek kabi asarlarni harbiylar, kursantlar va yoshlar o‘rtasida keng o‘qitishning ahamiyati nimada?



# MADAMINBEK: QONLI GULLAR VODIYSI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **MADAMINBEK: QONLI  
GULLAR VODIYSI**

**MUALLIFI:** ..... **BAXTIYOR ABDUG'AFUR**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Madaminbek: Qonli gullar vodiysi – ozodlik ishqida yonib o'tgan sarkarda qismati!

Ushbu asar tariximizning eng og'riqli va murakkab davrlaridan biri – XX asr boshidagi Turkiston istilochilari harakati haqida hikoya qiladi. Kitob markazida Farg'ona vodiysining afsonaviy qo'rboshisi, xalq orasida mardligi bilan tanilgan Madaminbek (Muhammad Aminbek) siymosi turadi.

Siz ushbu romanni o'qir ekansiz, istiqlol yo'li-da jonini fido qilgan insonlarning nafaqat jang maydonidagi jasoratiga, balki ularning ayanchli

taqdiriga ham guvoh bo'lasiz. Muallif Baxtiyor Abdug'afur Madaminbekni shunchaki jangchi emas, balki o'z xalqini qirg'indan asrash uchun murosaga borishga majbur bo'lgan fojiali qahramon sifatida tasvirlaydi.

Agar siz millat qahramonlarining qanday xiyonatlar qurboni bo'lganini va "nima uchun mag'lub bo'ldik?" degan savolga javob izlayotgan bo'lsangiz, bu kitob sizga eng achchiq haqiqatlarni ochib beradi. Siz shunchaki tarixni o'qimaysiz, balki o'sha davrdagi vodiyni qonli ko'chalarida qahramonlar bilan birga yurasiz.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Baxtiyor Abdug‘afurning ushbu asari shunchaki tarixiy ma’lumot berib qolmay, har bir kitobxon qalbida yuksak insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Kitob o‘quvchiga, avvalo, milliy birlik va hamjihatlikning nqadar muhimligini uqtiradi. Har qanday buyuk maqsad yo‘lida tarqoqlik va o‘zaro nizolar mag‘lubiyatga yetaklashi asarning bosh g‘oyasidir. Shuningdek, asar vatanparvarlikning asl mohiyatini tushuntirib bera-

di: vatanni sevish nafaqat jang maydonida mardlik ko‘rsatish, balki butun bir xalq taqdiri uchun mas’uliyatni bo‘yniga olish ekanini o‘rgatadi. Madaminbek obrazi orqali o‘quvchida matonat, iroda va lafzga sodiqlik kabi xislatlar uyg‘onadi. Eng muhimi, kitob o‘tmishdagi achchiq xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga va bugungi tinch-osoyishta kunlarning, mustaqillikning qadriga yetishga chorlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda Madaminbek tomonidan ilgari surilgan muxtoriyat va mustaqillik g‘oyalari qaysi siyosiy tamoyillarga asoslangan va ular XX asr boshidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhitida qanday boshqaruv modelini ifodalaydi?

2. Matnda o‘zaro nizo va parokandalikning davlat barqarorligiga zarari qaysi tarixiy dalillar va badiiy lavhalar orqali asoslanadi? Bu g‘oya milliy mafkuraning markaziy masalasi sifatida qanday vazifa bajaradi?

3. Madaminbek asarda qanday siyosiy-axloqiy qiyofada gavdalandirilgan? Uning shaxsida mardlik, murosaga kelish qobiliyati va xalq oldidagi mas’uliyat qanday rahbarlik modelini yuzaga chiqaradi?

4. Qo‘rboshilar harakatida harbiy intizom, iyerarxiya (bo‘ysunish tartibi) va buyruq tizimi asarda qanday tizimlashtirilgan? Nega intizomning buzilishi harbiy-siyosiy mag‘lubiyatning asosiy sababi sifatida ko‘rsatiladi?

5. Madaminbekning o‘z safdoshlari va ulamolar bilan maslahatlashishi siyosiy boshqaruvda qanday o‘rin tutadi? Jamoaviy tafakkurni qadrlash g‘oyasi asarda qanday ahamiyat kasb etadi?

6. Asarda real tarixiy voqeliklar va muallifning badiiy-estetik qarashlari qanday uyg‘unlashtirilgan? Romanni bir vaqtning o‘zida tarixiy manba va vatanparvarlik dasturi sifatida qanday baholash mumkin?

7. Mansabdor shaxslar va qo‘mondonlarga qo‘yilgan sadoqat, halollik hamda so‘zda turish kabi talablar asarda qanday asoslangan? Bu qadriyatlar milliy ozodlik mafkurasida bilan qanday bog‘lanadi?

8. Asarda qo‘rboshilarning adolat tushunchasi va xoinlarga nisbatan jazolash choralari qanday konseptual asosda yoritilgan? Bu yondashuv harbiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda qanday rol o‘ynagan?

9. Madaminbek boshqargan hududlarda harbiy tartib bilan fuqarolik hayoti (soliqlar, tinchlik, dehqonchilik) o‘rtasidagi nisbat qanday belgilangan? Bu muvozanat qarshilik harakatining uzoq muddatli mustahkamligiga qanday xizmat qilgan?

10. “Qonli gullar vodiysi”dagi Madaminbek ilgari surgan diplomatik muzokaralar, murosaga kelish san‘ati va strategik chekinish g‘oyalari bugungi kunning boshqaruv etikasi va xalqaro diplomatiyasi bilan qanchalik hamohang?



# SAYFIDDIN QUTUZ – SO‘NGGI ZARBA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT

**KITOB NOMI:** .....**SAYFIDDIN  
QUTUZ–SO‘NGGI ZARBA**

**MUALLIFI:**..... **BEKZOD ABDIRIMOV,  
G‘ULOMJON ATAJOV**

**YOZILISHI:**..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Kitobda Sayfiddin Qutuz, uning siyosiy maydonga kelishi, jasorati va kurashiga urg‘u berishga harakat qilingan. Buning uchun esa, avvalo, mo‘g‘ullarning istilolariga, Jaloliddin Manguberdining g‘animlarga qarshi kurashiga to‘xtalish zarurati yuzaga keldi. Chunki Sayfiddin Qutuzning tarixiy g‘alabasida bevosita uning xotiralarida saqlangan mo‘g‘ullar bosqini, yaqin kishilardan judolik va asirlik kechinmalari qoldirgan ruhiy iztiroblar hamda ana shu iztiroblar shakllantirgan qasos, g‘alabaga bo‘lgan ishonch, shijoat va jasorat tuyg‘ulari katta rol

o‘ynagan edi. Bu jarayonlarni yaxlit tasavvur qilishimiz uchun esa ularni biroz oldingi voqealar bilan bog‘liq holda o‘rganish kerak bo‘lardi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur kitob mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga bosqinidan boshlanib, Ayn Jalut jangi va ular bilan bog‘liq mulohazalar bilan nihoyalangan. Zotan, XIII asr – shafqatsiz asr sifatida tarixda muhrlanib, bu shafqatsizlikka ilk duchor bo‘lgan ajdodlarimiz, uni to‘xtatishni ham o‘z zimmalariga olgan, albatta, bu muhim vazifaning uddasidan chiqqan ham edilar.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarda Jaloliddin Manguberdi va Sayfiddin Qutuz obrazlari orqali o‘zbek xalqining ajdodlari naqadar jasur bo‘lgani ko‘rsatiladi. Mo‘g‘ullarning to‘xtatib bo‘lmasdek tuyulgan qo‘shinini mag‘lub etgan aynan shu zotlar ekani kitobxonda milliy g‘urur uyg‘otadi. Sulton sifatida Qutuz o‘z xalqini himoya qilish uchun jonini garovga qo‘yadi. Ayn Jalut jangidagi g‘alaba nafaqat Misrni, balki butun islom olamini halokatdan saqlab

qolgan edi. Bu o‘quvchiga rahbarlik mas‘uliyati va xalq manfaati yo‘lida fidoyilik qilish darsini beradi. Harbiylarga o‘rnak bo‘ladigan tomonlaridan biri, Qutuz mo‘g‘ullarga qarshi jangga kirishdan oldin raqibning kuchli va zaif tomonlarini sinchiklab o‘rgangan. U mo‘g‘ullarning “yengilmaslik” haqidagi psixologik bosimini sindirish uchun avval kichik bo‘linmalar bilan g‘alaba qozonib, o‘z askarlarida jangovar ruhni ko‘targan.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asar boshida Qutuzning asli sultonlar avlodidan ekani, ismi esa Mahmud bo‘lgani qanday tasvirlangan?

2. Qutuz qanday qilib Misr sultonligi saroyiga borib qoladi va uning martabasi qanday ko‘tarila boshlaydi?

3. Mo‘g‘ullar tahdidi kuchaygan bir vaqtda, Qutuz nega yosh sultonni taxtdan tushirib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olishga majbur bo‘ladi?

4. Sulton Qutuz urushga tayyorgarlik ko‘rishda nima uchun avval boylar va amirlarning boyliklarini sarflashni shart qilib qo‘yadi?

5. Kitobda mo‘g‘ullardan qo‘rqib, qochmoqchi bo‘lgan amirlarga Qutuz qanday murojaat qiladi?


6. Jangda Qutuz qo‘shinining asosiy qismini qayerga yashiradi?

7. Qutuzning oti jang maydonida halok bo‘lganda, u o‘zini qanday tutadi?

8. Mo‘g‘ul sarkardasi Kitbuqa asir olinganda, Qutuz va uning o‘rtasida qanday muloqot bo‘lib o‘tadi?

9. Qutuz g‘alaba bilan Misrga qaytayotganda, uni kutayotgan fitna haqida asarda qanday ishoralar berilgan?

10. Sulton Qutuzning mo‘g‘ullar ustidan qozongan g‘alabasi Islom olami uchun qanday ahamiyatga ega edi va muallif asar sarlavhasida “So‘nggi zarba” deganda aynan nimani nazarda tutgan?



# G'ARBIY FRONTDA O'ZGARISH YO'Q

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** ..... **G'ARBIY FRONTDA  
O'ZGARISH YO'Q**

**MUALLIFI:**..... **ERIX MARIYA REMARK**

**YOZILISHI:**.....**LOTIN ALIFBOSI**


## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Erix Mariya Remark Birinchi jahon urushida qatnashgan va front hayotini shaxsan boshidan kechirgan adib. “G’arbiy frontda o’zgarish yo’q” asari urushning haqiqiy maqsadini ochib beradigan, inson qalbidagi og’riq, do’slik, vatanparvarlik va tinchlik qadrini chuqur his ettiradigan mashhur bestseller asarlardan biri.

Asar bosh qahramon Paul Boymer va uning sinfdosh do’stlari haqida hikoya qiladi. Ular maktabdagi ustozlarining vatan uchun xizmat qilish, qahramonlik ko’rsatish haqidagi chaqiriqlariga ishonib, frontga jo’naydilar. Ammo

urush maydonida ular orzu qilgan sharaf emas, balki qon, qo’rquv, ochlik, o’lim va ruhiy iztiroblarga duch kelishadi.

Yosh askarlar haqiqiy frontda inson hayoti qanchalik aziz ekanini anglaydi. Ular birma-bir halok bo’lishadi. Hamma do’stlaridan so’ng halok bo’lgan Paul urush insonning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy dunyosini ham vayron qilishini tushunadi. Hisobotlar esa juda sovuqqonlik bilan yuritiladi: “G’arbiy frontda o’zgarish yo’q”. Bu jumla urushda inson hayoti qanchalik arzimas bo’lib qolishini ayanchli ifodalab beradi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarda urush insonni yemiruvchi fojia ekani, Vatan himoyasi muqaddas burch bo‘lsa-da, urushni xohlash emas, tinchlikni asrash eng katta jasorat ekani ta’kidlanadi. U o‘quvchiga vatan oldidagi burchni his qilishni, jangchi matonatini, insonparvarlikni, do‘stga sodiq bo‘lishni, hayot qadrini anglashni, tinchlikni asrash mas’uliyatini o‘rgatadi. Roman harbiy xizmatning asl mohiyatini ochib beradi.

Haqiqiy jasorat insonligini saqlab qolish ekani ni ko‘rsatadi, do‘stlik va birodarlikning haqiqiy qiymatini anglatadi. U jangovar ruhni ko‘tarish bilan birga, urushning og‘ir oqibatlarini ham anglatadi. Haqiqiy harbiy nafaqat qurol ushlashni, balki inson hayoti qadrini ham bilishi kerakligini uqtiradi. Kitob o‘quvchini o‘ylashga, hayotni qadrlashga va tinchlikni asrash borasidagi mas’uliyatini his qilishga undaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Paul Boymer va do‘stlarining frontga ketish oldidan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari nima edi? Urush ularni qanday o‘zgartirdi?

2. Asardagi qaysi voqealar urushning mash’um va shafqatsiz ekanini kuchli ifodalaydi?

3. Nima uchun Remark do‘stlik va birodarlikni frontdagi eng katta kuch sifatida tasvirlaydi?

4. Jangovar ruh bilan insonparvarlik o‘rtasidagi muvozanat qanchalik muhim?

5. Paul obrazi orqali muallif yosh avlod taqdiri haqida qanday fikr bildirmoqchi bo‘lgan?


6. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” jumlasini qanday ma‘no-mohiyat kasb etadi?

7. Vatan himoyasi muqaddas burch bo‘lsa-da, nega muallif tinchlikni eng ulug‘ qadriyat sifatida ko‘rsatadi?

8. Asardan qanday ma‘naviy saboq oldingiz?

9. Urush inson ruhiyatiga qanday ta‘sir qiladi? Buni asar qahramonlari misolida tahlil qiling.

10. Bugun tinchlikni saqlash va davlat xavfsizligini ta‘minlashda asardan qanday xulosa chiqarish mumkin?



# SHOVQIN

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **SHOVQIN**

**MUALLIFI:** ..... **ERKIN A'ZAM**

**YOZILISHI:** .... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Erkin A'zamning "Shovqin" romani inson hayotining ma'no-mazmuni, e'tiqod va insoniy fazilatlar yo'qolishi, yovuzlik hamda ezgulik o'rtasidagi kurashga bag'ishlangan. Asar qahramoni atrofidagi turli yordamchi obrazlar orqali jamiyatdagi ma'naviy inqiroz, shovqinli va soxta muhit tahlil qilinadi, inson o'zligini anglashga intiladi.

Romanda jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq, insonning o'zligini yo'qotishi, yuzaki va soxta qadriyatlar "shovqin" orasida chinakam insoniylik "jimjitlik"ni qidirish masalasi ko'tarilgan.

Asar qahramoni Vika, Gulya Lagutina va Elmira Kamolova kabi murakkab va qarama-qarshi obrazlar orqali hayotdagi ziddiyatlarni ochib beradi. Erkin A'zam qahramonning ichki kechinmalari orqali shovqinli jamiyatdan ijirg'anish, yovuzlikka nisbatan nafrat va ezgulikka intilishni tasvirlaydi. Asar insonni o'z e'tiqodi va hayot mazmunini chuqur mushohada qilishga chorlaydi.

Romandagi "shovqin" – bu insonni haqiqatdan uzoqlashtiruvchi yuzaki hayot, "jimjitlik" esa insonning o'zi bilan yolg'iz qolib, haqiqatni anglash lahzalaridir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Oddiy o‘quvchi uchun bu asar kundalik hayotdagi “yugur-yugurlar” ichida to‘xtab, nafas rostdash va o‘ziga chetdan nazar solish imkonidir. Soxtalikni tanish, hayotdagi hamma narsa ham ko‘ringanidek emas, insonlar ko‘pincha yuzlariga “niqob” taqib olishadi. Asar o‘quvchini odamlarning balandparvoz gaplariga emas, balki ularning asl niyatiga qarashga o‘rgatadi.

Roman o‘quvchiga “Qalbingni keraksiz shovqinlardan toza tut, aslingni yo‘qotma”

degan g‘oyani beradi. Oila va sadoqat – tashqi dunyodagi “shovqinlar” va o‘tkinchi hoy-u havaslar insonni o‘z yaqinlaridan uzoqlashtirishi mumkinligidan ogohlantiradi. Harbiy inson uchun asar faqat badiiy to‘qima emas, balki ma’naviy mudofaa darsligidir. Harbiy uchun dushman faqat qurol ko‘targan odam emas, eng xavfli dushman – jamiyatni ichidan yemiruvchi, qadriyatlarni teskari qiluvchi “duragay” (soxta) g‘oyalardir. Asar harbiyda ma’naviy hushyorlikni oshiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR



1. Farhod Ramazonga birinchi xat kimdan keladi?

2. Ikkinchi xat kimdan keladi?
3. Farhodning ikkinchi ismi nima edi?
4. Asarda eng zo‘r, eng mashhurimiz deb kimga nisbatan aytiladi?
5. Farhod asar boshida qaysi opasini ko‘radi?
6. Asarda Ira, Irka nomlarini olgan qahramon kim edi?
7. Shovqin nimani anglatadi?
8. Asarning asosiy g‘oyasi nima?
9. Xudiyakov Leonidning ikkinchi ismi nima edi?
10. Siz bu asardan qanday xulosa chiqardingiz?



# O'ZBEGIM

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....O'ZBEGIM

**MUALLIFI:** .....ERKIN VOHIDOV

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“O'zbekim” o'zbek xalqining tarixi, milliy g'ururi, ma'naviy boyligi va buyuk ajdodlariga bag'ishlangan yuksak ruhda-gi she'riy asardir. Shoir ushbu qasidada o'z xalqining shon-li o'tmishini, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan ulkan hissasini faxr bilan tilga oladi.

Asarda Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur kabi buyuk siymolar nomi sharaf bilan zikr etilib, ularning ja-sorati va ilmiy merosi millat iftixori sifatida ko'rsatiladi. Shoir o'zbek xalqining sabr-toqati, mehnatsevarligi, or-nomusi va yuksak ma'naviyatini madh etadi.

Qasida davomida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosi-ga hurmat va kelajak avlod oldidagi mas'uliyat g'oyalari il-gari suriladi. Asar kuchli vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, o'quvchida milliy faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI


O‘quvchida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash va ajdodlarga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantiradi. Asar yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalaydi.

Harbiylarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, jasorat va fidoyilik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Qasida yurt sha‘ni va erkinligi yo‘lida xizmat qilish muqaddas burch ekanini anglatadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Qasidada o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi qanday badiiy vositalar orqali tasvirlangan?
2. Shoir buyuk ajdodlar obrazini qanday ruhda madh etadi?
3. Asarda milliy g‘urur va vatanparvarlik g‘oyalari qanday ifoda topgan?
4. Qasidada tarix va zamonaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday ko‘rsatilgan?
5. Shoirning murojaat uslubi o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Asarda qanday badiiy san’at vositalari (tashbeh, istiora, takror) qo‘llangan?
7. “O‘zbekim” so‘zining takror qo‘llanishi qanday ramziy ma’no anglatadi?
8. Qasidada milliy birlik g‘oyasi qanday ochib berilgan?
9. Shoir xalq xarakterini qanday sifatlar orqali tasvirlaydi?
10. Asarning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati nimada?



# SAYLANMA. OY YO'LI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....SAYLANMA. OY YO'LI

**MUALLIFI:** ..... ESHQOBIL SHUKUR

**YOZILISHI:** .....KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Bu to'plamda shoir insonning ichki olamiga sayohat qiladi. "Oy yo'li" ramziy ma'noda insonning hayot yo'lini, uning orzu-umidlari va izlanishlarini anglatadi. She'rlarda tabiat manzaralari, tun va oy obrazlari orqali inson qalbidagi nozik tuyg'ular ifoda etiladi.

She'rlarda inson va tabiat uyg'unligi, muhabbat va sadoqat, vaqtning suvdek oqarlighi va hayotning o'tkinchiligi, milliy ruh va an'analar haqida mulohazalar ilgari suriladi. "Oy yo'li" – bu inson qalbining nurga, ma'naviyatga va haqiqatga intiluvini aks ettiruvchi nasr va nazm janridagi she'riy to'plam.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitob insonni ruhan boyitishga xizmat qiladi. O‘quvchi inson qalbini anglashni, vijdon va ruhiy poklik masalalari markaziy o‘rinda turishini, o‘quvchi o‘z ichki dunyosiga nazar tashlash orqali hayot mazmunini chuqurroq his etishni o‘rganadi.

She‘rlardagi muhabbat g‘oyasi nafaqat shaxsiy tuyg‘u, balki insonga, Vatanga va hayotga

bo‘lgan sadoqat sifatida ifodalanadi. Vaqtning o‘tkinchiligi va umrning qadri haqidagi fikrlar har bir lahzani qadrlashga chorlaydi. Shoir tabiat obrazi orqali inson ruhiyatini ochib beradi, tabiat va inson uyg‘unligini ko‘rsatadi. “Oy yo‘li” ramzi esa insonning nur, haqiqat va ma’naviy yuksalish sari intilishini anglatadi.

## TO‘PLAM YUZASIDAN SAVOLLAR

1. To‘plamda “Oy yo‘li” ramzi qanday ma‘noni anglatadi va uni inson hayoti bilan qanday bog‘lash mumkin?

2. She‘rlarda inson qalbini anglash va ruhiy poklik g‘oyasi qanday ifodalangan?

3. Muhabbat tushunchasi kitobda qanday keng ma‘noda talqin qilingan?

4. Vaqt va hayotning o‘tkinchiligi haqidagi fikrlar sizda qanday xulosalar uyg‘otdi?

5. Tabiat obrazi orqali shoir qanday g‘oyalarni yetkazmoqchi bo‘lgan?

6. Saylanmada milliy qadriyatlar va an‘analar qay tarzda aks etgan?

7. Shoirning fikrlarini harbiy intizom va burch tushunchasi bilan qanday bog‘lash mumkin?

8. Kitob o‘quvchini qanday ma‘naviy fazilatlariga chorlaydi?

9. Siz uchun “ma‘naviy yuksalish” tushunchasi nima va u asarda qanday ifodalangan?

10. Kitobdan olgan taassurotlaringizni hayotingizda, xususan, xizmat yoki o‘qish jarayonida qanday qo‘llash mumkin?



# TURKISTON KUNDALIGI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....**TURKISTON  
KUNDALIGI**

**MUALLIFI:** .....**FRITS UILFORT**

**YOZILISHI:** .....**KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Asar Birinchi jahon urushi davrida asirga tushib, O'rta Osiyoga jo'natilgan avstriyalik harbiy muhandis va zobitning kundaliklariga asoslangan bo'lib, unda nemis tadqiqotchisining Turkiston o'lkasiga qilgan sayohati va kuzatishlari mufassal hikoya qilinadi. Muallif 1915–1921-yillar oralig'ida Jizzax, Namangan va Farg'onada bo'lib, o'lkamizning betakror tabiati, Pomir va Oloy tog'lari manzarasini tasvirlash bilan birga, yirik ijtimoiy burilishlarga – Rossiya imperiyasi zulmiga qarshi Jizzax qo'zg'oloni va Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatlariga bevosita guvoh bo'ladi. Xorijlik tahliliy mushohadaga ega bo'lgan harbiyning bu xolis nigohi Turkistonning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va harbiy manzarasi haqida o'ta qimmatli tarixiy manba sanaladi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitobni mutolaa qilish o‘quvchiga o‘lkamizning geografik va ijtimoiy tarixini bilish, strategik ahamiyatini tushunish imkonini beradi. Yevropalik zobitning mustaqil kuzatuvlari orqali kitobxon xalqimiz boshidan kechirgan og‘ir sinovli yillar, milliy ozodlik yo‘lidagi kurashlarning asl mohiyati va hududimizning qanchalik boy salohiyatga ega bo‘lgani haqida keng, xolis va teran xulosalar chiqaradi.

Ushbu asar harbiylarga yirik geosiyosiy o‘yinlar markazida qolgan o‘lkaning strategik ahamiyatini tushunish borasida nodir taktik darslikdir. Shuningdek, asir tushgan bo‘lsa-da, begona yurtida o‘zining tahliliy va kuzatuvchanlik qobiliyatini yo‘qotmagan zobitning tutumi ofitserlarimizda razvedka, sergaklik va har qanday vaziyatni obyektiv baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Kitobda nemis tadqiqotchisining Turkiston o‘lkasiga qilgan sayohati va kuzatishlari qanday ijtimoiy ziddiyatlar va tarixiy voqealar asosida yoritilgan?

2. Xorijlik harbiy zobit kundaligi orqali o‘lkamizning geografik va ijtimoiy tarixini bilish mahalliy manbalardagi ma’lumotlarni qanday yangi dalillar bilan to‘ldiradi?

3. Asarda Farg‘ona vodiysi va Jizzax hududlarida bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘olonlari (ozodlik harakatlari) xorijlik kuzatuvchi nigohi orqali qanday xolis baholanadi?

4. Muallif o‘lkamizning strategik ahamiyatini tushunish nuqtayi nazaridan uning geografik joylashuvi, karvon yo‘llari va boyliklariga qanday e’tibor qaratadi?

5. Asirga olingan harbiy muhandisning kundalik yuritishdagi aniqligi va sergakligi zamonaviy ofitserlarga axborot yig‘ish (razvedka) bo‘yicha qanday amaliy namuna bo‘ladi?

6. Kitobda Chor imperiyasi boshqaruvi davrida mintaqadagi harbiy qismlarning holati va mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday qiyosiy tasvirlangan?

7. Harbiy jihatdan olib qaralganda, hududimizdagi tog‘li relyef tizmalari asarda qanday mudofaa va taktik ustunliklarga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi?

8. Turli madaniyat vakili bo‘lgan Yevropa zobitining mahalliy xalqning urf-odatlarini, mehmondo‘stligi va e’tiqodiga bo‘lgan munosabati asarda qanday aks etgan?

9. Birinchi jahon urushi Turkistonning yirik davlatlar manfaatlari kesishadigan nuqtaga aylanishi kundalikdagi qaysi siyosiy omillar bilan izohlanadi?

10. Ushbu asarni mutolaa qilish bugungi kun Qurolli Kuchlari xizmatchilarida mustaqillik ne‘matini qadrlash va daxlsizlikni himoya qilish burchini chuqurroq anglashga qanday xizmat qiladi?



# JINOYAT VA JAZO

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....JINOYAT VA JAZO

**MUALLIFI:** .....FYODOR  
DOSTOYEVSKIY

**YOZILISHI:** .....KIRILL ALIFBOSIDA

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani jahon adabiyotining eng durdona va chuqur falsafiy asarlaridan biridir. Ushbu asar inson ruhiyatining eng murakkab qatlamlarini ochib beradi va o’quvchini axloq, qonun hamda insoniylik chegaralari haqida chuqur mushohada yuritishga chorlaydi. Asarning bosh g’oyasi shundan iboratki, inson o’zini boshqalardan ustun qo’yib, qandaydir “buyuk maqsad” yoki adolat nomi bilan jinoyatni aslo oqlay olmaydi. Bosh qahramon Raskolnikovning ruhiy fojiasi aynan shu xato nazariyaga ishonishidan boshlanadi. Yozuvchi asar davomida har qanday

mudhish jinoyatning eng og’ir va qaqshatqich jazosi qonuniy jazo emas, balki aynan vijdon azobi ekanligini yuksak mahorat bilan tasvirlab bergan. Qahramonning ruhiy sargardonligi shuni ko’rsatadiki, inson qalbini kemiruvchi bu azobdan faqatgina chin pushaymonlik, samimiy tavba va ma’naviy poklanish orqaligina qutulish, najot topish mumkin.

Asar o’quvchiga insoniylikni yo’qotmaslik, qalb pokligi va ruhiy kamolotning beqiyos ahamiyatini uqtirib, chinakam ozodlik faqat ezgulikda ekanligini ta’kidlaydi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Vijdon va mas’uliyatni anglatadi. Har bir xatoning ichki jazosi borligini ko’rsatadi. To’g’ri axloqiy tanlov qilishga o’rgatadi. Qonun va burchga sadoqat sabog’ini beradi. Kibr va o’zini ustun qo’yishning xavfini ko’rsatadi. Ruhiiy bardoshlilik va mas’uliyatni mustahkamlaydi.




## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR



1. Asarda keltirilishicha, ojizlikning birinchi belgisi nima edi?
2. Asarda qayd etilishicha, Sonya Marmeladova Sibirda kim bo’lib ishlaydi?

3. Raskolnikov surgundalik vaqtida qanday tush ko’radi?
4. Kambag’allik ayb emas, biroq “U – illat”, bunda nima nazarda tutilmoqda?
5. Asar boshida Raskolnikovning yoshi nechada edi?
6. Sonya nimaning timsoli?
7. Lazarning tirilishi motivi nimani anglatadi?
8. Qashshoqlik jinoyatni oqlaydimi?
9. Asarning bosh g’oyasi nima?
10. Raskolnikovning universitetdagi eng yaqin do’sti kim edi?



# GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** ..... **GO'RO'G'LINING  
TUG'ILISHI**

**MUALLIFI:** ..... **XALQ**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Xalq og'zaki ijodining yuksak namunalaridan biri bo'lmish "Go'ro'g'li" dostoni qahramonlik ruhida yozilgan bo'lib, dastlab Hodi Zarif tomonidan yozib olingan va hozirgacha avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Go'ro'g'lining mardliklari haqidagi hikoyalar yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo'lib, podsholikdagi turli adolatsizlik va oilaviy muammolarni adolatli va to'g'ri yo'l bilan hal qilish usullari yoritilgan. Dostonda turkiy xalqlarning azal-azaldan Vatan va or-nomusning ulug'lanishi keng ifodalalanadi. Asar davomida bosh qahramonning ko'plab janglari va jasorati haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, bu doston o'zbek xalqining urf-odatlarini,

hayot tarzi, qahramonlik an'analari va milliy ruhini ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli Go'ro'g'li dostoni nafaqat adabiy asar, balki xalq madaniyati va tarixini ifodalovchi muhim meros hisoblanadi.

Dostonda umumlashtirish va ramziylashtirish yuqori darajaga ko'tarilgan. Bunda qahramonona o'tmish emas, balki orzu darajasida, xalqning yuksak maqsadi tasvirlangan. Bosh qahramon, ya'ni Go'ro'g'li mohir hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni yovlardan himoya qiluvchi yengilmas bahodir, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan murabbiy sifatida tasvirlanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Bu asar harbiy xizmatchi va vatan himoyasidagi barcha inson uchun birdek ahamiyatlidir. Doston qahramonlarining shijoati, qiyinchiliklarga bergan bardoshi va qahramonliklari har bir askarning g‘ayratini oshiradi. Qanday qiyinchilik bo‘lmasin, uni hamjihatlikda hal qilishga undaydi. Asar davomidagi voqealar tobora o‘quvchini o‘ziga jalb etadi va intizomga chaqiradi. Asardagi bosh qah-

ramonning jasorati, qat’iyat, oilasi va vataniga bo‘lgan muhabbati barcha o‘quvchiga o‘rnak bo‘ladi. Dostonda nafaqat jasorat, balki jamoaviylik ham targ‘ib qilinadi. O‘qish davomida o‘quvchini qiziqtirgan jumboqlar asar oxiriga kelib mohirona yechim topadi. Qahramonlar yuzaki emas, chuqur o‘ylab ish tutishni o‘rgatadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Go‘ro‘g‘li qahramon sifatida qanday fazilatlar bilan boshqalardan ajralib turadi?
2. Doston davomida Go‘ro‘g‘li va uning do‘stlari qaysi qiyinchiliklarga duch keladi va ularni qanday uddalaydi?
3. Go‘ro‘g‘li dostoni o‘quvchiga qanday axloqiy saboqlar beradi?
4. Go‘ro‘g‘lining tabiat va hayvonlar bilan munosabati uning xarakterini qanday ko‘rsatadi?
5. Dostonda adolat va sadoqat mavzulari qanday tasvirlangan?
6. Yordamchi obrazlar doston voqealariga qanday ta’sir qiladi?
7. Go‘ro‘g‘li duch kelgan sinovlar qahramonning qaysi xarakterini shakllantiradi?
8. Dostonda afsonaviy va haqiqiy voqealar birlashishi qanday his etiladi?
9. Go‘ro‘g‘lining qaysi ishidan so‘ng unga bo‘lgan hurmatingiz oshdi?
10. Doston oxirida Go‘ro‘g‘li qanday o‘zgaradi va bu uning xalq oldidagi mavqeyini qanday ko‘rsatadi?



# AMIR TEMUR SALTANATIDA XAVFSIZLIK XIZMATI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... AMIR TEMUR SALTANATIDA  
XAVFSIZLIK XIZMATI

MUALLIFI: ..... HAMDAM SODIQOV

YOZILISHI: ..... KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu kitob Sohibqiron Amir Temur shaxsi-ning yangi bir qirrasini ochadi. Uning davlat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim omil – razvedka va kontrrazvedka sohasida olib borgan o'ziga xos va ayni damda odilona siyosati, jangovar faoliyati asarda aniq va ravshan yoritib beriladi. Sarkardaning erishgan zafarlari, buyuk davlatni barpo etishda unga yordam bergan xavfsizlik xizmatining tutgan o'rni asoslangan tarixiy faktlar va voqealar asosida bayon etiladi.

Asar Amir Temurni dunyo tamaddunida o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, iqtidorli va yengilmas sarkarda sifatida kitobxonlarga



yana ham yaqinroq tanishtirish bilan birga, ularga buyuk ajdodimiz shaxsi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni yetkazib beradi.




# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarda Amir Temur davlatida xavfsiz davlat barqarorligi intizom, adolat, hushyorlik va sadoqat kabi fazilatlar asosiga qurilishini ilgari suradi. Muallif Sohibqiron saltanati misolida xavfsizlik xizmati nafaqat tashqi dushmanlardan himoya, balki ichki tartibni saqlash, adolatni ta’minlash va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash vositasi ekanini ta’kidlaydi.

Asarda harbiy va davlat xizmatchilari uchun muhim bo’lgan burchga sodiqlik, maxfiylik, tezkorlik, aql-zakovat bilan ish yuritish kabi sifatlar ulug’lanadi. Shuningdek, rahbar va xizmatchi o’rtasidagi ishonch, qonun ustuvorligi va qat’iy tartib-intizom davlat qudratining asosi sifatida talqin qilinadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda keltirilishicha, Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati qanday vazifalarni bajargan?
2. Davlat barqarorligini ta’minlashda xavfsizlik tizimining o’rni qanday yoritilgan?
3. Asarda xavfsizlikni ta’minlashga mutasaddi xizmatchilar uchun qanday ma’naviy fazilatlar muhim deb ko’rsatilgan?
4. Intizom va qonun ustuvorligi g’oyasi qanday misollar orqali ochib berilgan?
5. Asarda ichki va tashqi xavflarga qarshi kurash usullari haqida qanday fikrlar bildirilgan?
6. Xavfsizlik xizmatida maxfiylik va hushyorlik nega muhim hisoblanishini Amir Temur saltanati misolida tushuntirib bering?
7. Asarda keltirilgan mulohazalar asosida, aytinch, rahbar va xizmatchi o’rtasidagi ishonch qanday ahamiyatga ega?
8. Asardan qanday harbiy-vatanparvarlik ruhini his qilish mumkin?
9. Ushbu asardan olingan saboqlarni zamonaviy harbiy xizmatda qanday qo’llash mumkin?
10. Sizningcha, asarda ilgari surilgan g’oyalar bugungi kunda qay darajada dolzarb?



# TURKISTONDA ROSSIYA TAJOVUZI VA HUKMRONLIGIGA QARSHI KURASH

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **TURKISTONDA ROSSIYA  
TAJOVUZI VA HUKMRONLIGIGA  
QARSHI KURASH**

**MUALLIFI:** ..... **HAMID ZIYOYEV**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'lkamizning bosib olinishi va unga qarshi ko'rsatilgan qarshilik harakatlari haqidagi ushbu fundamental ilmiy-tarixiy asar Chor Rossiyasining Turkistondagi qonli jinoyatlarini arxiv hujjatlari asosida fosh etadi.

Taniqli tarixchi olim Hamid Ziyoyev XVIII asrdan to XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda rus qo'shinlarining O'rta Osiyoni qanday qilib bosqichma-bosqich bosib olgani, Toshkent, Samarqand, Xiva, Qo'qon mudofaala-

ridagi ayovsiz janglar hamda bosqinchilarning vahshiyliklarini faktlar bilan yoritib bergan. Shuningdek, asarda mustamlakachilik zulmiga chiday olmagan xalqning norozilik chiqishlari, jumladan, Dukchi Eshon (Andijon) va Jizzax qo'zg'olonlari kabi yirik milliy ozodlik harakatlarining sabablari, maqsadi va ularning shafqatsizlarcha bostirilishi obyektiv tahlil qilingan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitobxon o‘z Vatani tarixidagi eng og‘ir va qonli sahifalarni mutolaa qilish orqali bugungi mustaqillik va erkinlikning qadrini teran his etadi. Asar o‘quvchida davlatning qulashi qanday fojialarga olib kelishini, o‘zaro ichki nizolar dushmanga qanday qo‘l kelganini anglash imkonini beradi. Bu tarixiy haqiqatlar o‘quvchida el-yurtga daxldorlik va ajdodlar oldidagi burch tuyg‘ularini yuksaltiradi.

Qurolli Kuchlar ofitser va askarlari uchun bu asar chinakam mudofaa va sadoqat maktabidir. Harbiylar mahalliy qo‘shinlarning texnik va taktik qoloqligiga qaramay, o‘z Vatanini himoya qilishda ko‘rsatgan tengsiz jasoratlaridan o‘rnak oladilar. Shuningdek, harbiy xizmatchilar armiyaning zamonaviy qurollanishi, jangovar shayligi va harbiy strategiyaning yurt xavfsizligidagi beqiyos ahamiyatini tarixiy xatolar misolida chuqur xulosa qilib oladilar.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda o‘lkamizning bosib olinishi va unga qarshi ko‘rsatilgan qarshilik harakatlari haqida qanday arxiv hujjatlari keltirilgan?

2. Chor Rossiyasi armiyasining Turkistonga bostirib kirishidagi harbiy taktikasi va geosiyosiy maqsadlari qanday ilmiy-tarixiy tahlil qilingan?

3. O‘lkamizning yirik shaharlari (Toshkent, Samarqand, Xiva, Qo‘qon) mudofaasida harbiylar va oddiy xalqning hamjihatlikda dushmanga qarshi ko‘rsatgan mardligi qanday yoritilgan?

4. Qo‘shinning texnik qoloqligi va xonliklar o‘rtasidagi ichki nizolar mudofaa salohiyatiga qay tarzda halokatli ta‘sir ko‘rsatgan?

5. Asar harbiylarda ajdodlarning jangovar tarixni bilish, milliy g‘urur tuyg‘usini qanday omillar hisobiga oshiradi?

6. Andijon va Jizzaxdagi qonli qo‘zg‘olonlar (ozodlik harakatlari) xalqning bosqinchilarga nisbatan so‘nmas adovatini qanday aks ettirgan?

7. Asardagi qaysi tarixiy saboqlar bugungi kunda ofitser va askarlarda har qanday yashirin yoki oshkora tashqi tajovuz va dushmanga qarshi hushyorlik ruhini oshiradi?

8. Dushman armiyasining o‘lka aholisiga nisbatan olib borgan vahshiyliklari mustamlakachilik siyosatining asl yuzini qanday ochib beradi?

9. Qurolli Kuchlar jamoalarida ma‘naviy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ushbu kitobdan qanday foydalanish mumkin?

10. Mustaqillik va tinchlikning qadriga yetish g‘oyasi tarixchi olim asarining umumiy mantiqiy xulosasi sifatida qanday asoslab berilgan?



# SOHIBQIRON AMIR TEMUR TARIXI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **SOHIBQIRON  
AMIR TEMUR TARIXI**


**MUALLIFI:** ..... **IBN ARABSHOH**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ibn Arabshoh (1392–1450) – oʻrta asr arab tarixchisi boʻlib, u oʻzining mashhur “Ajaʼib al-Maqdur fi Tarikh Taymur” (“Taʼqdir ajoyibotlari Temur tarixida”) nomli asarida Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatini yoritgan. Mazkur asar Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy ruhda yozilgan boʻlib, muallif voqealarni koʻproq oʻz davrining siyosiy va ijtimoiy qarashlari asosida bayon etadi. Ibn Arabshoh yoshligida Temur qoʻshinlari tomonidan Damashqdan Samarqandga olib ketilgan va bir muddat Movarounnahr hududida yashagan. Shu sababli u Temur saltanati muhitini bevosita koʻrgan tarixchilardan biri hisoblanadi. Asarda Amir Temurning harbiy yurishlari, xususan, Eron, Iroq, Suriya va Anadolu hududlariga qilgan safar-

lari batafsil tasvirlanadi. Muallif Temurning siyosiy qudrati, harbiy mahorati va strategik tafakkurini tan olsa-da, uni shafqatsiz hukmdor sifatida koʻrsatishga harakat qiladi. Shunga qaramay, asar tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega, chunki unda XIV–XV asrlardagi siyosiy voqealar, davlatlararo munosabatlar va temuriylar davri-ning ayrim jihatlari haqida muhim maʼlumotlar keltirilgan. Bugungi kunda Ibn Arabshoh asari Amir Temur shaxsini oʻrganishda muhim tarixiy manbalardan biri sanaladi. U boshqa manbalar bilan solishtirib oʻrganilganda, Sohibqironning murakkab va koʻp qirrali shaxs ekanini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Ibn Arabshohning ushbu asari o‘quvchiga tarixiy voqealarni faqat bayon qilib bermaydi, balki chuqur mushohada qilishga undaydi. Asarda Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati murakkab va ziddiyatli tarzda tasvirlanadi. Muallif ba‘zan tanqidiy ruhda yozgan bo‘lsa-da, bu holat o‘quvchini biryoqlama xulosa chiqarmaslikka, tarixga adolat va tahliliy nigoh bilan qarashga o‘rgatadi. Asarning g‘oyaviy ozuqasi

shundaki, unda kuch, iroda, qat‘iyat va siyosiy tafakkur masalalari keng yoritiladi. O‘quvchi Temurning sabr-toqati, uzoqni ko‘ra bilishi va strategik fikrlash qobiliyatidan ibrat oladi. Harbiylar uchun esa asar alohida ahamiyatga ega. Unda yurishlarni rejalashtirish, qo‘shin tartibi, intizom, tezkor qaror qabul qilish va ruhiy ustunlikni saqlash kabi jihatlar tasvirlangan.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda Amir Temur shaxsiyati qanday ichki qarama-qarshiliklar orqali ochib berilgan?
2. Muallif Temur obrazini yaratishda qanday ruhiy holatlarga e‘tibor qaratgan?
3. Asarda kuch va hokimiyat masalasi qanday g‘oya asosida yoritilgan?
4. Temurning harbiy yurishlari tasviri o‘quvchida qanday taassurot uyg‘otadi?
5. Muallifning shaxsiy munosabati asar mazmuniga qanday ta‘sir ko‘rsatgan?
6. Asarda adolat va shafqatsizlik o‘rtasidagi muvozanat qanday talqin etilgan?
7. Temur siymosi orqali qanday tarixiy yoki ma‘naviy xulosa chiqarish mumkin?
8. Asar o‘quvchini qanday fikrlashga undaydi?
9. Muallif voqealarni yoritishda qanday umumiy ruhiy kayfiyatni saqlagan?
10. Ushbu asarning asosiy g‘oyasi nimada deb hisoblaysiz?



# TANLANGAN ASARLAR

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI: .....TANLANGAN ASARLAR**

**MUALLIFI: .....IBROYIM YUSUPOV**

**YOZILISHI: .....KIRILL ALIFBOSI**


## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ibroym Yusupovning “Tanlangan asarlar” kitobi shoirning eng sara she’rlari, dostonlari va adabiy asarlarini o’z ichiga olgan muhim to’plamdir. Unda muallif ijodining asosiy yo’nalishlari, dunyoqarashi va badiiy mahorati yaqqol namoyon bo’ladi.

Bu kitobda asosan Vatanga muhabbat, inson qadri, tabiat go’zalligi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlar kabi mavzular keng yoritilgan. Shoir o’z asarlarida inson ruhiyatini nozik va ta’sirchan ifoda etadi, hayotning mazmuni, vaqtning o’tkinchiligi va inson burchi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi.

She’rlarda qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, an’analari va orzu-intilishlari ham muhim o’rin egallaydi. Shu jihatdan kitob nafaqat badiiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarning asosiy ma’naviy-mafkuraviy ozuqasi insonparvarlik g’oyasida mujassam. Unda inson qadrini ulug’lash, odamlar o’rtasidagi mehr-oqibat, yaxshilik va adolatga intilish muhim o’rin tutadi. Shu bilan birga, Vatanga muhabbat va sadoqat hissi kuchli targ’ib qilinadi – shoir ona zaminni asrash, uning tarixi va kelajagi uchun mas’uliyatni his etish g’oyasini ilgari suradi.

Kitobda milliy o’zlikni anglash, xalq an’analari va madaniy merosga hurmat ruhi ham chuqur ifodalangan. Muallif qoraqalpoq xalqi hayoti misolida umuminsoniy qadriyatlarni yoritib, o’quvchini o’z ildizlarini unutmaslikka da’vat etadi. Shuningdek, asarda tabiatga ehtirom, uni asrash g’oyasi ham muhim o’rin egallaydi. Tabiat obrazlari orqali inson va atrof-muhit o’rtasidagi uyg’unlik, poklik va go’zallikka intilish yoritilgan.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Ibroyim Yusupov Vatanga muhabbat g’oyasini qanday ifodalagan?

2. Insonparvarlik va mehr-oqibat tushunchalari vatanparvarlik g’oyalari bilan uyg’unlashishi asarda qanday aks etgan?

3. Muallif inson burchi haqida qanday mulohazalarni ilgari suradi?

4. Muallifning qarashlarida milliy qadriyatlar va an’analari inson hayotida, ayniqsa, Vatanni sevishida qanday o’rin tutadi?

5. Tabiat obrazi inson taqdiri bilan qanday bog’langan? Vatan va zamin tushunchalarini gapirib bering.

6. Ushbu asardan olgan ma’naviy sabog’ingiz va uni kundalik hayotingizda qanday qo’llaysiz?

7. Asarda ilgari surilgan g’oyalar bugungi kunda harbiy xizmatchilar va yoshlar uchun qay darajada dolzarb?

8. O’zbek va qoraqalpoq xalqining qardoshligi, butun dunyo xalqlarining qadriyatlari muallif ijodida qanday yangraydi?

9. Shoir asarlarida milliy birlik, do’stlik va umumiy qadriyatlar g’oyasi qanday ma’naviy ahamiyat kasb etadi?

10. Muallifning xotirangizga muhrlanib qolgan eng ta’sirli she’riy satridan misol keltiring.



# BILGA XOQON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....BILGA XOQON

MUALLIFI: .....ISAJON SULTON

YOZUVI: .....LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Bilga Xoqon bitiktoshi qadimgi turkiy xalqlarining eng muhim yozma yodgorliklaridan biridir. Ushbu bitiktosh Turk xoqonligining buyuk hukmdori Bilga Xoqon sharafiga o'rnatilgan bo'lib, unda turk xalqining tarixi, davlat boshqaruvi, urushlari va siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Asarda turk xalqining birlashuvi, mustaqillik uchun olib borgan kurashi va davlatning kuchayishi tasvirlanadi. Bilga Xoqon xalqni bir-

likka, hushyorlikka va vatanparvarlikka chaqiradi. U o'z nutqlarida xalqni xiyonat va tarqoqlikdan ogohlantirib, mustahkam davlat barpo etish zarurligini ta'kidlaydi.

Kitobda turk xalqining boshiga tushgan og'ir sinovlar, xitoylar bilan bo'lgan munosabatlar hamda ajdodlarning jasorati tarixiy voqealar asosida bayon etilgan. Asar nafaqat tarixiy hujjat, balki yuksak badiiy va siyosiy-falsafiy ahamiyatga ega manbadir.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun – milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarni bilish va ajdodlar merosini qadrlash manbayidir. Asar birlik, jasorat, sadoqat va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etadi.

Harbiy xizmatchi uchun – Vatanga sado-

qat, davlatni himoya qilish, intizom va birlikning naqadar muhim ekanini anglatadi. Bilga Xoqonning nasihatlari bugungi kunda ham har bir inson uchun ma’naviy saboq bo‘la oladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda turk xalqining tarixiy taqdiri qanday tasvirlangan?

2. Bilga Xoqon xalqni qanday g‘oyalarga da’vat etadi?

3. Asarda birlik va mustaqillik masalasi qanday yoritilgan?


4. Qadimgi turkiy tilning badiiy xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?

5. Bitiktosh tarixiy manba sifatida qanday ahamiyatga ega?

6. Asarda xiyonat va tarqoqlikning oqibatlari qanday ko‘rsatilgan?

7. Bilga Xoqon nutqlarining uslubiy xususiyatlari qanday?

8. O‘rxun bitiklarining turkiy adabiyot tarixidagi o‘rni qanday?



9. Asarda davlat boshqaruvi haqidagi qarashlar qanday ifodalangan?

10. Bitiktoshning bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyati nimada?



# QO‘RQMA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT

KITOB NOMI: ..... QO‘RQMA

MUALLIFI: .....JAVLON JOVLIYEV

YOZILISHI: ..... KIRILL VA LOTIN  
ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Qo’rqma” yangi davrning yangi va dardchil, yangicha uslubda va o’ziga xos yangi ohang bilan yozilgan yangi romanidir. Romanda lirika bilan fojia uyg’unlashib ketadi.

Romanning o’ziga xos uslubida vaqt va voqelik tizimi, ketma-ketligi, ularning chegaralari istalgan mahali buzilishi mumkin va bu hol tabiiy tuyuladi. Go’ri Amir maqbarasiga borib, Vatanga xizmat borasida ont ichib, Germaniyaga o’qishga ketgan talabalar qismati juda qiziq. Sattor Jabbor, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukriy, Abduvahob Murodiy kabi talabalarni, u yerda “Ko’mak” jurnali chiqarganini, teatr truppasi tashkil etishganini ko’pchilik biladi. Romanda ularning maktublari, tergovchilar bilan bo’lgan savol-javoblari keltiriladi. Bularni badiiy adabiyotning

ramziy tiliga mahorat bilan ko’chiradi. Talabalarining o’qishida Olimjon Idrisiy degan shaxs Buxoro va Turkiston hukumati bilan Germaniya o’rtasida tilmochlik qiladi. Grigoriy Meyerson talabalarni majburlab ortiga qaytarish uchun sobiq ittifoq vakili bo’lib Berlinga boradi.

Germaniyada o’qiyotgan talabalar qarshiligiga uchragan Meyerson “Qo’rqma” muallifining ham nafratidan bebahra qolmaydi. “Sichqon yaxmalak uchsa arzigulik bosh! Toshbaqa bo’yniday bujmaygan quloq! Qishloq yo’liday notekis bashara! Itbaliqlar suzgudek ko’z! Boyo’g’li qidirgan ikki vayrona – burun! Bularning barchasi, Meyerson shaxsiy mulki”. Sochilmagan, bir joyga jamlangan, noan’anaviy va yozuvchining antipatiyasi bilan chizilgan portret.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun ushbu asar “men kimman?” va “millat uchun nima qildim?” degan savollarni uyg‘otadi. Ma’naviy uyg‘onish, tarixiy xotirani tiklash, ilm-fan taraqqiyotiga intilish va sadoqat kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

Harbiy xizmatchi uchun bu asar Vatanga sodiqlikning yuksak namunasi, ruhiy matonat va qo‘rqmaslik, millat manfaati uchun fidoyilik, tarixiy mas’uliyat, ma’naviy hushyorlik va mudroq ko‘ngillarni uyg‘otish g‘oyalarini ilgari suradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Q‘orqma” romani nima uchun aynan shunday nomlangan? Muallif bu so‘z orqali kimga murojaat qilyapti?

2. Asarning bosh qahramoni (roviy) nima sababdan Germaniyaga o‘qishga ketgan 70 nafar talaba taqdirini o‘rganishga kirishadi?

3. Jadidlar tomonidan Germaniyaga yuborilgan talabalarning asosiy maqsadi va vazifasi nimalardan iborat edi?

4. Asarda tasvirlangan Lola obrazi ramziy ma’noga egami yoki u shunchaki sevimli ayol timsolimi?

5. Germaniyadagi talabalarga moddiy va ma’naviy ko‘mak bergan “Ko‘mak” jamiyati va Olimjon Idrisiyning asardagi o‘rni qanday?


6. Nima uchun sovet hukumati Germaniyadan qaytgan talabalarni “josus”likda aybladi va ularni qatag‘on qildi?

7. Asarda tilga olingan “Berlin kundaliklari” va arxiv hujjatlari voqelikning haqqoniyligini qanday isbotlaydi?

8. Talabalarning Germaniyadagi hayoti davomida qiynagan eng katta ma’naviy azob nima edi?

9. Nima deb o‘ylaysiz, agar 70 nafar talaba qatag‘on qilinmaganda, bugungi O‘zbekistonning taraqqiyoti qanday bo‘lar edi?

10. Muallifning “Biz qo‘rqoqlarning avlodimizmi?” degan achchiq savoliga siz qanday javob bergan bo‘lar edingiz?



# BUYUKLAR HAQIDA 100 TA DALIL

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... **BUYUKLAR HAQIDA  
100 TA DALIL**

MUALLIFI: ..... **JAMOA**

YOZILISHI: ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "O'zbekiston tarixi" telekanali hamda Fanlar akademiyasi hamkorligida 8 ta tilda tayyorlangan ushbu to'plamda dunyoga mashhur 10 ajdodimiz haqida eng muhim ma'lumotlar jamlangan. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy haqida hamma bilishi zarur dalillar bor.

Davlatimiz rahbari boshchiligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik ruhi, milliy qadriyatlarga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan edi, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari, senator Komila Karamova.

– "Buyuklar haqida 100 ta dalil" to'plami ushbu vazifalar ijrosi sifatida tayyorlandi va davomli ravishda chop etiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Buyuklar haqida 100 ta dalil” kitoblar jamlanmasi harbiylar uchun strategik fikrlashni shakllantirish, milliy g‘ururni mustahkamlash va yetakchilik (liderlik) qobiliyatini rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda tayyorlangan ushbu loyiha 8 tilda nashr etilgan bo‘lib, o‘zbek xalqining eng buyuk 10 nafar siymosi hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

Jamlanmada Amir Temur kabi buyuk sarkardalar hayotiga oid dalillar keltirilgan bo‘lib, ularning harbiy taktikasi va davlatni boshqarish

san’ati harbiylar uchun amaliy darslik vazifasini o‘taydi.

“O‘tmishini bilgan – kelajakka tayyor” g‘oyasi ostida tayyorlangan ushbu asar harbiylarda o‘z ajdodlarining jasorati bilan faxrlanish tuyg‘usini va Vatanni himoya qilish mas’uliyatini kuchaytiradi.

Kitobda dunyoga mashhur 10 nafar ajdodimiz (masalan, Alisher Navoiy, Ahmad Farg‘oniy va boshqlar) haqidagi eng muhim va qiziqarli dalillar orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi ilgari suriladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. To‘plamga jami 10 nafar buyuk siymo kiritilgan bo‘lsa, nima uchun kitob “100 ta dalil” deb nomlangan?

2. Kitob sahifalaridagi ma’lumotlarni sun’iy intellekt orqali “gapirtirish” uchun qaysi grafik belgidan foydalanilgan?

3. To‘plamdan o‘rin olgan “Sohibqiron” unvoni bilan mashhur hukmdor kim?

4. Kitob nafaqat o‘zbek tilida, balki xalqaro miqyosda targ‘ib qilish uchun jami necha xil tilda chop etilgan?

5. Ushbu loyiha yoshlar orasida qaysi 3 ta so‘zdan iborat shior ostida ommalashtirilmoqda?


6. To‘plamdagi allomalar ichida yulduzlar jadvalini tuzgan va Samarqandda rasadxona qurdirgan hukmdor kim?

7. G‘arbda “Avitsenna” nomi bilan tanilgan, “Tib qonunlari” asari muallifi haqidagi faktlar nechanchi sahifalardan o‘rin olgan?

8. Kitobni nashr etishda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birga qaysi telekanal asosiy hamkor bo‘lgan?

9. “Algebra” faniga asos solgan va to‘plamga kiritilgan buyuk matematik alloma kim?

10. Kitobning asosiy maqsadi – yoshlarni qaysi zamonaviy qurilmalardan kitob mutolaasiga qaytarish deb belgilangan?



# JANGOVAR RUH (Turon harbiy tafakkuri genezisi va evolyutsiyasi)

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....JANGOVAR RUH

**MUALLIFI:** .....JAMOA

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Usbu interaktiv kitobga 15 ta multimediya QR kod orqali joylangan. “Jangovar ruh” asari Turon va Markaziy Osiyo xalqlarida shakllangan milliy harbiy tafakkurning tarixi, rivojlaniishi va ma’naviy asoslariga bag’ishlangan. Asarda Vatan tushunchasi, harbiy vatanparvarlik, jangchi ma’naviyati, milliy davlatchilik va harbiy intizom masalalari keng yoritilgan.

Kitobda Avesto, zardushtiylik, tangrichilik, islom sivilizatsiyasi, turkiy davlatchilik an’analari hamda Amir Temur harbiy san’ati orqali Turon harbiy tafakkurining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo’shin psixologiyasi, jamoaviy intizom, strategik fikrlash, ax-

borot va psixologik urush masalalari ham ilmiy asosda yoritilgan.

Asarda milliy harbiy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, fidoyilik, jasorat, burch va qasam tushunchalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar zamonaviy urushlar faqat qurol bilan emas, balki ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik, axborot xavfsizligi va mafkuraviy immunitet bilan ham bog’liq ekanini ta’kidlaydilar.

Kitobda Markaziy Osiyoning umumiy tarixiy va sivilizatsion makon sifatidagi ahamiyati, Turon va Turkiston g’oyalari, ajdodlar merosi ham chuqur tahlil qilingan. Asar harbiy xizmatchilar, kursantlar, talabalar va keng kitobxonlar uchun muhim ma’naviy-ma’rifiy manba hisoblanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Jangovar ruh” asari yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, jasorat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Asarda Vatanni himoya qilish nafaqat harbiy burch, balki muqaddas ma’naviy vazifa ekani ta’kidlanadi.

Kitob insonni intizomli, irodali, bilimli va mafkuraviy jihatdan barqaror bo‘lishga undaydi. Unda milliy tarix, ajdodlar jasorati va dav-

latchilik an’analari orqali harbiy tafakkurni yuk-saltirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Asarning muhim jihatlaridan biri – zamonaviy xavfsizlikka oid tahdidlar, psixologik urush, axborot xurujlari va raqamli front kabi yangi tushunchalarning tahlil qilinganidir. Bu esa kitobning nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Jangovar ruh” asarida milliy harbiy tafakkurning shakllanishida qaysi omillar asosiy o‘rin egallagan?

2. Asarda Vatan tushunchasi qanday talqin qilingan va uning ma’naviy ahamiyati nimada?

3. Mualliflar zamonaviy urush tabiatining o‘zgarishini qanday izohlaydilar?

4. Turon harbiy tafakkurida intizom va jamoaviylik qanday o‘rin tutadi?

5. Kitobda Amir Temur harbiy san’ati va strategiyasi qay tarzda yoritilgan?

6. Axborot va psixologik urush tushunchalari asarda qanday tahlil qilingan?

7. Vatanparvarlik va fidoyilik g‘oyalari yoshlar tarbiyasida qanday ahamiyatga ega?

8. Asarda Markaziy Osiyoning “katta Vatan” sifatidagi mohiyati qanday tushuntirilgan?

9. Turkiy davlatchilik an’analari milliy harbiy tafakkurga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

10. Sizningcha, “Jangovar ruh” kitobi bugungi harbiy xizmatchilar va yoshlar uchun nega dolzarb asar hisoblanadi?



# TOMIRLARIM QONI – VATAN

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **TOMIRLARIM QONI – VATAN**

**MUALLIFI:** ..... **JAMOA**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi tomonidan nashr etilgan ushbu to'plamda el-yurtimizning eng sara shoirlari qalamiga mansub she'rlar ro'yxati va matni jamlangan. To'plamga bevosita Vatanparvarlik va jangovarlik ruhidagi she'rlar kiritilgan bo'lib, ularda ona yurtga bo'lgan cheksiz muhabbat, uning tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash va tinchligini himoya qilishdek yuksak insoniy tuyg'ular tarannum etilgan.

Har bir she'r orqali kitobxon o'zbek xalqining jasorati, boy tarixi va yorug' kelajagiga bo'lgan ishonchni teran his qiladi. Asarda jo'shqin lirik kechinmalar orqali Vatanning muqaddasligi, el-yurt ravnaqi yo'lidagi fidoyi bo'lish har bir insonning sharafligi burchi ekanligi yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Badiiy poeziya insonning ichki dunyosini boyituvchi qudratli manbadir. To‘plamni mutolaa qilish yoshlarda va barcha kitobxonlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltiradi. She‘rlarni yod olish orqali o‘quvchining xotirasi mustahkamlanadi, so‘z boyligi ortadi hamda nutq madaniyati o‘sadi. Eng muhimi, o‘quvchi bu she‘rlar orqali go‘zallikni his etish va ifodalash madaniyatini o‘zlashtiradi.

She‘riyat, ayniqsa, chaqiriq ruhidagi asarlar har-

biylarning ma‘naviy-psixologik holatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan har bir askar va ofitser bu she‘rlarni o‘qib, o‘z qasamyodiga sadoqat, mardlik va shijoat manbayini topadi. Harbiy jamoalarda badiiy asarlarni o‘qish ularning ma‘naviy dunyoqarashini va nutq madaniyatini o‘stirishga, jangovar topshiriqlarni bajarishda ruhiy tayanch bo‘lishga xizmat qiladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. To‘plamga kiritilgan she‘rlarda Vatan obrazi qanday betakror badiiy vositalar va yorqin o‘xshatishlar orqali tasvirlangan?

2. Vatanparvarlik va jangovarlik ruhidagi she‘rlar askarlarning ruhiy-ma‘naviy tayyorgarligini hamda jangovar ruhini oshirishda qanday amaliy ahamiyatga ega?

3. Badiiy she‘riyat mutolaasi o‘quvchining xotirasini mustahkamlash, so‘z boyligi va nutq madaniyatini yuksaltirishga qay tarzda ta‘sir ko‘rsatadi?

4. Ona yurtni himoya qilish va unga sadoqat g‘oyasi to‘plamdagi asarlarning asosiy leytmotivi sifatida shoirlar tomonidan qanday ochib berilgan?

5. Vatan madhi kuylangan jo‘shqin she‘rlarning askarlar o‘rtasida o‘qilishi ularning jamoaviy jipsligini ta‘minlashga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

6. To‘plamdagi qaysi asarlarda tarixiy ajdodlari-

mizning yengilmas jasorati va bugungi kun tinchligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tarannum etilgan?

7. She‘rlarni mutolaa qilish va yod olish harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini va notiqlik (falsafiy fikrlash) qobiliyatini qay tarzda rivojlantiradi?

8. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tuzilgan ushbu saylanmada Vatanning muqaddasligi va daxlsizligi tushunchasi qanday lirik kechinmalar orqali kitobxonga yetkazilgan?

9. Jangovarlik ruhini oshiruvchi she‘rlardagi maxsus ohang, ritm va so‘z tanlash mahorati qanday insoniy hissiyotlarni (g‘urur, iftixor) uyg‘otishga qaratilgan?

10. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasida badiiy adabiyot, xususan, poeziyaning o‘rni va ta‘sir kuchini ushbu to‘plamdagi g‘oyalar misolida qanday xulosa qilish mumkin?



# ATOM ODATLAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....ATOM ODATLAR

**MUALLIFI:** .....JEYMS KLIR

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Jeys Klir “Atom odatlar” kitobida shunday deydi: “Yaxshi odatlar – hayotingizni osonlashtiruvchi avtomat tizim, yomon odatlar esa yashirin dushmandir”. Ilm-fanga koʻra, odatlar miyadagi asab toʻlari faoliyatini shakllantiradi. Masalan, bir amalni qayta-qayta bajarsangiz, bu miyada avtomatik ravishda amalga oshadigan yoʻnalish hosil qiladi. Bu jarayon “neyroplastiklik” deb ataladi. Yangi odat yaratishning asosiy qoidasi shunday: kichik amallarni boshlang va doimiy davom ettiring.

“Atom odatlar” kitobining ham asosiy gʻoyasi shunday: har qanday katta muvaffaqiyat kichik odatlardan boshlanadi. Tasavvur qiling, bir kun davomida atigi 0.01% yaxshilanishga erishsangiz, bir yil davomida hayotingiz 37% oʻzgaradi. Kichik

qadamlar kattalashib boraveradi, xuddi qorda dumalayotgan kichik parcha kabi. Misol uchun, har kuni bir necha daqiqa sport bilan shugʻullanish odatini olaylik. Avvaliga bu qiyin tuyuladi, lekin bir necha hafta oʻtgach, bu odat siz uchun tabiiy holga aylanadi. Odatlarni avvaliga mukammal bajarish shart emas. Chunki “Mukammallik emas, davomiylik muhim. Mayda ishlar katta natijalarga olib keladi”.

Ushbu kitob hayotni kichik qadamlar bilan oʻzgartirish mumkinligini isbotlaydi. Unda keltirilgan ilmiy va hayotiy usullar har bir inson uchun foydali boʻlishi mumkin. Ertalabki bir piyola suv, 10 daqiqalik mashq yoki bir sahifa kitob – bu odatlar orqali hayotingiz oʻzgara boshlashi aytib oʻtiladi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun ushbu asar shaxsiyatni shakllantirish, intizomni mustahkamlash va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy yordam beradi.

Harbiy xizmatchi uchun intizom, burchga sadoqat, ruhiy barqarorlik va professional samaradorlikni kuchaytiruvchi ma’naviy manba vazifasini bajaradi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Nima uchun kichik o‘zgarishlar katta natijalarga olib keladi?

2. Har kuni 1% yaxshilanish tamoyili qanday qilib ulkan natijalarga aylanadi?

3. Nima sababdan odatlar muvaffaqiyatning asosiy qurilishi hisoblanadi?

4. Nega maqsaddan ko‘ra tizim muhimroq deb qaraladi va tizim natijaga qanday ta’sir qiladi?

5. Shaxsiyatga asoslangan odatlar nima uchun samaraliroq, fikrlash tarzini o‘zgartirish xulq-atvorga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

6. Yaxshi odatlarni osonlashtirish va yomon odatlarni qiyinlashtirish prinsipi qanday,

muhitni o‘zgartirish irodadan qay tarzda ustun turadi?

7. Odatlar qanday 4 bosqichdan iborat va har bir bosqich motivatsiyaga qanday ta’sir qiladi?

8. Nima uchun kichik yutuqlarni doimiy nishonlash muhim va yomon odatni yo‘q qilish uchun uni qay tarzda bartaraf etish mumkin?

9. Nega davomiylik intensivlikdan muhim hisoblanadi?

10. Odatlar shaxsiyatni qanday shakllantiradi va insonning kim bo‘lishini qanday belgilaydi?



# KUNTUG'MISH

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... KUNTUG'MISH

MUALLIFI: ..... XALQ

YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSIDA

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Kuntug’mish” o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub qahramonona romantik dostonlardan biridir. Asarda sevgi, sadoqat, jasorat va adolat g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. Doston mazmuni quyidagicha: Dostonning bosh qahramoni – Kuntug’mish. U jasur, mard va adolatparvar yigit sifatida tasvirlanadi. Kuntug’mish go‘zal va oqila qiz Xolbekani sevib qoladi. Ammo uning sevgisiga yetishishi oson kechmaydi. Xolbeka yigitni sinab ko‘rish uchun turli shartlar qo‘yadi va Kuntug’mish sevgisiga yetishish uchun og‘ir sinovlardan o‘tadi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar o‘quvchiga qanday ma’naviy ozuqa beradi? Hayotda hamma narsa oson kelmasligini, baxtga yetishish uchun sinovlardan o‘tish kerakligini o‘rgatadi. Kuntug‘mish va Xolbeka tim-solida chin sevgi, va’daga sodiqlik qadri ko‘rsatiladi. Qo‘rqmaslik, qiyinchilikdan qochmaslik, muammoga tik qarash ruhini beradi. Ezgulik oxir-oqibat g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. Doston o‘zbek xalqining qadriyatlari – mardlik, nomus, oriyatni ko‘rsatadi.

Qahramonning jasorati harbiy inson uchun fidoyilik va burch tushunchasini mustahkamlaydi. Har qanday vaziyatda qat’iy turish, sinovda sinmaslik ruhini beradi. Harbiy uchun nomus va sha’n eng oliy qadriyat. Dostonda bu tushuncha juda kuchli talqin etilgan. Qahramonning sevgi va va’daga sodiqligi harbiy qasamyodiga hamohang. Sinovlardan o‘tish motivi harbiyga ichki mustahkamlik beradi. Harbiy uchun bu doston – ruhiy quvvat va jasorat maktabi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Aka-uka vazirlarning farzandi qanday o‘sdi?
2. Xolbekaning kanizining ismi nima edi?
3. Xolbekaning kanizi Xolbekaga ismi o‘rniga nima deb murojaat qiladi?
4. Xolbeka suvga oqizib yuborgan sandiq ichida nimalar bor?
5. Kuntug‘mish Qur‘onni o‘rtaga qo‘yib, do‘st tutingan karvonboshining ismi nima?
6. Dostonda qaysi tog‘ nomlari keltiriladi?
7. Azbarxo‘ja asar so‘nggida qanday o‘lim topdi?
8. Mohiboy va Gurkiboy taqdiri qanday kechdi?

9. Asarda Davlat qushi necha marta uchirildi deyiladi?
10. Mohiboy va Gurkiboy qanday o‘lim jazosiga hukm qilingan edi?





# URUSH VA TINCHLIK

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....URUSH VA TINCHLIK

**MUALLIFI:** .....LEV TOLSTOY

**YOZILISHI:** .....KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Tolstoy 1856-yilda bu romanni yozishni boshlaganini yozgan edi, "Uning qahramoni oilasi bilan Rossiyaga qaytib kelayotgan dekabrist



bo'lishi kerak edi. O'zim bilmagan holda hozirgi zamondan 1825-yilga o'tdim... Ammo 1825-yilda ham mening qahramonim yetuk, oilali odam edi. Uni tushunish uchun men uning yoshligiga qaytishim kerak edi va uning yoshligi 1812-yilga to'g'ri keldi. Agar bizning bayramimizning sababi tasodifiy bo'lmasa-da, rus xalqi va qo'shinlarining tabiatiga asos solgan bo'lsa, unda bu mohiyat qobiliyatsizlik va mag'lubiyat davrida yanada yorqinroq bo'lishi kerak edi". Shunday qilib, Lev Nikolayevichda asta-sekin voqeani 1805-yildan boshlash zarurati tug'ildi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarda 1812-yil Vatan urushidagi rus xalqi-ning tarixiy taqdiri mujassam bo‘lgan. Roman-da xayoliy va tarixiy 550 dan ortiq asar qahramonlarining obrazi mavjud. Tolstoy eng yaxshi qahramonlarini butun ma’naviy murakabligida, haqiqatni uzluksiz izlashda, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishda tasvirlaydi.

Ular shahzoda Endryu, graf Nikolay, graf Per, malika Natasha va Marya. Helen, Anatol kabi salbiy qahramonlar ruhning rivojlanishi, dinamikasi, harakatlaridan mahrumdir. Asar barcha toifadagi kitobxonga o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘rgatadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Urush va tinchlik” asarida qaysi tarixiy voqealar tasvirlangan?

2. Asarning asosiy g‘oyasi nimadan iborat? Tolstoy urush va tinchlik tushunchalarini qanday qarama-qarshi qo‘yadi?

3. Per Bezuxov obrazining rivojlanishi asar davomida qanday o‘zgaradi?

4. Andrey Bolkonskiy hayot mazmunini qanday izlaydi va uning qarashlari qanday o‘zgaradi?

5. Natasha Rostova obrazi orqali muallif qanday insoniy fazilatlarini ko‘rsatadi?


6. Tolstoy Napoleon va Kutuzov obrazlarini qanday tasvirlaydi va ular orqali qanday fikrni ilgari suradi?

7. Asarda urush sahnalari inson ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tasvirlangan?

8. Rostovlar va Bolkonskiylar oilasi o‘rtasidagi farqlar nimada namoyon bo‘ladi?

9. Tolstoy tarixni yaratishda shaxs roli haqida qanday falsafiy qarash bildiradi?

10. Asar nomi syujet va qahramonlar taqdiri bilan qanday bog‘langan?



# ИМОН МОТУРИДИЙ

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... **ИМОН МОТУРИДИЙ**

MUALLIFI: ..... **ЛУҚМОН БО'РИХОН**

YOZILISHI: ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" tarixiy romani olis X asr boshlaridagi ko'hna Samarqandning ijtimoiy-siyosiy va ma'riy muhitini, Somoniylar davlati davridagi ziddiyatli jarayonlarni yorqin aks ettirgan nodir asardir. Asarning markaziy qahramoni – buyuk ilohiyot olimi, islom olamida keng tarqalgan moturidiylik ta'limotining asoschisi Abu Mansur Moturidiydir. Romanda allomaning hayot yo'li, uning benazir ilmiy merosi hamda turli botil oqimlar va aqidaparastlikka qarshi

olib borgan murosasiz, sermazmun bahs-munozaralari jonli hikoya qilinadi.

Asar faqatgina tarixiy shaxs xronikasi bo'lib qolmay, unda sof islom aqidasi asrash, jamiyatda ma'rifat nuri tarqatish va aql-idrok (mantiq) bilan iymonni uyg'unlashtirish g'oyalari o'tkir badiiy ziddiyatlar orqali yetkazilgan. Kitob o'quvchini asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan milliy-diniy tafakkur, halollik va ma'naviy yetuklik dunyosiga olib kiradi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi asar orqali ajdodlarimizning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini hamda milliy-diniy qadriyatlarimizni chuqur anglab yetadi. Turli buzg‘unchi oqimlar ko‘paygan hozirgi davrda yoshlarda aqida va e‘tiqod masalalarida sog‘lom dunyoqarash shakllantiriladi. O‘quvchi Imom Moturidiyning sabri, ulkan ilmi va matonati orqali hayotiy qiyinchiliklarni mantiq va aql-zakovat bilan yengishni o‘rganadi.

Harbiylarning ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligida sog‘lom e‘tiqod va to‘g‘ri dunyoqarash eng mustahkam qalqon hisoblanadi. Asarni o‘qigan harbiylar diniy ekstremizm, mutaassiblik va yot g‘oyalarining mudhish qiyofasini teran anglab, ularga qarshi faqat ilm va ma‘rifat bilan kurashish zarurligini tushunib yetadilar. Buyuk allomaning ruhiy matonati harbiylarga davlat daxlsizligini ichki va tashqi ma‘naviy xurujlardan himoya qilishda kuchli ruhiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Romanda X asrdagi Samarqandning ijtimoiy-siyosiy hamda ma‘rifiy hayoti qanday tarixiy voqealar va badiiy detallar orqali tasvirlangan?

2. Imom Moturidiyning islom aqidasi sof saqlash yo‘lidagi ilmiy bahslari va g‘oyaviy kurashlari asarda qanday yoritilgan?

3. Asarda botil oqimlar va mutaassiblikka qarshi allo-ma tomonidan qanday mantiqiy dalillar keltirilgan?

4. Yozuvchi Luqmon Bo‘rixon Imom Moturidiy siy-mosini yaratishda uning mantiqiy tafakkuri va sabr-matonatini namoyon etuvchi qaysi xarakter xususiyatlaridan ustalik bilan foydalangan?

5. Somoniylar davlati davridagi hukmdorlar va din ulamolari o‘rtasidagi munosabatlar asarda qanday ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi?

6. Asarning mafkuraviy ahamiyati bugungi kunda yot g‘oyalar va ekstremistik oqimlarga qarshi kura-


shishda, ayniqsa, harbiylar ongida mafkuraviy immu-nitet shakllantirishda qanday xizmat qiladi?

7. Romanda sof e‘tiqod va odob-axloq masalalari oddiy xalq hayoti orqali qanday jonli syujetlar va epi-zodlarda namoyon bo‘ladi?

8. Imom Moturidiy ta‘limotining markazida turuvchi “Aql va naql (Qur‘on va Sunnat) uyg‘unligi” g‘oyasi ro-manning qaysi qismlarida eng yuqori nuqtasiga (kul-minatsiyasiga) chiqadi?

9. Harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ruhiy tayyor-garligi jarayonida asarning ma‘rifiy, diniy-bag‘ri-kenglik va vatanparvarlik g‘oyalaridan qanday ama-liy darslar chiqarish mumkin?

10. Asarni mutolaa qilish natijasida kitobxon o‘zbek milliy-diniy qadriyatlarining jahon sivilizatsiyasidagi beqiyos o‘rni haqida qanday chuqur xulosalarga keladi?



# SARIQ AJDAR HAMLASI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....SARIQ AJDAR HAMLASI

**MUALLIFI:** ..... MANNOP  
EGAMBERDIYEV

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Sariq ajdar hamласи” – milliy tarixiy roman boʻlib, qadimiy urf-odatlar, xalq qahramonlari va ularning fidoiy hayotini chuqur tasvirlaydi. Asarda qahramonlarning ijtimoiy va siyosiy qiyinchiliklarga qarshi kurashlari, xalq madaniyati va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash harakatlari yoritilgan.

Roman millat tarixi davomidagi ogʻir va sinovli davrlarni ifodalaydi. Qahramonlar hayotidagi iztirob, jasorat va fidoiylik tasvirlari orqali asar milliy maʼnaviyat va milliy oʻziga xoslikni rivojlantirishga qaratilgan.

Asarda yangi obrazlar va ularning badiiy talqinlari tarixiy voqelik va shaxsiy qadriyatlar uygʻunligi orqali mohirona ochib berilgan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun: milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va estetik tafakkurni boyitish manbayidir.

Harbiy xizmatchi uchun: vatanparvarlik, burchga sadoqat, ma’naviy jasorat va ruhiy barqarorlikni mustahkamlovchi ma’naviy maktab vazifasini bajaradi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Roman tarixi va folklor motivlari orqali milliy ozodlik g‘oyasi qanday yoritilgan?
2. Asarda qahramonlar shaxsiy orzu-umidlari va xalq taqdiri o‘rtasidagi ziddiyat qanday aks ettirilgan?
3. Muallif tarix va badiiy tasvirni qanday uyg‘unlashtirgan va bu asar ta’sirchanligiga qanday xizmat qiladi?
4. Qahramonlarnig oila tarixlari milliy tarix bilan qanday bog‘langan?
5. Romanda ma’naviy jasorat va fidoyilik g‘oyalari qanday badiiy vositalar orqali namoyon etilgan?
6. Asarda tarixiy xotira va milliy o‘zlik masalasi qanday konseptual asosda yoritilgan?
7. “Sariq ajdar hamlasi” ramzi qanday ma’no anglatadi va u xalq taqdiridagi og‘ir bosqichlarni qanday ifodalaydi?
8. Qahramonlar ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklarda qanday shaxsiy va ma’naviy pozitsiyani namoyon etadilar?
9. Asarda vatanparvarlik g‘oyasi qanday obrazlar va voqealar orqali ochib berilgan?
10. Roman milliy estetik tafakkur va qadriyatlarni qanday rivojlantirishga xizmat qiladi?



# SHERMUHAMMADBЕК VA QO'RBOSHILAR JASORATI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **SHERMUHAMMADBЕК VA  
QO'RBOSHILAR JASORATI**

**MUALLIFI:** ..... **MANSURXO'JA XO'JAYEV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Mansurxo'ja Xo'jayevning ushbu asarida XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan murakkab siyosiy jarayonlar va milliy ozodlik harakati voqealari yoritiladi. Asar markazida Farg'ona vodiysidagi istiqlol kurashining yetakchilaridan biri – Shermuhammadbek hamda uning safdoshlari turadi. Kitobda sovet hokimiyati o'rnatilishi ortidan yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar, mahalliy aholining noroziligi va qurolli qarshilik harakati tafsilotlari bayon qilinadi. Shermuhammadbek va boshqa qo'rboshilar yurt mustaqilligi, milliy qadri-

yatlar va e'tiqodni saqlab qolish maqsadida kurash olib boradilar. Ularning harbiy yurishlari, strategik qarorlari, ichki birlik masalalari va og'ir sinovlar jarayonida ko'rsatgan jasorati asarda batafsil tasvirlanadi. Shuningdek, asarda harakat ichidagi murakkabliklar, resurs yetishmovchiligi, ayrim kelishmovchiliklar va tashqi bosimlar ham ochib beriladi. Muallif tarixiy hujjatlar va dalillarga tayangan holda qo'rboshilar faoliyatini biryozqlama emas, balki murakkab tarixiy sharoit mahsuli sifatida ko'rsatishga harakat qiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVİY OZUQASI

Shermuhammadbek va qo‘rboshilar jasorati o‘quvchiga chuqur g‘oyaviy va ma’naviy saboq beradigan tarixiy asarlardan biridir. Unda milliy ozodlik uchun kurashgan insonlar taqdiri orqali Vatan, erkinlik va mas’uliyat tushunchalari yoritiladi. Asar, avvalo, o‘quvchida Vatan qadri va mustaqillikning osonlik bilan qo‘lga kiritilmasligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi. Shermuhammadbek va uning safdoshlari obrazi orqali fidoyilik, jasorat va e’tiqodga

sodiqlik namoyon etiladi. Ularning murakkab sharoitda ham kurashni davom ettirgani o‘quvchini qat’iyat va sobitlikka undaydi.

Asarda tarixiy xotira masalasi ham muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchini o‘z o‘tmishiga xolis nazar tashlashga, ajdodlar jasoratini anglashga va mustaqillikning qadriga yetishga chaqiradi. Shu bois asar nafaqat tarixiy ma’lumot manbayi, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda milliy ozodlik g‘oyasi qanday badiiy vositalar orqali ifodalangan?

2. Shermuhammadbek obrazi qaysi jihatlar bilan ideal qahramon va tarixiy shaxs sifatida tasvirlangan?

3. Tarixiy hujjatlar va badiiy tasvir uyg‘unligi asarning ta’sirchanligiga qanday xizmat qiladi?

4. Asarda qo‘rboshilar harakati ichidagi ichki ziddiyatlar qanday g‘oyaviy ma’no kasb etadi?

5. Muallif kurash motivini faqat harbiy jaryon sifatida emas, balki ma’naviy kurash sifa-

tida ham ochib bera olganmi? Misollar bilan izohlang.


6. Asarda fojiaiviylik unsurlari qahramon xarakterini ochishda qanday rol o‘ynaydi?

7. Dialog va muallif nutqi o‘rtasidagi nisbat qahramonlarning dunyoqarashini yoritishda qanday ahamiyat kasb etadi?

8. Jasorat va fidoyilik tushunchalari qaysi epizodlar orqali namoyon bo‘lgan?

9. Asarda tarixiy sharoit va shaxs omili o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday talqin qilingan?

10. Asar bugungi o‘quvchi uchun qanday ma’naviy xulosa va saboqlar beradi?



# SPITAMEN

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **TANLANGAN ASARLAR**

**MUALLIFI:** ..... **MAQSUD QORIYEV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Maqsud Qoriyevning “Spitamen” asari tarixiy mavzuda yozilgan bo‘lib, unda qadimgi Spitamen obrazi markaziy o‘rin tutadi. Asarda miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga yurishi va unga qarshi mahalliy xalqlarning ozodlik kurashi tasvirlangan.

Spitamen So‘g‘diyona hududida yashagan jasur sarkarda bo‘lib, u Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlariga qarshi xalqni birlashtirib kurash olib boradi. Asarda qahramonning vatanparvarligi, jasorati, xalq ozodligi uchun fidoyiligi, strategik aql-zakovati keng yoritiladi. Yozuvchi

Spitamen timsoli orqali milliy g‘urur va erkinlik g‘oyalarini ilgari suradi. Shu bilan birga, bosqinchilikning og‘ir oqibatlari ham ko‘rsatiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun kurashish insonning eng ulug‘ burchi ekanini ifodalaydi. Muallif tarixiy voqealar orqali yosh avlodni jasorat, birdamlik va millatga sadoqat ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan.

“Spitamen” asari o‘zbek tarixiy adabiyotida muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarga qadimgi tariximiz va milliy qahramonlarimiz haqida bilim beradi hamda tarixiy xotirani mustahkamlaydi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Spitamenning asosiy maqsadi nimadan iborat edi va u o‘z xalqi uchun qanday jasorat ko‘rsatadi?

2. Spitamen obrazida haqiqiy vatanparvarlik qanday namoyon bo‘lgan? Misollar bilan tushuntiring.

3. Spitamenning jasorati va harbiy jangovarligi bugungi harbiy xizmatchilar uchun qanday ibrat bo‘la oladi?

4. Asarda dushmanga qarshi kurashishda birlik va intizomning ahamiyati qanday ifodalangan?

5. Spitamenning qaror qabul qilishidagi qat’iyati va liderlik xususiyatlarini sanab bering.


6. Asarda Vatan ozodligi uchun jon fido qilish g‘oyasi qaysi voqealar orqali kuchli yoritilgan?

7. Spitamen va uning safdoshlari o‘rtasidagi ishonch va sadoqat qanday ahamiyatga ega?

8. Sizga kuchli ta’sir qilgan voqea haqida gapiring.

9. Spitamenning dushmanga qarshi qo‘llagan taktikasi va strategiyalaridan bugungi kun uchun qanday xulosa chiqarish mumkin?

10. Spitamenning qaysi fazilatlar va xususiyatlaridan qanday saboq va ibrat oldingiz?



# MIRZO ULUG'BEK

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....MIRZO ULUG'BEK

**MUALLIFI:** ..... MAQSUD SHAYXZODA

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Tragediya 1964-yili yozildi, o'sha yili asar Hamza teatri sahnasida namoyish etildi va keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi.

Mirzo Ulug'bek "oliy hukmdor", buyuk olim sifatida ko'p voqealarni o'z boshidan kechirgan tarixiy shaxs. Ushbu asarda, asosan, ikki yo'nalishdagi voqealar, ya'ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlar yoritilgan. Dramada Ulug'bek qiyofasi ko'proq asarlardagi obrazlar orqali: Ali Qushchi, Sakko-

kiy, Shayxulislom, Burhouddin, Chin, Hind, Farang, Rus elchilari va xorijlik talabalar bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat fidoyisi kabi xislatlar namoyon bo'ladi. Tragediyada vaziyatlar tezkor almashtirilib turadi: Tinchlik notinchlikka, osudalik tahlikaga, ilmparvarlik fitna-yu fasodga sabab bo'ladi. O'quvchi asar orqali Mirzo Ulug'bekka naqadar qiyin bo'lganligini qalban his qilishi mumkin.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Harbiy sohada faoliyat yurituvchilar uchun bu asar vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashi, mas’uliyat va burch hissini oshirishi, matonat va sabr-toqatni yuksaltirish va ijobiy fazilatlarini namoyon qilishi bilan ahamiyatga molik.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Dramada ilm-fan va hokimiyat orasidagi ziddiyat qanday tasvirlangan?
2. Asarda Mirzo Ulug‘bek obrazi orqali qanday tarixiy-badiiy g‘oyalar ilgari surilgan?
3. Ulug‘bekning fojiasi nimada va uning asosiy sabablari nimalardan iborat?
4. Asarda Ulug‘bekning o‘g‘li bilan minosabatlari qay tarzda ifodalangan?
5. Muallif Ulug‘bek shaxsini qanday badiiy vositalar bilan boyitgan?
6. Asarda sadoqat va xiyonat masalasi qanday talqin qilingan?
7. Sizningcha, drama nima sababdan fojia janriga oid?
8. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima qay tarzda uyg‘unlashtirilgan?
9. Asardagi ikkinchi darajali obrazlar va ularning asar syujetidagi o‘rni qanday?
10. Ota va farzand ziddiyatlariga sizning munosabatingiz qanday? Faqat o‘g‘ilni aybdor qilish, qoralash qanchalik to‘g‘ri?



# SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **SULTON JALOLIDDIN  
MANGUBERDI**

**MUALLIFI:** ..... **MAQSUD SHAYXZODA**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi tarixiy voqealar asosida yaratilgan bo‘lib, unda XIII asrda yashab o‘tgan buyuk sarkarda – Jaloliddin Manguberdingin jasorati va fojiaiy taqdiri tasvirlanadi. Asarda mo‘g‘ullar bosqini davridagi og‘ir siyosiy vaziyat, xalq boshiga tushgan kulfat va yurt ozodligi uchun olib borilgan kurash voqealari yoritiladi.

Drama Xorazm davlatining inqirozga yuz tutgan davridan boshlanadi. Ichki nizolar, amaldorlarning sustkashligi va ayrimlarning xiyonati mamlakatni yanada zaiflashtiradi. Ana shunday murakkab sharoitda Jaloliddin Manguberdi xalq himoyasi uchun maydonga chiqadi. U jasorat, qat’iyat va vatanparvarlik timsoli sifatida gavdalanadi. Qahramon uchun Vatan ozodligi shaxsiy manfaatlardan ustun turadi.

Asar davomida Jaloliddinning nafaqat jang

maydonidagi mardligi, balki uning ruhiy kechinmalari ham chuqur ochib beriladi. U otasi bilan qarama-qarshi fikrlari, amaldorlar bilan tortishuvlari va xalq oldidagi mas’uliyatini his etishi orqali murakkab ichki kurashni boshdan kechiradi. Muallif qahramon obrazida insoniylik, sadoqat va iroda kuchini ulug‘laydi.

Drama fojiaiy ruhda yakun topadi. Jaloliddin jismonan mag‘lub bo‘lishi mumkin, biroq ma‘nan yengilmaydi. Asarning asosiy g‘oyasi – Vatanga muhabbat, birlik va mardlik insonni buyuklikka olib chiqishi, xiyonat va qo‘rqoqlik esa xalq boshiga kulfat keltirishidir.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi o‘quvchini tarix saboqlaridan xulosa chiqarishga, ozodlik va milliy g‘ururni qadrlashga undaydigan yuksak ma‘naviy ahamiyatga ega asar hisoblanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi o‘quvchiga eng avvalo Vatan sha’ni va ozodlikni himoya qilishning oliy qadriyat ekanini o‘rgatadi. Jaloliddinning jasorati va qat’iyati shuni ko‘rsatadiki, har bir inson uchun eng muhim vazifa – o‘z xalqiga, yurtiga sodiq bo‘lishdir. Drama shaxsiy manfaat, qo‘rqoqlik va xiyonatdan ustun turadigan mardlik va jasorat timsolini ifodalaydi.

U og‘ir sinovlarda ham iroda bilan harakat qilish, qiyinchiliklarga dosh berish va mardona qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Shuningdek, asarda insoniylik, adolat, mas’uliyat va halollik kabi fazilatlar qadrlanadi, jismoniy mag‘lubiyat bo‘lishi mumkin, ammo ruhiy va ma’naviy taslimlik hech qachon maqbul emasligi ta’kidlanadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. XIII asrda Xorazmning siyosiy vaziyati va mo‘g‘ul istilosi inson hayotiga qanday ta’sir qilgani badiiy jihatdan asarda qanday ochib berilgan?

2. Jaloliddinning jasorat va iroda timsoli orqali muallif qanday milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini yaratadi?

3. Drama personajlarining ichki kechinmalari va monologlari qanday badiiy uslubda tasvirlangan?

4. Fojiaviy voqealar va tarixiy real voqealar o‘rtasidagi uyg‘unlik drama mavzusini qanday mustahkamlaydi?

5. Asarda sadoqat, xiyonat va qo‘rqoqlik masalalari qanday badiiy tarzda qarama-qarshi

qo‘yilgan va bu o‘quvchiga qanday ma’naviy sa-boq beradi?


6. Jaloliddinning ruhiy kurashlari va xalq oldidagi mas’uliyati orqali inson va taqdir munosabatiga qanday falsafiy mazmun berilgan?

7. Mo‘g‘ul istilosi va ichki nizolar dramatik ziddiyatni qanday kuchaytiradi?

8. Drama personajlari orqali milliy urf-odatlar va tarixiy meros qanday yoritilgan?

9. Asarda jasorat, mardlik va ruhiy bardoshlilik timsollari orqali inson kamoloti va ma’naviy o‘sish qanday badiiy ifodalangan?

10. Asar yakunida Jaloliddinning fojiaviy taqdiri va uning ruhiy yuksalishi o‘quvchiga qanday g‘oyaviy va ma’naviy xulosa beradi?



# JAYHUN USTIDA BULUTLAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... JAYHUN USTIDA  
BULUTLAR

**MUALLIFI:** .....MIRKARIM OSIM

**YOZILISHI:** .....LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” asari tarkibida buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hayotiga bag’ishlangan “Al-Beruniy” qissasi ham o’rin olgan bo’lib, unda olimning ilm-fan yo’lidagi zahmatli hayoti va fojiali taqdiri nihoyatda jonli tasvirlangan. Muallif Beruniyning nafaqat falakiyot, matematika va xarita tuzish ilmining sultoni, balki o’z e’tiqodi hamda haqiqat yo’lida sultonlar oldida ham bosh egmagan metin irodali shaxs sifatida namoyon etadi. Qissada Beruniyning Mahmud G’aznaviy saroyidagi murakkab hayoti, asirlikda ham ilm bilan mashg’ul bo’lishi va Hindiston safari davomida qilgan ulkan kashfiyotlari o’quv-

chi ko’z o’ngida namoyon bo’ladi. Olimning koinot sirlarini o’rganishi, Yer kurasining xaritasini chizishi va o’sha davrning eng aniq astronomik hisob-kitoblarini amalga oshirishi asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, asarda Beruniy va Ibn Sino kabi ikki buyuk dahoning yozishmalari orqali o’rta asrlar ilm-fani darajasi va olimlar o’rtasidagi samimiy do’stlik, ilmiy bahslar ham mahorat bilan yoritilgan. Mirkarim Osim olimning keksalik chog’idagi og’ir hayoti va ko’zi ojiz bo’lib qolgan bo’lsa-da, so’nggi nafasigacha kitob yozishdan to’xtamagani orqali ilmga bo’lgan cheksiz sadoqatni ko’rsatib bergan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Ushbu asar o‘quvchilarda ilmga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqni uyg‘otadi va bilim olish shunchaki ma‘lumot to‘plash emas, balki dunyoni anglash ekanini tushuntiradi. Beruniyning qiyin sharoitlarda, asirlikda bo‘lsa ham tadqiqotlarini to‘xtatmagani yoshlarga matonat va sabot darsini beradi. Shuningdek, asar o‘quvchilarda milliy g‘urur hissini shakllantirib, o‘z ajdodlari jahon tamadduniga qanday ulkan hissa qo‘shgani ni anglatadi.

Harbiy xizmatchilar uchun Beruniy siymosi, avvalo, yuksak intellektual salohiyat va strategik tafakkur namunasidir. Qissada Beruniyning har qanday vaziyatda ham o‘zligini yo‘qotmasligi, sultonlar oldida haqiqatni qo‘rqmay aytishi mardlik va botirlikning ma’naviy ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, asardagi tarixiy voqealar va harbiy yurishlar tasviri strategik vaziyatlarni tahlil qilishda ham foydali xulosalar beradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Beruniy asli qayerlik edi va u qaysi shaharda dunyoga kelgan?
2. Nima sababdan sulton Mahmud G‘aznaviy Beruniyini o‘z poytaxti G‘azna shahriga asir sifatida olib ketadi?
3. Beruniy va sulton Mahmud G‘aznaviy o‘rtasidagi munosabatlar nima uchun doim sovuq bo‘lgan?
4. Beruniy Hindistonga qilgan safari davomida mahalliy xalqlarning qaysi jihatlarini (til, din, odat) o‘rgandi?
5. Olim Yerning aylana ekanligini isbotlash uchun qanday o‘lchov ishlarini amalga oshirgan?
6. Beruniy va Ibn Sino bir-biriga xat yozganda, asosan, qaysi fanlar (fizika, astronomiya) bo‘yicha bahslashishgan?
7. Beruniy asarda qanday qilib koinotni va yulduzlar harakatini kuzatgan?
8. Sulton vafotidan keyin Beruniyning hayoti qanday o‘zgardi va yangi sulton unga qanday munosabatda bo‘ldi?
9. Beruniy umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, qanday qilib kitob yozishni davom ettirgan?
10. Beruniy vafoti oldidan shogirdidan so‘ragan oxirgi ilmiy masala nima haqida edi?



# XO'JAND QAL'ASI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... XO'JAND QAL'ASI

**MUALLIFI:** ..... MIRMUHSIN

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Xo'jand qal'asi” asari tarixiy-badiiy yo'nalishda yozilgan bo'lib, unda XIII asr boshlarida Movarounnahr hududiga bostirib kirgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi kurash voqealari tasvirlanadi. Asar markazida Temur Malikning jasorati va vatanparvarlik ruhi turadi.

Asarda jasorat, fidoyilik, vatan muhabbati va or-nomus g'oyalari ustuvor. Qahramon obrazi orqali muallif xalqning ozodlik ruhini, mustaqillik uchun kurashish g'oyasini ulug'laydi.

Qissa tarixiy voqealarga tayanadi, biroq badiiy tasvir va dramatik epizodlar orqali ularning ta'sirchanligi kuchaytirilgan. Bu qissa harbiy xizmatchi va askar uchun katta ahamiyatga egadir. Negaki, asarda vatanparvarlik ruhi bilan birgalikda turli jang usullari, qaltis holatlarda vaziyatdan chiqa olish, hushyorlikni qo'ldan bermaslik kabi harbiy taktikalar ham aks etgan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Qissa o‘quvchini tarixiy voqealarni eslashga emas, balki ulardan saboq olishga undaydi. Unda vatan ozodligi tasodifiy hodisa emas, balki fidoyilik va mardlik evaziga qo‘lga kiritiladigan oliy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan asar o‘quvchida mas‘uliyat hissini uyg‘otadi.

Ma’naviy jihatdan qissa insonni sinovli vaziyatlarda taslim bo‘lmaslikka, irodani saqlash-

ga va e‘tiqoddan chekinmaslikka chorlaydi. Temur Malik timsolida shaxsiy manfaat emas, balki umumiy manfaat ustuvor qo‘yiladi. Bu esa o‘quvchiga halollik, sadoqat va jasoratning haqiqiy qadrini his ettiradi. Asar insonni o‘z ildizlarini unutmaslikka, erkinlikning qadriga yetishga chorlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Temur Malik obrazi orqali muallif qanday axloqiy idealni ilgari suradi?

2. Qissa tarixiy voqeani qay darajada umumlashtirib, umuminsoniy mazmun kasb ettirgan?

3. Asarda shaxs va tarix munosabati qanday talqin etilgan?

4. Qal’a himoyasi epizodlari qanday kulminatsiyalarni yuzaga keltiradi?

5. Asar sujeti tarixiy xronologiyaga to‘liq bo‘ysunadimi yoki badiiy o‘zgarishlar mavjudmi?

6. Dushman obrazlariga tavsif bering.

7. Asardagi ramziy detallar (qal’a, daryo, qurol va boshqalar) qanchalik ahamiyat kasb etgan?

8. Jang sahnalari tasvirida real harakatlar kuchliroqmi yoki badiiy bo‘yoqdorlikmi?

9. Qissa tilining soddaligi va obrazlilikmi g‘oyaviy ta’sirchanlikni qay darajada oshiradi?

10. Asarni boshqa tarixiy asarlar bilan taqqoslab, umumiy va farqli jihatlarini tahlil qilish.

# FARG'ONA TONG OTGUNCHA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....FARG'ONA TONG OTGUNCHA

**MUALLIFI:** .....MIRZAKALON ISMOILIY

**YOZILISHI:** .....KIRILL VA LOTIN



## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Farg'ona tong otguncha asari insonni tarixdan saboq olishga, millat taqdiri uchun mas'uliyatni his qilishga va yurt tinchligining qadriga yetishga undaydi. Asarda xalqning og'ir sinovli davrlardagi irodasi, sabr-bardoshi va ozodlikka intilishi ta'sirchan badiiy obrazlar orqali yoritilgan. Muallif voqealarni shunchaki tasvirlabgina qolmay, inson ruhiyati, ichki kurash va milliy ongning uyg'onishini ham chuqur ochib beradi. Shu jihatdan, asar o'quvchini fikrlashga, mushohada qilishga va hayotga teran nazar bilan qarashga chorlaydi. Asarning qiymati Vatan taqdiri, el-yurt sha'ni

va milliy birlik g'oyasi ustuvor o'rin tutishi bilan baholanadi. Asardagi qahramonlarning jasorati, qat'iyati, fidoyiligi harbiy xizmatchilar, ayniqsa, yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir. U insonda burchga sadoqat, intizom, sabot va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi. Bir so'z bilan aytganda asar, inson qadri, milliy qadriyatlar, ota-bobolar merosi va yurt tinchligining ahamiyatini anglatuvchi ma'naviy maktab vazifasini o'taydi. Insonni befarqlikdan uzoqlashtirib, Vatan ravnaqi uchun daxldorlik hissini shakllantiradi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarning ta’sirchanligi, voqealarning hayotiyli-gi va milliy ruhning kuchli ifodalangani uning g’oyaviy ta’sirini, ma’naviy tarbiyaga qo’shadigan hissasini oshiradi. Bu kitob nafaqat badiiy asar si-fatida, balki ma’naviy-tarbiyaviy qo’llanma sifati-da ham katta ahamiyatga ega.

Asarda yurt ozodligi, millat birligi va inson qadri ustuvor g’oya sifatida talqin qilinadi. Muallif qah-ramonlar hayoti orqali xalqning erkinlikka intili-shi, mustamlakachilikka qarshi ma’naviy kurashi va milliy o’zlikni saqlab qolish g’oyasini ta’sirchan

yoritadi. U insonni faqat shaxsiy manfaat emas, bal-ki jamiyat va millat manfaati haqida ham o’ylashga undaydi. Bu esa yoshlarda fidoyilik, burchga sado-qat va yurt tinchligini asrash kabi muhim fazilatlar-ni tarbiyalaydi.

Asarda ma’naviy kuch, sabr-bardosh va iroda insonni har qanday qiyinchilikdan olib chiqishi mumkinligi g’oyasi ilgari suriladi. Shu bois kitob harbiy xizmatchilar uchun ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asardagi qahramonlarning Vatan va millat taqdiri uchun qilgan fidoyiligi o’quvchida burch va mas’uliyat hissini shakllantirishda qanday ahami-yat kasb etadi?

2. Asarda yoritilgan milliy birlik va xalq manfaati g’oyalari jamoaviylik, intizom, xususan, harbiy burch tuyg’usini tarbiyalashga qanday xizmat qiladi?

3. Asardagi og’ir tarixiy voqealar va xalq boshi-dan kechirgan sinovlar bugungi tinchlikning qad-riga yetishda qanday saboq beradi?

4. Qahramonlarning matonati va jasorati yosh-larda jangovar ruh hamda psixologik barqarorlikni shakllantirishda qanday o’rnak bo’ladi?

5. Milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat g’oya-lari haqida gapiring.

6. Asardagi voqealar asosida inson uchun intel-lektual rivojlanish va strategik fikrlashning aha-


miyatini qanday izohlash mumkin?

7. Qahramonlar oldida turgan murakkab tan-lovlar va qarorlar tezkor fikrlash, tahlil qilish va to’g’ri qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlanti-rishda qanday ahamiyatga ega?

8. Asarda insonparvarlik, sadoqat, halollik va sabr-bardosh kabi fazilatlar qanday yoritilgan va bu fazilatlarining harbiy xizmatchi uchun muhim-ligi haqida to’xtaling.

9. Bugungi kunda yoshlarni g’oyaviy tahdid-lardan asrash va ularda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asarning tarbiyaviy ahamiyati?

10. Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini saq-lash uchun harbiylar va yoshlar qanday ma’naviy, intellektual va jismoniy tayyorgarlikka ega bo’lishi lozim?



# ODAMIYLIK QISSASI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **ODAMIYLIK QISSASI**

**MUALLIFI:** ..... **MIRZAKALON ISMOILIY**

**YOZILISHI:** .... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Odamiylik qissasi” o‘zbek nasrida inson ma’naviyati, axloqiy poklik va vijdon masalalarini markazga qo‘ygan muhim asarlardan biridir. Asarda insonning jamiyatdagi o‘rni, uning ichki ruhiy olami va axloqiy mas’uliyati badiiy tasvir vositasida yoritiladi. Asarning dolzarbligi shundaki, unda ko‘tarilgan masalalar – halollik, adolat, mehr-oqibat, insoniylik – har qanday davr va jamiyat uchun muhimdir. Globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchaygan bugungi davrda asarning g‘oyaviy yo‘nalishi yanada ahamiyat kasb etadi.

Qissada insonning turli hayotiy vaziyatlardagi sinovlari tasvirlanadi. Qahramonlar murakkab axloqiy tanlov oldida qoladi. Ular moddiy manfaat, shaxsiy manfaat yoki vijdon o‘rtasida qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Voqealar rivoji davomida insonning haqiqiy qadr-qimmatini uning ichki olami, odamlarga munosabati, halolligi va sabr-toqati bilan belgilanadi. Muallif syujet orqali shuni ko‘rsatadiki, odamiylik insonning eng oliy sifatidir va u har qanday ijtimoiy mavqedan ustundir. Asarning bosh g‘oyasi – insoniylik barcha qadriyatlarning asosi ekanligidir.

Muallif quyidagi konseptual fikrlarni ilgari suradi:

- Vijdon – insonning ichki nazoratchisi.
- Halollik va adolat jamiyat taraqqiyotining poydevori.
- Insonning buyukligi uning lavozimi yoki boyligida emas, balki qalb pokligidadir.
- Odamiylik yo‘qolgan jamiyat ma’naviy inqirozga uchraydi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar o‘quvchiga axloqli, vijdonli va halol bo‘lishni o‘rgatadi. Asarda farzandning ota-ona oldidagi burchlari tasvirlab berilgan. Adolatli bo‘lishni va odamiylikni targ‘ib etadi.

Asar harbiylarga Vatanga sadoqatli va insonlarga hurmatda bo‘lishni, halol va o‘z kasbiga sadoqatli hamda shaxsiy manfaatni emas, balki jamiyat manfaatini ustun qo‘yish va o‘z burchini sidqidildan ado etish zarurligini anglatadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Odamiylik” tushunchasi asarda qanday talqin etilgan?

2. Muallif vijdon masalasini qanday yoritgan?

3. Asarda jamiyat va shaxs munosabati qanday tasvirlangan?

4. Muallif go‘zallik tushunchasiga qanday ta’rif beradi?

5. *Mansab bilan balandmas odam,  
Mansab odam bilan muhtaram.*

Asarda keltirilgan ushbu so‘zlar kimning qalamiga mansub?

6. Muallif axloqli kishilarni va axloq yo‘lidan toygan kishilarni qanday ta’riflaydi?


7. Farzandning ota-ona oldidagi burchlari qanday namoyon bo‘lgan?

8. Asarda maktub yozgan qizning ismi nima edi?

9. *Agar yerga ursa ota nomini  
Kech unday o‘g‘ildan, dema ismini.*

Ushbu satrlar muallifi kim?

10. Asar g‘oyasi zamonaviy jamiyatda qanday ahamiyat kasb etadi?



# LOLAZOR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **LOLAZOR**

**MUALLIFI:** ..... **MUROD MUHAMMAD  
DO'ST**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani XX asr oxiridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni, ayniqsa, sovet davrining inqiroz pallalarini badiiy-falsafiy ruhda aks ettiradi. Asarda markaziy e'tibor insonning ichki olami, uning vijdoni, xotiralari va ruhiy iztiroblariga qaratilgan.

Roman voqealari tashqi dramatik hodisalardan ko'ra ko'proq qahramonning ichki kechinmalari, xotira va tafakkur oqimi orqali ochiladi. Asarda jamiyatlardagi ma'naviy yemirilish, ikkiyuzlamachilik, manfaatparastlik kabi

illatlar fonida shaxsning o'zligini saqlab qolish masalasi ilgari suriladi. Qahramonlar o'z hayoti, tanlovi va o'tmishi bilan yuzma-yuz keladi, ularning ruhiy izlanishlari asarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

"Lolazor" nomi ramziy ma'noga ega: u go'zallik va poklik timsoli bo'lish bilan birga, o'tkinchilik va fojialilikni ham anglatadi. Shu jihatdan roman inson umrining ma'nosi, e'tiqod va xotira qadri, ma'naviy tanazzulga qarshi ichki kurash haqida mushohada yuritadi.




# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Roman o‘quvchini inson va xotira munosabatini o‘ylashga majbur qiladi. O‘tmishdan qochish mumkin emasligi, aksincha, uni anglash va tan olish orqaligina ruhiy poklanish yuz berishi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu o‘quvchiga o‘z hayoti va tanlovlariga tanqidiy nazar tashlash sabog‘ini beradi. Qahramonlarning ichki kechin-

malari shuni ko‘rsatadiki, insonning eng katta yangi tashqi emas, ichki kurashdir, negaki inson, avvalo, o‘z ruhiy olamiga quloq tutishi kerak. Asarda go‘zallik va fojialilik yonma-yon ifodalanadi. O‘quvchi haqiqatni qabul qilish orqali ma’naviy yetuklik sari qadam qo‘yadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi munosabat qay tarzda ifoda etilgan?
2. Shaxsning ichki inqirozi jamiyatdagi ma’naviy tanazzul bilan qanday bog‘langan?
3. Roman g‘oyasida o‘zlikni anglash jarayoni qanday bosqichlarda namoyon bo‘ladi?
4. Ikkilamchi obrazlar bosh qahramonning ruhiy dunyosini ochishda qanday vazifa bajar-gan?
5. Qahramonlarning ichki nutqi va tashqi xatti-harakatlari o‘rtasidagi tafovut nimani anglatadi?
6. Muallifning yashirin pozitsiyasi qaysi ba-diyy vositalar orqali namoyon bo‘lgan?
7. Qahramonning o‘z-o‘zini tahlil qilishi o‘zini oqlashmi yoki o‘zini fosh etish jarayo-nimi?
8. Yaxshiboyevning ayollarga bo‘lgan mu-nosabatida xarakterining qaysi qirralari aks et-gan?
9. Asardan an’anaviy sujetdan chekinish ho-latlari kuzatilgan o‘rinlarni toping.
10. Asarni ijtimoiy-psixologik roman sifatida baholang.



# TEMURBEK

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... TEMURBEK

MUALLIFI: ..... MUHAMMAD ALI


YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Temurbek – Amir Temurning bolaligi va o'smirlik davri haqida yozilgan tarixiy asardir. Asarda Temurbekning aqlli, jasur va ilmga chanqoq yigit bo'lib shakllanishi, kelajakda buyuk davlat arbobi bo'lishga tayyorgarligi badiiy tarzda tasvirlangan.

Muallif o'sha davr muhiti, Movarounnahrdagi siyosiy hayot va Temurbek tarbiyasiga ta'sir qilgan insonlarni ham yoritadi. Bu asar Amir Temurning bolaligi haqida yozilgan ilk badiiy kitoblardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Muhammad Ali Amir Temur va Temuriylar davri haqida boshqa tarixiy asarlar ham yaratgan bo'lib, ularda o'sha davr tarixi, davlatchilik va buyuk shaxslar hayoti keng tasvirlangan. Asar yoshlarda vatanparvarlik, jasorat va tarixga hurmat tuyg'ularini tarbiyalaydi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar orqali o‘quvchi Amir Temurning faqat buyuk sarkarda emas, balki yoshligidanoq intizomli, bilimga chanqoq, irodali va Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan inson sifatida shakllanganini ko‘radi.

Asarning asosiy g‘oyalardan biri insonning buyuklikka mehnat, sabr, bilim va qat’iyat orqali erishishidir. Temurbek obrazi yoshlarni maqsad sari intilishga, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikka va mas’uliyatni his qilishga undaydi. Shu bilan birga, asarda yurt tinchligi, xalq birligi va adolat g‘oyalari ham muhim o‘rin egallaydi.

Ayniqsa, harbiylar uchun asarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Chunki kitob: Vatanga sadoqat va

xizmat tuyg‘usini kuchaytiradi; Intizom, matonat va jasorat fazilatlarini targ‘ib qiladi; Qo‘mondon uchun zarur bo‘lgan strategik fikrlash va vaziyatni to‘g‘ri baholash muhimligini ko‘rsatadi; Qiyin sharoitlarda ham irodani yo‘qotmaslikka o‘rgatadi; Jamoa va askarlar oldida mas’uliyatni his qilish g‘oyasini singdiradi.

Asarda Temurbekning yoshligidanoq ot chopish, jang san’ati, kuzatuvchanlik va yetakchilik qobiliyatlariga e’tibor qaratilgani harbiy kasb egalari uchun ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Shu sababli asar na-faqat tarixiy-badiiy kitob, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham qadrlanadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Temurbek” asarida Temurbekning bolalik tarbiyasi uning keyingi qo‘mondonlik fazilatlariga qanday ta’sir ko‘rsatgan? Asardan misollar keltirib izohlang.

2. Asardagi qaysi voqealar Temurbekning strategik fikrlash qobiliyati yoshligidanoq shakllanganini ko‘rsatadi? Bu jihat zamonaviy harbiy uchun nega muhim?

3. Amir Temur obrazida yetakchilik va intizom qanday uyg‘unlashgan? Bu xususiyatlar harbiy xizmatda qanday ahamiyat kasb etadi?

4. Asarda Vatan va xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish g‘oyasini bolalikdan shakllantirish qay tarzda ochib berilgan?

5. Temurbekning qiyinchiliklarga munosabati va muammolarni hal etish usulidan zamonaviy kursant qanday xulosa chiqarishi mumkin?


6. Asardagi ustoz-shogird munosabatlari Temurbekning shaxs sifatida kamol topishida qanday o‘rin tutgan? Buni harbiy ta’lim tizimida qanday amalga oshirish mumkin?

7. Muallif Muhammad Ali Temurbek obrazi orqali yoshlarda qanday ma’naviy va mafkuraviy g‘oyalarni shakllantirishni maqsad qilgan?

8. Asardagi jismoniy tayyorgarlik, sabr va iroda mavzulari harbiy xizmatchilar uchun qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?

9. Temurbekning atrofidagi insonlarga munosabati va jamoani boshqarish uslubidan harbiy rahbar qanday saboq olishi mumkin?

10. Sizningcha, Temurbek nega bugungi kunda ham harbiy litsey kursantlari va harbiy xizmatchilar uchun dolzarb asar hisoblanadi? Kitobni boshqalarga tavsiya qilish uchun 3 ta sabab ayting.



# ULUG' SALTANAT

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **ULUG' SALTANAT**

**MUALLIFI:** ..... **MUHAMMAD ALI**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN  
ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali qalamiga mansub "Ulug' saltanat" asari o'zbek adabiyotidagi birinchi roman-epopeya bo'lib, u bevosita Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari faoliyatiga bag'ishlangan. Asar to'rt yirik kitobdan ("Jahongir mirzo", "Umarshayx mirzo", "Mironshoh mirzo", "Shohruh mirzo") iborat va 1370–1409-yillardagi qariyb qirq yillik shonli tarixni qamrab oladi. Garchi asarda Sohibqironning butun hayoti, tarqoq o'lkalarni yagona markazlashgan davlat ostida birlashtirishi va jahongirlik yurishlari to'liq yoritilgan

bo'lsa-da, uning eng muhim va haybatli qismlaridan biri – Amir Temurning umri oxirida rejalashtirgan ulkan Xitoy yurishi hisoblanadi. Yozuvchi qahraton qish sharoitida yuz minglab muntazam qo'shinning Utror tomon bexato va tartibli harakatlanishini, armiyaning harbiy-logistik ta'minoti va harakat taktikasini real tarixiy dalillar asosida jonlantirgan.

Asarda harbiy yurishlardan tashqari ulug' sarkardaning nozik psixologiyasi, ruhiy kechinmalari va beqiyos davlat boshqaruvi tizimi o'zining yorqin in'ikosini topgan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Mazkur asar harbiy xizmatchilar, ofitserlar va qo‘mondonlik tarkibi uchun chinakam harbiy strategiya, taktika va boshqaruv san‘ati maktabidir. Asarni o‘qigan har bir harbiy Amir Temur timsolida shunchaki jangchi emas, balki uzoqni ko‘ruvchi, har bir qadamini, ta‘minotni va ehtimoliy xavflarni oldindan hisob-kitob qiladigan mukammal analitik-strategni kashf etadi. Ayniqsa, asardagi Xitoy yurishiga ko‘rilgan tayyorgarlik epizodlari harbiy-

larga yirik qo‘shinni muvofiqlashtirish, ta‘minot logistikasini yo‘lga qo‘yish va qattiq intizomni saqlash bo‘yicha amaliy dars bo‘la oladi. Eng asosiysi, “Ulug‘ saltanat” vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirib, harbiy xizmatchilar qalbida yengilmas ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini uyg‘otadi va qanday murakkab sharoit bo‘lmasin, Vatanga sadoqat hamda qat‘iy iroda bilan har qanday to‘siqni yengib o‘tish mumkinligini uqtiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasi qaysi tarixiy davrni o‘z ichiga oladi va uning tarkibidagi to‘rtta kitob qanday nomlanadi?

2. Asarda Amir Temurning kuchli va intizomli muntazam armiya barpo etishdagi harbiy islohotlari qanday tasvirlangan?

3. Sohibqironning Xitoy yurishiga ko‘rgan tayyorgarligi asarda harbiy logistika va qo‘shin ta‘minoti nuqtayi nazaridan qay tarzda yoritilgan?

4. Qo‘shin ichida temir intizomni saqlash va jang oldi ruhiy bosimni yengib o‘tish uchun Amir Temur qanday psixologik chora-tadbirlar qo‘llangani ko‘rsatilgan?

5. Asardagi qaysi aniq epizodlar Amir Temurning juda kuchli razvedka va axborot yig‘ish tizimiga tayanganini isbotlaydi?

6. Yozuvchi asar davomida Bosh qo‘mondon


(Amir Temur) va uning qo‘l ostidagi sarkardalar o‘rtasidagi bo‘ysunuv va sadoqat munosabatlarini qanday ochib bergan?

7. Asarda tasvirlangan yirik janglarda qo‘llanilgan harbiy taktikalar (pistirma, qanotlardan zarba berish) va ularning natijalari qanday tahlil qilingan?

8. Roman qahramonlari, xususan, Jahongir mirzo va Umarshayx mirzolarining harbiy operatsiyalardagi bevosita ishtiroki qanday yoritilgan?

9. Xitoy yurishi arafasida yuz bergan qahraton qish va tabiat injiqliklariga qarshi ulkan qo‘shinning harakati asarda qanday mahorat bilan tasvirlangan?

10. Ushbu roman-epopeya bugungi kun ofitseri va harbiy xizmatchilarida qanday professional (taktik, strategik) va ma‘naviy (vatanparvarlik) sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi?



# MUHAMMAD YUSUF: SAYLANMA

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** ..... **SAYLANMA**

**MUALLIFI:** ..... **MUHAMMAD  
YUSUF**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning mazkur to'plamlari o'zining beqiyos soddaligi, hayotiyliigi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda shoir Vatan, vatanparvarlik, orzu qilish, yoshlik havaslari, insoniy fazilatlar, mehr-muhabbat mavzularini mahorat bilan xalqona tilda yoritgan. Qalamkash satrlarida qishloqning beg'ubor manzaralari, zahmatkash o'zbek ayoli, ona tuproqning muqaddasligi va sof muhabbat o'zgacha lirik harorat bilan tarannum etiladi. Uning yurakdan to'kilgan bu jozibador doston va she'rlari el orasida sevib o'qiladi, juda ko'plab misralari esa qalbgaga yaqin ohanglar bilan xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Mutolaa jarayoni o‘quvchining botiniy olamini yuksaltirib, unga o‘zgacha estetik zavq baxsh etadi. Kitobxon bu yorqin va hayotiy asarlar vositasida insoniy tuyg‘ular haqida sodda tasavvurlar shakllantiradi hamda vatanparvarlik va boshqa tuyg‘ularning asl mohiyatini chuqur anglaydi.

Yurt madhi kuylangan bu she‘riyat chinakam ruhiy tayanch hisoblanadi. Shoirning asarlarida Vatan, vatanparvarlik, orzu qilish, insoniy fazilat-

lar kabi mavzularning mahorat bilan xalqona tilda yoritilganligi askarlarni ma‘nan toblaydi. Harbiy xizmatchilar she‘riyatdan estetik zavq oladi hamda insoniy tuyg‘ular haqida sodda tasavvurlar, vatanparvarlik va boshqa olijanob tuyg‘ularning asl mohiyatini anglab yetadilar. Shoirning olovli misralari armiya saflarida qasamyodga sadoqat ruhini, shijoat va Vatanni har qanday sharoitda sevishtuyg‘usini yanada kuchaytiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Shoir asarlarida Vatan, vatanparvarlik, orzu qilish va yoshlik havaslari kabi mavzular qanday betakror badiiy vositalar va xalqona til yordamida yoritilgan?

2. Muhammad Yusuf she‘riyatida ulug‘langan yuksak insoniy fazilatlar hamda mehr-muhabbat mavzulari kitobxonning estetik didiga qay tarzda ta‘sir ko‘rsatadi?

3. To‘plamlarda jo‘shqin lirik kechinmalar orqali tarannum etilgan ona Vatan timsoli harbiylarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qanday xizmat qiladi?

4. Shoirning “Uyqudagi qiz” va boshqa she‘rlarida ko‘tarilgan dard va fojialar lirik qahramon ruhiyati orqali qanday ochib berilgan?

5. Asarni mutolaa qilgan kitobxonda shakllanadigan insoniy tuyg‘ular haqidagi sodda tasavvurlar uning dunyoqarashini va hayotga munosabatini qanday boyitadi?

6. Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va ma‘naviy tayyorgarligini oshirishda xalqchil she‘riyatning, xususan, Muhammad Yusuf ijodining amaliy ahamiyati nimada?

7. Shoir asarlaridagi she‘riy ritm va so‘zlarning soddaligi kitobxonga qanday noyob estetik zavq taqdim etadi?

8. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida “O‘zbekiston”, “Vatan” kabi tushunchalar zamirida yotgan vatanparvarlik va boshqa tuyg‘ularning asl mohiyatini qanday anglab yetadi?

9. Muhammad Yusufning shaxsiy xotiralari hamda insoniy mehr-oqibat mavzularini ko‘tarib chiqqan qaysi asarlari yoshlar tarbiyasi uchun ibratli sanaladi?

10. Shoir o‘zining she‘riy satrlari va xalqona tili orqali qanday qilib o‘quvchining yuragiga yo‘l topadi va uni chinakam inson bo‘lishga chorlaydi?



# URUSH ODAMLARI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **URUSH ODAMLARI**

**MUALLIFI:**.....**NAZAR ESHONQUL**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasi Ikkinchi jahon urushi davridagi xalqning og’ir turmushi, ruhiy va jismoniy azoblarini bir oila misolida yoritadi.

Asarda urushning ayanchli oqibatlari, yaqinlaridan ayrilish, ochlik va qo’rquv ostida yashayotgan insonlar taqdiri, shuningdek, Normat ismli bosh qahramon xarakterining o’zgarishi orqali urushga nafrat tuyg’usi tasvirlanadi. Urush nafaqat jang maydonidagi balki orqada qolgan odamlarning hayotini ham parokanda qiladi.

Qahramonlar (ayollar, bolalar, keksalar) har kuni o’lim xabari, ochlik va qo’rquv bilan yashashadi. Asar bosh qahramoni Normatning urush tufayli kechinmalari, ruhiy dunyosidagi dinamika va o’zgarishlar tahlil qilinadi.

Urushda hech kim g’olib bo’lmaydi, har qanday g’alaba qon va ko’z yosh evaziga kelishi asarning asosiy g’oyasidir. “Urush odamlari” qissasi insoniyat boshiga tushgan fojialarni xotirlash va tinchlikning qadriga yetishga chorlovchi ta’sirli asardir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi uchun bu asar “shafqatsiz mahorat darsi” bo‘lib xizmat qiladi. Tarixga boshqacha nigoh bilan qarashni o‘rgatadi. O‘quvchi urushni faqat “g‘alaba” va “shon-sharaf” deb emas, balki insoniyatning eng katta xatosi va fojiasi sifatida ko‘rishni o‘rganadi. Ma’naviy hushyorlikni oshiradi. Asar o‘quvchini “Inson o‘zligini qanday yo‘qotib qo‘yishi mumkin?” degan savol ustida o‘ylashga majbur qiladi. Bu o‘quvchida mustahkam axloqiy immunitet shakllantiradi. Haqiqatni yolg‘ondan ajratishni o‘rgatadi.


Harbiy xizmatchi uchun bu asar professional va ruhiy “ogohlantirish” vazifasini o‘taydi:

Harbiy faqat qurol ishlatishni emas, balki eng og‘ir vaziyatda ham insoniylikni saqlab qolish katta jasorat ekanini anglaydi. Asar harbiyga urushdan qaytgan odamlarning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi. Bu kelajakda askarlar bilan ishlashda muhim bilimdir. Qurol ko‘targan insonning har bir harakati uning vijdoniga umrbod muhrlanishi asarda yaqqol ko‘rsatilgan. Bu harbiylarda o‘z qasamyodiga va insoniy burchiga chuqur mas‘uliyat bilan qarashni shakllantiradi. Harbiy xizmatchi haqiqiy kuch faqat jismoniy emas, balki ruhan sog‘lom va vijdonan pok bo‘lishda ekanini tushunadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarning bosh qahramoni Normat urush yillarida necha yoshda edi?
2. Normatning otasi qayerda va qanday holatda vafot etadi?
3. Urush qishloq odamlarining ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
4. Asarda qaysi fasl va uning qiyinchiliklari ko‘p tasvirlanadi?
5. Normatning onasi obrazida o‘zbek ayollarining qaysi xislatlari namoyon bo‘ladi?

6. Qishloqqa kelgan “qora xat” (shum xabar)lar odamlar orasida qanday muhitni yuzaga keltirar edi?
7. Normatning bobosi Eshon bobo qishloqdoshlariga qanday taskin berardi?
8. Asardagi ochlik manzaralari qaysi epizodlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi?
9. Normatning urush haqidagi tasavvurlari asar boshida va oxirida qanday farqlanadi?
10. Muallif nega asarni aynan “Urush odamlari” deb nomlagan?



# SIYOSATNOMA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....SIYOSATNOMA

**MUALLIFI:** .....NIZOMULMULK

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Siyosatnoma” – buyuk davlat arbobi va vazir Nizomulmulk tomonidan yozilgan siyosiy-falsafiy asardir. Asar Saljuqiylar davlati hukmdori Malikshohga bag'ishlab yozilgan bo'lib, unda davlat boshqaruvi, adolatli hukmdor fazilatlarini, amaldorlarning vazifalari va jamiyatni tartibga solish masalalari keng yoritilgan.

Asar 50 bobdan iborat bo'lib, har bir bobda davlatni boshqarishning muhim tamoyillari bayon qilinadi. Nizomulmulk hukmdorni adolatli, dono, xalqparvar va mas'uliyatli bo'lishga chaqiradi. U davlat mustahkamligi adolat va tartib-intizomga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

“Siyosatnoma”da soliq siyosati, qo'shin tuzilishi, sud ishlari, mansabdorlarni tanlash, fitna va isyonlarning oldini olish kabi masalalar aniq misollar bilan tushuntiriladi. Muallif tarixiy voqealar va rivoyatlar orqali o'z fikrlarini mustahkamlaydi. Asarda adolatsiz hukmdor va poraxo'r amaldorlarning oqibatlarini ham keskin tanqid qilinadi.

Nizomulmulkning asosiy g'oyasi shundan iboratki, davlat boshqaruvida eng muhim omil adolatdir. Agar hukmdor adolatli bo'lsa, xalq farovon yashaydi, davlat mustahkam bo'ladi. Agar zulm kuchaysa, davlat inqirozga yuz tutadi.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI


O‘quvchiga asar adolat, mas’uliyat, halollik va tartib-intizom g‘oyalarini singdiradi. Boshqaruvda dono qaror qabul qilish, vazifani sidqidildan bajarish va jamiyat manfaatini ustun qo‘yish zarurligini anglatadi.

Harbiy xizmatchida intizom, sadoqat, buyruqqa hurmat, davlat manfaatini himoya qilish kabi tamoyillarni mustahkamlaydi. Asar boshqaruv va itoat o‘rtasidagi muvozanatni tushunishga yordam beradi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Nizomulmulk adolatli hukmdor fazilatlarini qanday talqin etadi?
2. Asarda davlat boshqaruvidagi adolatning o‘rni qanday ko‘rsatilgan?
3. Muallif tarixiy misollar orqali qanday xulosalar chiqaradi?
4. Amaldorlarni tanlash masalasi qanday yoritilgan?
5. Asarda zulm va adolatsizlikning oqibatlari qanday tasvirlangan?
6. “Siyosatnoma”ning bugungi davlat boshqaruvidagi ahamiyati qanday?
7. Asarda xalq va hukmdor o‘rtasidagi munosabat qanday talqin etilgan?
8. Intizom va tartib masalasi qanday asoslangan?
9. Muallifning nasihat uslubi qanday xususiyatlarga ega?
10. Asar Sharq siyosiy tafakkuri rivojida qanday o‘rin tutadi?



# ULUG'BEK XAZINASI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **ULUG'BEK XAZINASI**

**MUALLIFI:** ..... **ODIL YOQUBOV**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinasini” romani tarixiy-badiiy yo’nalishda yozilgan bo’lib, unda XV asr Movarounnahr hayoti, ilm-fan taraqqiyoti va saroy ichidagi siyosiy kurashlar tasvirlanadi. Qahramon hayotini kuzatar ekanmiz, eng katta “xazina” boylik emas, balki ilm va ma’rifat ekanligi anglaymiz. Biroq asarda ilm-ma’rifat yo’lidagi sa’y-harakatlar saroydagi hasad, siyosiy va diniy mutaassib kuchlar bilan to’qnashishi natijasida fojialar yuz beradi. Ilm va jaholat, ma’rifat va mu-

taassiblik, vijdon va hokimiyat o’rtasidagi ziddiyat asosiy g’oya sifatida ochiladi.

Asarda nafaqat ilm-fan, balki davlat boshqaruvi va strategik tafakkur masalalari ham yoritiladi. Shu jihatdan roman harbiylar uchun bir necha muhim ma’naviy va kasbiy saboqlarni beradi. Shuningdek, harbiy intizom, birlik va ishonchning naqadar muhim ekanligini, harbiy tuzumda ichki parokandalik tashqi dushmandan ham xavfliroq bo’lishi mumkinligini bilvosita ifodalaydi.




# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Odil Yoqubov ushbu roman orqali ilm-fan, adolat va vijdon masalalarini tarixiy voqealar fonida teran badiiy talqin etadi. Qahramonning fojiaiy taqdiri o‘quvchiga shuni anglatadiki, ma’rifat yo‘li doimo oson emas, lekin u insonni tarixda abadiy qoldiradi. Shu jihatdan roman o‘quvchini prinsipial-

lik, halollik va e’tiqodga sodiqlik ruhida tarbiyalaydi. Haqiqiy xazina – oltin yoki boylik emas, balki ilm va tafakkurdir. Har bir inson o‘zining tarixiy xotira oldidagi mas’uliyatini teran his qilishi, vijdonning amriga quloq solishi, tarixiy merosni qadrlashi, e’tiqodida sobit turishi lozimdir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Roman markazida qanday tarixiy va ma’naviy muammo turadi?
2. Asarda ilm va hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyat qanday ochib berilgan?
3. Qahramon obrazi hukmdor va olim sifatida qanday ichki kurashni boshdan kechiradi?
4. Asardagi salbiy qahramonlar qanday ijtimoiy va ma’naviy illatlarni ifodalagan?
5. Muallif til va uslub jihatdan qanday badiiy vositalardan foydalangan?
6. Asarda adolat va xiyonat tushunchalari qanday qarama-qarshi qo‘yilgan?
7. Muallif tarixiy shaxslarni real tasvirlaganmi yoki ideallashtirganmi?
8. Asarda tarixiy makon va zamon tasviri voqealari dramatismni kuchaytirishda qanday rol o‘ynaydi?
9. Asardagi ayol obrazlarining roman kulminatsiyasiga bo‘lgan ta’sirini izohlang.
10. Roman yakunidagi fojiaiy yechim o‘quvchiga qanday estetik ta’sir ko‘rsatadi?



## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....DIYONAT

**MUALLIFI:** ..... ODIL YOQUBOV

**YOZILISHI:** .....LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Diyonat” romani shaxs vijdoni bilan ijtimoiy muhit o’rtasidagi keskin ziddiyatni badiiy-falsafiy talqinda ochib beruvchi asardir. Roman voqealari sovet davri ma’naviy-axloqiy inqirozi va prinsipial, halollikni hayot mezonini deb bilgan ziyoli inson taqdiri haqida.

Asarda bosh qahramon jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, mansabparastlik va manfaatparastlik illatlari bilan to’qnash keladi. U uchun “diyonat” – shunchaki axloqiy tushuncha emas, balki yashashning asosi, ya’ni insoniylikning bosh mezonidir. Shu bois u muhit talab qilayotgan murosa va moslashuv yo’lini tanlamaydi.



Natijada tashqi ijtimoiy ziddiyat ham kuchayadi. Qahramon jamiyat bilan emas, ba’zan o’z shubhalari va iztiroblari bilan ham kurashadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Ushbu roman o‘quvchini, avvalo, axloqiy tanlov muammosi ustida o‘ylashga majbur qiladi. Asar shuni anglatadiki, insonning haqiqiy qadri uning mansabi yoki mavqeyida emas, balki vijdoni pokligidadir. Shu ma’noda roman o‘quvchiga ma’naviy ozuqa beradi hamda murakkab sharoitda ham halollikni saqlash zarurligini o‘rgatadi.

Asarning g‘oyaviy ozuqasi shaxs va jami-

yat munosabatini teran anglashga undashi bilan belgilanadi. O‘quvchi bosh qahramon timsolida ijtimoiy bosim, manfaatparastlik va murosala talab qiluvchi muhit qarshisida turishning naqadar murakkab, ammo zarur ekanini ko‘radi. Bu asarni o‘qigan harbiy xizmatchi va askar esa vatan oldidagi burchini bajarish uchun nafaqat jismonan kuchli, balki vijdoni pok va diyonatli bo‘lishi kerakligini anglaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Roman sarlavhasidagi “Diyonat” tushunchasi axloqiy shaxsiyatni ifodalaydimi yoki falsafiy-estetik jihatdan talqin etiladimi?

2. Asarda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat qanday ijtimoiy-tarixiy sharoit orqali ochib berilgan?

3. Roman g‘oyasidagi “vijdon” va “manfaat” qarama-qarshiligi qanday badiiy tizim orqali ifodalangan?

4. Obrazlar tizimidagi ramziylik belgilarini ifodalang.

5. Til va uslubda publististik ruhning mavjudligi roman janriga qanday ta’sir qiladi?

6. Ayol obrazlari romanni boyitishga qanchalik xizmat qilgan?

7. Asardagi o‘zbek xonadoniga xos qadriyat va an’analar tasvirlangan o‘rinlarni sharhlab bering.

8. Ilmsizligini tan olishni istamaydigan va buni ustomonlik bilan “xaspo’shlaydigan” qahramonlar xarakteriga munosabat bildiring.

9. Vatan uchun jang qilib shahid ketgan, oriyatli qahramon nomi sharaflangan epizodlar asarga qay darajada ta’sir qilgan?

10. Asarni shu yo‘nalishda yozilgan boshqa asarlar bilan taqqoslang.



# LIDERLAR KITOBI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **LIDERLAR KITOBI**

**MUALLIFI:** ..... **OTABEK XASANOV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu asarda juda ko'p yangi g'oyalar, hayotga teran nazar bilan qarash, g'oliblikka intilish, saodat va komillik uchun dadil qadam tashlash, jasurlik va mardlik kabi insoniy fazilatlarni o'zida shakllantirish, Vatan rivojiga, uning iqtisodini yuksaltirishga astoydil kirishish, aql-zakovatni, ilmni har qanday ishdan ustun qo'yish kabi holatlar mujassam bo'lgan. Lider degani, avvalo, doimo o'z ustida ishlaydigan va o'zgalarga yordam qo'lini cho'zadigan insondir.

Kitobning markaziy g'oyasi – liderlik faqat tug'ma qobiliyat emas, balki tinimsiz mehnat va o'z ustida ishlash natijasida shakllanadigan mahorat ekanini ko'rsatishdir. Muallif yetakchilikni nafaqat martaba, balki jamiyat va Vatan oldidagi yuksak mas'uliyat sifatida talqin qiladi. Kitobda muvaffaqiyatga erishishning bir necha muhim jihatlari tahlil qilingan:

G'oliblik psixologiyasi – hayotga teran nigoh bilan qarash va yuksak maqsadlar sari dadil qadam tashlash.

Ma'naviy komillik – jasorat, matonat va insoniy fazilatlarni shakllantirish.

Bilim va tafakkur – ilmni va aql-zakovatni har qanday moddiy boylikdan ustun qo'yish zarurati.

Amaliy misollar – tarixiy shaxslar va zamonaviy liderlarning hayotiy tajribalari, qaror qabul qilish san'ati.

Kimlar uchun mo'ljallangan? Ushbu asar quyidagi kitobxonlar qatlami uchun foydali manba hisoblanadi: Davlat xizmatchilari va boshqaruv sohasida ishlovchi mutaxassislar. Tadbirkorlar va o'z karyerasida yuqori natijalarga erishmoqchi bo'lganlar. Yoshlar va talabalar, ya'ni kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishni istagan intiluvchan qatlam.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Oddiy o‘quvchi uchun bu kitob shaxsiy samaradorlik darsligidir. Maqsadni aniqlashtirish: “Shunchaki yashash”dan “maqsadli yashash”ga o‘tishni o‘rgatadi. Vaqtni boshqarish: Har bir daqiqani ilimga va foydali ishga sarflash ko‘nikmasini beradi. Komplekslardan qutulish: Inson o‘z ustida ishlash orqali har qanday cho‘qqini zabt eta olishiga ishonch uyg‘otadi. Mutolaa madaniyati: Qanday kitob o‘qish va undan qanday xulosa chiqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Harbiy soha vakillari uchun bu asar qo‘mondonlik ruhiyati va strategik tafakkur manbayidir. Qat’iyat va Intizom: Harbiy xizmatda temir inti-


zom birlamchi. Kitob bu intizomni majburiyat emas, balki ichki ehtiyojga aylantirishga yordam beradi.

Mas’uliyat va Jasorat: Jangovar vaziyatlarda yoki xizmat burchini bajarishda qaror qabul qilish qo‘rquvini yengish va natija uchun javobgarlikni bo‘yiniga olishni o‘rgatadi. Shaxsiy namuna: Harbiy lider o‘z qo‘l ostidagilariga faqat buyruq bilan emas, balki o‘zining bilimi, axloqi va jasorati bilan o‘rnak bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Vatanparvarlik falsafasi: Qasamyodga sodiqlikni quruq so‘zlarda emas, balki kundalik xizmatdagi fidoyilikda ko‘rsatish g‘oyasini mustahkamlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda “Tirishqoq Yun Su” maqolatining mantiqiy davomi deb qaysi maqolat nazarda tutilgan?
2. “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan so‘zlar kim tomonidan aytilgan?
3. Jamoani yagona maqsad sari birlashtira oladigan, xodimlarni eshita oladigan, uzoqni ko‘ra oladigan muhim shaxs deb kimni aytgan?
4. “Bir dona mix” maqolatini gapirib bering.
5. Hayotingizni o‘zgartira olishingiz mumkin bo‘lgan 6 ta saboq?
6. Bryus Lldan yetti maslahat mazmuni haqida gapiring.

7. “Shijoatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi” so‘zlari kimga tegishli?
8. Maktab, institut va ishda kadrda 3 ta narsa o‘rgatiladi. Bular qaysilar?
9. “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, ozmi-ko‘pmi tadbirkor va hushyor bir kishi mingminglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir” ushbu jumlar kimga tegishli?
10. Ayvi Lining natijali boshqaruv bo‘yicha yondashuvi haqida ma’lumot keltiring.



# NAVOIY

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....NAVOIY

MUALLIFI: .....OYBEK

YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbek adabiyotidagi ilk tarixiy romanlardan biri bo'lgan ushbu asarda temuriylar davrining madaniy va siyosiy hayoti buyuk shoir va adolatli davlat arbobi Alisher Navoiy siymosida yuksak badiiy mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Asar syujeti XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda yuz bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar, saroy fitnalari va xalq hayotiga qurilgan. Romanda Navoiyning oddiy xalq farovonligi, adolat va mamlakat obodonchiligi yo'lidagi mashaqqatli kurashlari mufassal yoritilgan. Shuningdek, Husayn Boyqaro saltanatida avj olgan poraxo'rlik, amaldorlarning xudbinligi hamda mamlakatni parchalanishga olib kelgan ichki inqirozlar tarixiy haqiqatlar asosida kitobxonga taqdim etiladi.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar kitobxonda ona yurtga muhabbat va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. O‘quvchi Alisher Navoiyning o‘z xalqi farovonligi yo‘lidagi cheksiz fidoyiligi, ilm-ma’rifatga intilishi hamda shaxsiy manfaatlaridan ko‘ra davlat manfaatini ustun qo‘yishidek buyuk xislatlaridan chuqur o‘rnak oladi. Kitob orqali insoniylik, halollik va adolat har qanday mol-dunyo yoki amal kursisidan yuqori ekanligi teran ifodalanadi.

Asar bevosita harbiy harakatlar haqida bo‘lmasa-da, harbiylar uchun davlat daxlsizligi va barqarorligi faqatgina qurol bilan emas, balki hukmdor va xalq o‘rtasidagi adolat bilan ta’minlanishi haqidagi ulkan siyosiy maktabdir. Navoiyning davlat oldidagi sadoqati va fidoyiligi har bir askar va ofitser qalbida o‘z qasamyodiga, xalqiga va Vataniga bo‘lgan sodiqlik ruhini yanada toblaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Romanda temuriylar davrining siyosiy va madaniy manzarasi Alisher Navoiy siymosi orqali qanday tarixiy voqealar asosida yoritib berilgan?

2. Asarda Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi munosabatlar orqali davlat boshqaruvidagi qanday murakkab muammolar va ziddiyatlar ochib berilgan?

3. Navoiyning o‘z xalqi farovonligi va yurt obodonchiligi yo‘lidagi fidoyiligi asarning qaysi epizodlarida eng yorqin aks etgan?

4. Saroy amaldorlari, xususan, Majdiddin obrazi orqali jamiyatni va davlatni yemiruvchi qanday salbiy illatlar qoralangan?

5. Asardagi tarixiy muhit va qahramonlar tafakkuri harbiylarda Vatan xavfsizligi faqat qudratli armiyaga emas, balki mamlakatdagi adolatga ham bog‘liq ekanligini anglashda qanday ahamiyatga ega?

6. Asarda tasvirlangan oddiy xalq qismati va ularning adolatga bo‘lgan ehtiyoji Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatida qanday aks etgan?

7. Asarni o‘qish jarayonida kitobxonning qalbidagi shakllanadigan yuksak ma’naviy fazilatlar va ona yurtga muhabbat tuyg‘ularini asardagi qaysi g‘oyalar oziqlantiradi?

8. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutish sabablari yozuvchi tomonidan qanday ijtimoiy-siyosiy xatolar misolida tahlil qilinadi?

9. Navoiyning “El netib topgay menikim, men o‘zimni topmamon” kabi falsafiy kechinmalari uning ruhiy dunyosi va el-yurt oldidagi mas’uliyatini qanday yoritadi?

10. Ushbu roman harbiylarga davlat manfaati yo‘lida qat’iyatli bo‘lish, qonun ustuvorligi va halollik borasida qanday xulosalar beradi?



# QUTLUG' QON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... QUTLUG' QON

**MUALLIFI:** ..... OYBEK

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI


## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Oybekning “Qutlug’ qon” romini o‘zbek xalqining 1916-yildagi milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni davridagi hayotini yoritgan epik asardir. Romanda birinchi jahon urushi yillarida chor mustamlakasi zulmi ostida yashagan o‘zbek xalqining og‘ir ahvoli, norozilik va isyonlar fonida oddiy insonlarning taqdiri hikoya qilinadi.

Asarning bosh qahramoni Yo‘lchi – mard, halol, oqko‘ngil va olijanob yigit. U qishloqdan shaharga ish izlab kelib, turli sinovlarga duch keladi. Yo‘lchining xarakteri orqali muallif mehnatkash xalqning pokligi, mehnatse-

varligi va adolatga bo‘lgan intilishini mohirona tasvirlagan. Yo‘lchi o‘ziga qilingan yaxshiliklar evaziga faqat halol mehnati bilan javob bera oladigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatdan qo‘rqmaydigan inson sifatida namoyon bo‘ladi.

“Qutlug’ qon” romani o‘zbek realistik roman-chiligi taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, unda muallif xalq hayotini keng epik ko‘lamda, milliy xarakterlarni chuqur psixologizm bilan tasvirlagan. Asar nomidagi “qutlug’” (muqaddas, mo‘tabar) so‘zi xalq ozodligi yo‘lida to‘kilgan qonning muqaddasligiga ishoradir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, adolat va ozodlik g‘oyalarini chuqur his etishga chorlaydi. Roman insonda mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Harbiy xizmatchida vatanparvarlik, burchga sadoqat, ozodlik yo‘lidagi kurash va ma’naviy

jasoratni ulug‘lovchi ma’naviy maktab vazifasini o‘taydi. Asardagi Yo‘lchi obrazi orqali harbiy xizmatchi halollik, mardlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o‘rganadi. Shu jihatdan “Qutlug‘ qon” nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘lgan muhim adabiy merosdir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Qutlug‘ qon” romanida 1916-yilgi milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni qanday tarixiy-badiiy talqinda yoritilgan?

2. Bosh qahramon Yo‘lchi obrazi orqali muallif milliy xarakterning qanday fazilatlarini (mardlik, halollik, mehnatsevarlik) umumlash-tirgan?

3. Romanda shahar va qishloq muhitining ziddiyati qahramonlar dunyoqarashi va taqdiriga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

4. Yo‘lchining shahardagi qarindoshlaridan kutgan mehr-muruvvati va ularning munosabati orqali muallif qanday ijtimoiy-axloqiy muammolarni ko‘tarib chiqqan?

5. Asarda xotin-qizlar obrazi (masalan, Yo‘lchining onasi yoki boshqa ayollar) orqali o‘sha

davrdagi ayollarning ijtimoiy mavqeyi va ruhiy olami qanday tasvirlangan?


6. “Qutlug‘ qon” nomining ramziy ma’nosi nimanı anglatadi?

7. Muallif tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani qanday uyg‘unlashtirgan?

8. Oybekning romanda qo‘llagan etnografik detallari va milliy urf-odatlar tasviri (kiyim-kechak, turmush tarzi) asarning badiiy qimmatini qanday oshirgan?

9. Romandagi xalq og‘zaki ijodi unsurlari (maqollar, matallar, xalq qo‘shiqlari) asar uslubiga qanday milliylik baxsh etgan?

10. Yo‘lchining ichki kechinmalari va psixologik holati muallif tomonidan qanday badiiy vositalar (peyzaj, monolog, dialog) orqali ochib berilgan?



# HUMOYUN VA AKBAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....HUMOYUN VA AKBAR

**MUALLIFI:** ..... PIRIMQUL QODIROV

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Yulduzli tunlar” asarining mantiqiy davomi boʻlib, unda boburiylar sulolasining Hindistondagi hukmronligi, Humoyun va Akbarshohning faoliyati yoritilgan. “Avlodlar dovoni” romanida Pirmqul Qodirov Humoyunning sulolani mustahkamlash yoʻlidagi mashaqqatli, sinoatli faoliyatini nozik tasvirlaydi. U ogʻalari oʻrtasidagi nizolarni oqilona hal etishga harakat qilsa-da, amalda buning uddasidan chiqishga qiynaladi. Yozuvchi Humoyunning otasi qurgan saltanat poydevorini mustahkamlash borasidagi faoliyatini xolis tasvirlab, keyingi bosqich – sulolani jahon tamadduni

eʼtirofiga sazovor qilgan Akbarshoh taqdiriga urgʻu beradi. Akbar ruhida, qalbida hind yurtiga muhabbat nihoyatda kuchli edi. Muallif bu asarda nafaqat tarixiy voqealarni, balki davlat boshqaruvi, siyosiy qarashlar va ilm-maʼrifatning kuchini ham chuqur yoritib bergan. Ayniqsa, Humoyunning sinovlar orqali toblanishi, Akbarning ilmga, adolatga va insoniy bagʻrikenglikka eʼtibori katta taassurot qoldiradi. Asarning eng asosiy gʻoyalaridan biri davlatni kuch va hissiyot bilan emas, balki aql va tafakkur bilan idora qilish zarurligidir.

# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi Davlat boshqaruvi, bag‘rikenglik va buyuk ajdodlarimizning jahon tarixidagi o‘rni bilan tanishadi.

Harbiy xizmatchi qiyinchiliklar va kulfatlar insonni chiniqtirib, yana ham kuchli bo‘lishga undashi, zakiy inson har qanday vaziyatdan betalafot chiqib ketishi mumkinligini o‘rganadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Boylikka qiziqmaydir. O‘zi hindlardan, musulmon-u majusiyni barobar ko‘radi. Kabir degan baxtiy shoirga ixlosmand ekan. Jaloliddin Rumi, Sa‘diy she‘rlarini ham yod bilur”. Asarda keltirilgan ushbu ta‘riflar qaysi personajga tegishli?

2. Asarda keltirilishicha, Nizom nega o‘zini Salim deb nomlaydi?

3. Asarda Humoyun va shoh Taxmasp munosabatlari qanday keltirilgan?

4. Sayyid Ali Rais Akbarga qanday yordam bergan?

5. Nima uchun Akbarni “Dindan qaytdi, dahriy bo‘ldi” deyishadi?

6. Bayramxon va Akbar o‘rtasidagi ziddiyat qaysi voqeadan keyin boshlandi?

7. Akbar va Jodxabayning nikohini kim o‘qigan?

8. Asarda Komron mirzo qanday tasvirlangan?

9. Asarda qaysi personaj bolalarga faqat qonunshunoslikdan emas, tarix, mantiq va adabiyotdan ham yaxshi dars bera olardi?

10. Akbarga davlat ishlarida ham yordam beradigan enagasi kim edi?



# YULDUZLI TUNLAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... YULDUZLI TUNLAR

MUALLIFI: ..... PIRIMQUL QODIROV

YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Taniqli adib Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani yozuvchi ijodidagi ilk tarixiy asar hisoblanib, shaxsan Bobur qalamiga mansub boʻlgan “Boburnoma”, qolaversa, uning qizi Gulbadan begimga tegishli “Humoyunnoma” asosida yozilgan. Asarda buyuk sarkarda, shoh, shoir va dilbar shaxs boʻlgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti yoritilganligi sababli oʻsha davrdagi boshqa tarixiy asarlar singari “Yulduzli tunlar” ham turli taqiblariga uchradi.

Pirmqul Qodirov ushbu asarida Boburning Andijon taxtiga oʻtirishidan tortib Kobulda davlat tuzib, Hindiston fatx etilingach u yerda sal kam IV asr hukmronlik qilgan buyuk boburiylar saltanatiga asos solgani-yu, to uning vafotigacha boʻlgan butun hayotini yorqin tasvirlaydi. Kitob-

ni oʻqir ekan oʻquvchi beixtiyor Boburning jasurligidan, Vataniga boʻlgan sadoqatidan, qatʼiyati va jasoratidan oʻzida buyuk bobokalonimizga boʻlgan faxr tuygʻusini sezadi.

“Yulduzli tunlarda” muallif nafaqat Boburning mashaqqatli hayot yoʻli, Vatandan judolikda chekkan ohlarini balki XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi butun Movarounnahrdagi ijtimoiy siyosiy vaziyatga ham keng urgʻu beradi.

Asar davomida Amir Temurning ogʻir zahmatlar bilan tuzgan ulugʻ saltanati, oʻzaro ichki kurashlar, temuriy shahzodalarining boshboshdoqliklari natijasida parchalanganligiga va vatanimiz tarixida yangi davrni boshlab bergan shayboniylar sulolasining vujudga kelishiga bevosita guvoh boʻlamiz.


# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Yulduzli tunlar” vatanning qanchalar muqaddas ekanligini, undan ayro yashash azobligini anglatadi. Harbiylar uchun bu asar liderlikning muhim jihati – qo‘mondonning eng og‘ir damlarda askarlar bilan birga bo‘lishi, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishi va qat’iy intizom orqali tarqoq qo‘shinni birlashtirishni o‘rgatadi. Har bir harbiy uchun bu asar bilim bilan sug‘orilmagan kuchning ojizligini va g‘alabaga erishishda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki chuqur strategik tafakkur hamda razvedka ma’lumotlaridan unumli foydalanish naqadar muhimligini o‘rgatuvchi manbadir.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Bobur birinchi marta Samarqandni egalaganida nega uzoq ushlab tura olmadi?
2. Andijonni boy berish sahnasida Bobur qanday holatda qoladi? Yonida kimlar bor edi?
3. Shayboniyxon bilan kurashda Boburning eng katta xatosi nimada ko‘rsatilgan?
4. Qutlug‘nigor xonim Boburga qaysi vaziyatda qat’iy nasihat beradi?
5. Kobulni egallash voqeasi qanday sharoitda sodir bo‘ladi? Qarshilik kuchli edimi?
6. Hindistonga yurishidan oldin Bobur askarlariga qanday ruhiy murojaat qiladi?
7. Asarda Boburning she‘r yozayotgan aniq bir sahnasi bor – qaysi vaziyatda yozadi?
8. Shayboniyxon obrazi qanday xarakterda tasvirlangan: faqat salbiymi yoki murakkabmi?
9. Hind zaminiga kelgach, Bobur tabiatni qanday tasvirlaydi? Qaysi jihati unga tushunarsiz tuyuladi?
10. Bobur nega o‘g‘illaridan tashvishlanadi?



# AMIR TEMUR SULOLASI

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI: .....AMIR TEMUR SULOLASI**

**MUALLIFI:.....POYON RAVSHANOV**


**YOZILISHI: .....KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Payon Ravshanov qalamiga mansub “Amir Temur sulolasi” kitobida bizni qiziqtirgan har bir savolga javob topa olamiz. Gazetalarda bosib chiqarilgan bir qator maqolalari o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va kitob yozilishiga asosiy sabab bo'lgan edi. Asarda turli mavzular keng va aniq yoritilgan. Jumladan: jahonshumul fohihlar, ulug' sulola va saltanatga asos solgan hukmdorlar shaxsiyati, oilaviy madaniyati, farzandlari, nabiralari, kelinlari, qarindosh-urug'la-ri, quda-andalari, ya'ni turmush tarzi.

Sohibqiron Amir Temur va uning Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron va Hindistonda besh asr- ga yaqin hukm surgan sulolasi benazir kat- ta xonadonni tashkil etadi. Shajaraning bar-

davomligi bevosita davlat ahamiyatiga molik bo'lgan oilaviy tarbiyaga bog'liqligi, o'zlikni, sha'nni, or-nomusni saqlash xalqimizda uzoq asrlar davomida sayqal topgan milliy mentalitet, urf-odatlar, udumlar bag'rda yetilganligi, rav- naq topganligi Sohibqiron tamal toshini qo'y- gan toj-u taxt vorislari hayot yo'li misolida keng ko'lamda tadqiq etildi. Mavjud tadqiqotlarda doimo siyosat talqini soyasida qolib kelgan Amir Temur va temuriylar oilasi, ularning fe'l-atvori, tabiati, shijoati, sifatleri, surat va siyratleri, bosh- qaruv qobiliyatlari, ayrieha fazilatleri, qusur va zaif jihatleri tarixiy manbalar vositasida oldingi marrada yoritildi. Asar shu jihati bilan e'tiborga loyiqdir.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Tarixda shunday shaxslar borki, ularning hayoti va qoldirgan merosi nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham katta saboq bo‘lib xizmat qiladi. Shunday buyuk siymolardan biri Amir Temurdir. U nafaqat yirik davlat arbobi va sarkarda, balki kuchli tartib-intizom, adolat va strategiya tarafdori bo‘lgan rahbar sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Amir Temurning fikrlari, qarashlari va boshqaruv tajribasi jamlangan asarlari bizgacha yetib kelgan.

Buyuk sarkarda har qanday g‘alabaning asosi qat’iy tartib va intizomda ekanini ta’kidlagan. Uning qo‘shinidagi har bir askar o‘z vazifasini aniq bilgan va qoidalarga amal qilgan. Bu tajriba bugungi zamonaviy armiyalar uchun ham juda muhim. Harbiy xizmatda intizom, buyruqqa bo‘ysunish, mas’uliyat va jamoaviy harakat asosiy o‘rin tutadi. Yosh harbiylar Temur tajribasidan shuni anglashlari mumkin: kuch faqat qurol bilan emas, balki tartib va birlik bilan paydo bo‘ladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Kitobning kirish qismida muallif Amir Temur sulolasini qanday umumiy tarzda tavsiflaydi?

2. Amir Temurning tarbiyasi, ilm olishi va shaxsiyatini shakllantirishga ta’sir qilgan voqeani aytib.

3. Temurning dastlabki qaysi jang yoki yurishlari uning strategik qobiliyatini namoyon qilgan?

4. Amir Temur qanday davlat ichidagi nizolarni hal qilgan va qanday siyosiy qarorlar qilgan?

6. Amir Temurning mustahkam harbiy tashkiloti va qo‘shinini shakllantirishda qaysi yangi strategiyalar qo‘llanilgan?

7. Temur sulolasi davrida qo‘shni davlatlar bilan qanday diplomatik aloqalar o‘rnatilgan?

8. Asarda Amir Temur sulolasining ichki nizolari va taxt merosiga oid qaysi voqealar muhim ahamiyatga ega?

9. Temur sulolasining iqtisodiy rivojlanishi va savdo yo‘llari bobidagi qaysi qadamlar uning davlatini boyitgan?

10. Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish uchun qanday ishlar qilgan?



# IBROHIMBEK QO'RBOSHI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: ..... **IBROHIMBEK QO'RBOSHI**

MUALLIFI: ..... **QAHRAMON RAJABOV**

YOZILISHI: ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Tarixchi olim Qahramon Rajabovning ushbu asari Turkiston milliy-ozodlik harakatining eng yirik va taniqli sarkardalaridan biri – Ibrohimbek qo'rboshi (Muhammad Ibrohimbek Chaqaboyev)ning fojiali, ammo qahramonona hayot yo'liga bag'ishlangan. Asarda uzoq yillar davomida qizil imperiya mafkurasi tomonidan qoralanib, xalq ommasiga “bosmachi” yorlig'i ostida tanishtirilgan Ibrohimbekning aslida o'z Vatanini, dini va milliy qadriyatlarini himoya

qilish uchun maydonga chiqqan yirik tarixiy shaxs ekanligi rad etib bo'lmas arxiv hujjatlari asosida isbotlanadi. Muallif uning qizil armiyaga qarshi olib borgan o'n yildan ortiq omonsiz kurashlari, atrofida minglab fidoyilarni (1929-yillarga borib 4000 nafarga yaqin yigitlarni) birlashtira olgan yetakchilik salohiyati hamda dushman qo'lga tushib, 1932-yilda qatl etilishigacha bo'lgan shonli va og'riqli tarixini xolis yoritib beradi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Ushbu tarixiy hujjatli asar o‘quvchini uzoq yillik yolg‘on siyosiy qoliplardan xalos etib, ajdodlari-mizning istiqlol yo‘lida qanday og‘ir qurbonliklar berganini teran anglashga o‘rgatadi. Kitobni mutolaa qilish orqali barcha kitobxonlarda o‘z tarixiga nisbatan xolis yondashuv, Vatanga cheksiz muhabbat va millat ozodligi yo‘lida jonini fido

qilgan qahramonlar xotirasiga yuksak ehtirom tuyg‘usi shakllanadi.

Vatan sarhadlari va milliy or-nomusni himoya qilishda asardagi fidoyilik namunalari harbiylarda harbiy qasamyodga sadoqat, jangovar ruh va har qanday dushmanga nisbatan murosasizlik hissini yanada toblaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Qahramon Rajabov asarda sovet mafkurasi tomonidan yaratilgan “bosmachi” stereotipini qanday aniq arxiv hujjatlari (so‘roq protokollari va dalillar) bilan inkor etgan?

2. Ibrohimbekning oddiy xalq orasidan chiqib, Sharqiy Buxoro va Afg‘oniston hududlarida yirik harbiy qo‘shin tuzishigacha bo‘lgan yetakchilik va tashkilotchilik qobiliyatini qanday izohlash mumkin?

3. Qizil armiyaga qarshi olib borilgan o‘n yildan ortiq qurolli harakatda Ibrohimbek qo‘llagan partizanlik urushi taktikasi va notekis relyefdan foydalanish sirlari qanday samara bergan?

4. Milliy-ozodlik harakati ishtirokchilarining qurol-aslaha va ta‘minot jihatdan mudhish qoloqligi ularning mag‘lubiyatida qanday halokatli rol o‘ynaganligi ko‘rsatib o‘tilgan?

5. Asarda xalqning istiqlolchilarni ma‘naviy va moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlashi ozodlik harakatining bosh tayanchi sifatida qanday baholangan?


6. Ibrohimbek va boshqa qo‘rboshilar o‘rtasidagi o‘zaro ixtiloflar, shuningdek, Anvar Podsho bilan munosabatlardagi ziddiyatlar milliy harakat taqdiriga qanday salbiy ta‘sir ko‘rsatgan?

7. Asarda tasvirlangan ayg‘oqchilik (sovet razvedkasi) va mahalliy sotqinlik harakatlari harbiy xizmatchilarga axborot xavfsizligini ta‘minlash haqida qanday saboq beradi?

8. Ibrohimbek OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) qo‘liga asirga tushgandan so‘nggi tergov jarayonlaridagi mag‘rur tutumi harbiy xizmatchilarga ruhiy-ma‘naviy tomondan qanday ibrat bo‘la oladi?

9. Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ushbu asardan jangovar ruhni yuksaltiruvchi qanday xulosalar olish mumkin?

10. Bugungi mustaqillik ne‘matini qadrlash va xavfsizligimizni asrashda tariximizning ushbu fojiali sahifalari qanday mafkuraviy himoya (immunitet) vazifasini o‘taydi?



# ISTIQLOLCHILIK HARAKATI VA MOHIYATI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **ISTIQLOLCHILIK  
HARAKATI VA MOHIYATI**

**MUALLIFI:** ..... **QAHRAMON RAJABOV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu kitob Turkiston o'lkasida sovet bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik harakatlariga rahbarlik qilgan qo'rboshilarning mashaqqatli hayoti va fojiali taqdiriga bag'ishlangan. Asarda uzoq yillar davomida sovet mafkurasi tomonidan "bosmachi" deb qoralab kelingan qahramonlarimiz – Ibrohimbek, Madaminbek, Shermuhammadbek, Mulla Abdulqahhor, Ochilbek va boshqalarning aslida Vatan ozodligi, milliy e'tiqod va or-nomus uchun maydonga chiqqan chinakam vatanparvarlar bo'lgani arxiv hujjatlari va rad etib bo'lmas dalillar bilan isbotlanadi. Asar yurtimiz mustaqilligi qanday qonli qurbonliklar va mardona kurashlar evaziga qo'lga kiritilganini xolis ko'rsatib beruvchi nodir tarixiy xronikadir.





# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVİY OZUQASI

O‘quvchiga bu asar tarixiy adolatni qaror toptirish, uydirma sovet qoliplaridan qutulish va milliy qahramonlarni xolis o‘rganish imkonini beradi. Kitobxon el-yurt ozodligi uchun shaxsiy manfaatlari va hatto jonidan kechgan ajdodlarga nisbatan yuksak hurmat hamda faxr tuyg‘usini his qiladi.

Qurolli Kuchlar ofitser va askarlari uchun asar asimmetrik sharoitlarda ham taslim bo‘lmaslik, bukilmas iroda va jangovar matonat darsli-

gidir. Harbiylar undan partizanlik urushi taktikasi, notekis relyef sharoitida jang olib borish va axborot himoyasi kabi operativ-taktik xulosalar chiqaradilar.

Asardagi fidoyilik namunalari harbiy xizmatchilarga Vatan himoyasi nafaqat qasamyod, balki qondagi or-nomus masalasi ekanligini uqtirib, ularning ruhiy va ma’naviy shayligini yuksaltiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Qahramon Rajabov o‘z asarida yillar davomida “bosmachi” deb qoralangan qo‘rboshilarning asl vatanparvarlik qiyofasini qanday arxiv hujjatlari bilan ko‘rsatib bergan?

2. Turkistonda istiqlolchilik harakatining yuzaga kelishiga va yirik ko‘lamda tarqalishiga qizil armiyaning qanday qonli jinoyatlari hamda adolatsizliklari sabab bo‘lgan?

3. Madaminbek, Ibrohimbek, Shermuhammadbek kabi yirik qo‘rboshilarning harbiy sarkardalik mahorati va operativ boshqaruv usullari qay tarzda tahlil qilingan?

4. Milliy qo‘shinlarning texnik va qurol-aslaha jihatidan sovet armiyasidan qoloqligi ularning jangovar harakatlariga qanday halokatli ta’sir o‘tkazgan?

5. Asar o‘quvchida istiqlol yo‘lida jon fido qilgan ajdodlar xotirasi oldidagi mas’uliyat va milliy daxldorlik tuyg‘usini qanday shakllantiradi?

6. Mustamlakachilarga qarshi olib borilgan


“partizanlik urushi” (kutilmagan zarbalar berish) taktikasi zamonaviy harbiy-operativ tahlil nuqtayi nazaridan qanday baholanadi?

7. Xalqning qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlashi (ma’naviy va moddiy ta’minot) milliy ozodlik harakatlarining ijtimoiy asosi sifatida asarda qanday yoritiladi?

8. Harakat ichidagi o‘zaro ziddiyatlar, mahalliy-chilik va sotqinlik kabi illatlar istiqlolchilarning mag‘lubiyatga uchrashida qanday rol o‘ynagani ko‘rsatib berilgan?

9. Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari asarda tasvirlangan fidoyilik misolida davlat sarhadlari va mustaqillikni asrash bo‘yicha qanday psixologik saboqlar oladilar?

10. Kitobni mutolaa qilish yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda va chinakam Vatan himoyachisi timsolini yaratishda qanday ahamiyatga ega?



# HAZRATI INSON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... HAZRATI INSON

**MUALLIFI:** .....RAHMAT FAYZIY

**YOZILISHI:** .....KIRILL VA LOTIN  
ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu asarda urush yillarida yetim qolgan bolalarni asrab olgan bir oila taqdiri yoritilgan. Asarning bosh qahramoni Mahkam aka urush yillarida o'nlab bolalarni asrab olgan Shoahmad Shomahmudovning prototipidir. Asar bo'yicha "Sen yetim emassan" kinofilmi tasvirga olingan. Ikkinchi jahon urushi davrida uyidan, ota-onasidan ayrilgan ko'p bolalar urush bo'layotgan joylardan O'zbekistonga olib kelingan. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz qatori toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri Akramova turli millat bolalarini o'z tarbiyalariga olishgan.

Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romani Shoahmad ota va Bahri aya singari kishilar haqida hikoya qiladi. Urush va undan keyingi davr hayoti, insoniylikni saqlab qolish, oila mustahkamligini chiroyli ochib bergan. Inson qanchalik og'ir kunlarni boshidan kechirmasin, o'zligini, or-nomusini va insoniylik fazilatlarini saqlab qolishi kerak. Asarda Mehri hola, Mahkam aka va qishloq odamlari orqali xalqning ruhiyati ochib berilgan. Asar, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar o‘quvchi uchun ko‘plab ma’naviy ozuqa beradi. Bilim va lug‘at boyligini oshiradi. Tafakkur qilishga va diqqatni jamlashga yordam beradi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Harbiy sohada kitob nafaqat hordiq, balki professional mahorat va ruhiy quvvat manbaiyi hisoblanadi. Strategik tafakkurni oshiradi.

Tarixiy va harbiy asarlar askarlarga taktika va strategiyalarni, o‘tmishdagi janglarning falsafiy va texnik asoslarini tushunishga yordam beradi. Vatanparvarlik ruhini kuchaytiradi. Milliy va tarixiy asarlar harbiy xizmatchida vatanparvarlik, burchga sadoqat va jasorat tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Harbiy xizmatchi uchun ushbu asardan olinadigan eng muhim saboq nima deb hisoblaysiz?

2. Urush davridagi og‘ir sharoitda ham insoniylikni saqlab qolish uchun kishidan qanday iroda talab etiladi?

3. Asar nima uchun aynan “Hazrati inson” deb nomlangan? Muallif bu sarlavha orqali qanday umuminsoniy g‘oyani ilgari surgan?

4. Asarda tasvirlangan urush fojialari orqali o‘quvchida “tinchlikning qadri” haqida qanday xulosalar shakllanadi?

5. Qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari o‘quvchiga nimalarni o‘rgatadi?


6. O‘quvchi asardan qanday ma’naviy ozuqa oladi?

7. Ushbu asarning bugungi yoshlar uchun dolzarbligi nimada? Nima uchun har bir yosh bu asarni o‘qishi kerak?

8. Bosh qahramonning qiyofasida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qaysi milliy va insoniy fazilatlar namoyon bo‘lgan?

9. Insoniylik tushunchasini qanday izohlaysiz?

10. Vatanparvarlik faqat qurol bilan jang qilishmi yoki asar qahramoni kabi ma’naviy jasorat ko‘rsatish ham vatanparvarlik hisoblanadimi?



# RAVSHAN

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... RAVSHAN

**MUALLIFI:** .....XALQ

**YOZILISHI:** .....KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

RAVSHAN – “Go’ro’g’li” turkumi dostonlaridan. Hodi Zarifov Ergash Jumanbulbul o’g’li-dan yozib olgan (1928). Doston bir necha bor nashr etilgan. Doston Go’ro’g’lining nabirasi Ravshanning xosiyatli uzukda Shirvon malikasi Zulxumorning suratini ko’rib, oshiq bo’lishi va uni izlab safarga otlanishi voqeasidan boshlanadi. Asarda qahramonning ma’shuqaga erishish yo’lidagi sarguzashtlari orqali erkin muhabbat, vafo va sadoqat ulug’langan, Vatanga mehr, el-yurt dushmanlariga shafqatsizlik g’oyalari ilgari surilgan.

Doston qahramoni – Go’ro’g’lining nabirasi, Hasanxonning o’g’li Ravshanxon safarga chiqadi. Ravshan tushida Zulxumorni ko’rib, unga g’oyibona oshiq bo’ladi. Sevgi yo’lida u bobosi va otasining roziligini olib, Shirvon tomon yo’lga chiqadi. Yo’lda turli qiyinchiliklarga, dushmanlar qarshiligiga duch keladi. Zulxumorning otasi Qoraxon uni zindonga tashlaydi. Ravshanga uning do’stlari, sadoqatli oti va bobosining duolari yordam beradi. Yakunida u zindondan qutulib, barcha to’siqlarni yengadi va Zulxumorga yetishadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitob o‘quvchi ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkurini boyituvchi va dunyoqarashini kengaytiruvchi beqiyos manbadir. U insonni yuksak axloqiy fazilatlar (mehribonlik, halollik, vatanparvarlik) bilan oziqlantiradi, hayotiy tajribalarni o‘rgatadi va g‘oyaviy immunitetni shakllantirib, yomon illatlardan asraydi, shu bilan birga, intellektual salohiyatini oshiradi.

Asar harbiylarga quyidagi ma’naviy fazi-

latlarni tushunishga yordam beradi. Vatanparvarlik va jasorat: Kitoblar harbiylarda o‘z xalqiga hurmat, mardlik va ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Bilim va intellektual salohiyat harbiy xizmatchilarning bilim darajasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Harbiy texnoparklar tashkil etish va ilmiy bazani mustahkamlash orqali harbiylarning ma’naviy-g‘oyaviy tayyorgarligi oshiriladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Go‘ro‘g‘libek Yunus parini qayerdan olib keladi?
2. “Qizi borning nozi bor” iborasi kimga nisbatan aytilgan?
3. Asarda “She‘r haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli” ta’rif kimga berilgan?
4. Hasanxon Shirvon eliga qaysi otda keladi?
5. Yunus pari uzukni nimaga Ravshanga beradi?
6. “Oqshomlari qo‘liga kamon olsa, qushni ko‘zidan urar edi” deb kimga ta’rif berilgan?
7. Ravshanga qalpoq bozorini kim ko‘rsatadi?
8. Zulxumorning kanizining ismi nima edi?
9. Zulxumor va Ravshanni Zulxumorning otasiga kim sotadi?
10. Go‘ro‘g‘libek Avazxonni qayerdan olib keladi?



# SAMARQANDGA – AMIR TEMUR SAROYIGA SAYOHAT KUNDALIGI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:...** SAMARQANDGA – AMIR TEMUR  
SAROYIGA SAYOHAT KUNDALIGI

**MUALLIFI: .....** RUI GONSALES  
DE KLAVIXO

**YOZILISHI:.....** KIRILL ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ispaniya (Kastiliya) qiroli Genrix III elchisi Rui Gonzales De Klavixoning “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” (kundaliklar) asari Amir Temur davlatining xalqaro maydondagi beqiyos obro’-e’tibori, iqtisodiy qudrati va diplomatik aloqalari haqida yozilgan eng ishonchli va nodir tarixiy hujjatlardan biridir. Asarda Amir Temurning milliy diplomatiyani rivojlantirish bo’yicha ilg’or tajribalari dunyo miqyosidagi tarixchi va siyosatchilar qarashlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Yevropalik elchi o’z esdaliklarida Ispaniyadan to poytaxt Samarqandgacha bo’lgan uzoq yo’ldagi sarguzashtlari, o’lkaning geografik joylashuvi, karvon yo’llari xavfsizligi, shahar va qal’alarning mudofaa tizimi

hamda Sohibqiron armiyasining haybati haqida mufassal ma’lumot beradi.

Asarda Amir Temurning xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlari, saroydagi qat’iy tartib-qoida, mehmondo’stlik an’analari hamda davlatni boshqarishdagi o’ziga xos uslubi jonli yoritilgan. Klavixo Sohibqironning nafaqat yengilmas sarkarda, balki uzoqni ko’ruvchi, Yevropa monarxlari bilan tengmateng siyosiy o’yin olib bora oladigan buyuk diplomat ekanligini e’tirof etadi. Bu asar orqali o’quvchi XV asr boshlaridagi Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini, shuningdek, Sharq va G’arb o’rtasidagi geosiyosiy muvozanatda Amir Temur saltanati qanday hal qiluvchi rol o’ynaganini chet ellik kuzatuvchi nigohi orqali xolis anglab yetadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

O‘quvchi xorijlik elchi kundaligi orqali o‘zbek davlatchiligi tarixida milliy diplomatiya qanchalik yuksak darajada bo‘lganini kashf etadi. Elchilik salohiyatining o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini o‘rganadi.

Asar o‘quvchida Vatan obro‘cini xalqaro maydonida qanday himoya qilish, davlatlararo munosabatlarda milliy manfaatlarni ustuvor qo‘yish kerakligini, mustahkam siyosiy tafakkur va milliy g‘urur hisini tarbiyalaydi.

Harbiy xizmatchiga bu asar Amir Temurning “10 tadan 9 tasini mashvarat (kelishuv, diplomatiya)

bilan, 1 tasini qilich bilan hal qildim” degan buyuk strategiyasi mazmun-mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Harbiylar kuchli armiya va mustahkam mudofaa nafaqat urush qozonish uchun, balki dushmanni jangsiz taslim qilish, chet elliklarni davlat haybati bilan hayratda qoldirish va xavfsizlikni ta‘minlash muhim vosita ekanligini tushunib yetadilar.

Xorijiy elchining temuriy askarlari intizomi, qurol-yarog‘ ta‘minoti va sergakligiga bergan yuqori bahosi bugungi kun harbiy xizmatchilarini o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini va jangovar ruhini yuksaltiradi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Rui De Klavixoning Samarqandga elchi bo‘lib kelishidan ko‘zlangan asosiy siyosiy va diplomatik maqsadlari nimalardan iborat edi?

2. Asarda Amir Temurning Yevropa davlatlari (xususan, Ispaniya va Fransiya) bilan o‘rnatgan diplomatik aloqalari qanday tasvirlangan?

3. Amir Temurning xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlari va saroy protokoli orqali davlatning qudrati qanday namoyish etilgan?

4. Klavixo o‘z kundaliklarida Sohibqiron armiyasining harbiy tayyorgarligi, intizomi va qurol-aslahalari haqida qanday kuzatishlarni yozib qoldirgan?

5. Asarda “10 tadan 9 tasini mashvarat bilan, 1 tasini qilich bilan hal qildim” strategiyasining amaliy ijobatini ko‘rsatuvchi qanday real diplomatik yechimlar o‘z aksini topgan?


6. Klavixo nigohi orqali Samarqand va Kesh (Shahrisabz) shaharlarining iqtisodiy salohiyati, me‘morchiligi va mudofaa inshootlari qanday ta‘riflanadi?

7. Asarda elchilik salohiyatining o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, xususan, elchilar daxlsizligi va ularga ko‘rsatilgan ehtirom qanday tarixiy faktlar bilan yoritilgan?

8. Yevropalik elchi Amir Temur shaxsiyatidagi qaysi yetakchilik, strategik va psixologik xususiyatlarni alohida hayrat bilan e‘tirof etadi?

9. XV asr boshlarida Movarounnahr orqali o‘tgan Buyuk Ipak yo‘lining xavfsizligini ta‘minlashda harbiy nazoratning o‘rni asarda qay tarzda tasvirlangan?

10. Klavixo kundaligi bugungi kun ofitseri va harbiy xizmatchilarida harbiy diplomatiya, axborot yig‘ish (kuzatuvchanlik) va davlat nufuzini himoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday xizmat qiladi?



# MILLAT FIDOYILARI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **MILLAT FIDOYILARI**

**MUALLIFI:** ..... **RUSTAMBEK  
SHAMSUTDINOV**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Millat fidoyilari” to‘plami vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini tadqiq etishga bag‘ishlangan. To‘plam ilmiy ruhda yozilgan bo‘lib, unda millat qahramonlarining nohaqliklar qurboni bo‘lishlariga doir ko‘rsatmalar, tergovnomalar, ariza, xat va maqolalar o‘rin olgan. To‘plamdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish va yosh avlodga ularni har jihatdan o‘rnak qilib ko‘rsatishdir.

Muallif asarda aniq faktlar keltirish orqali haqiqatning kun kelib yuzaga chiqishi, mardlik va sadoqat tuyg‘ularining necha yillar o‘tsa-da, qadrlanishi va jamiyat taraqqiyoti uchun jon-

bozlik ko‘rsatgan qahramonlarning sharaflanishiga urg‘u beradi. Bu to‘plam harbiy xizmatchi uchun katta ma‘naviy ahamiyatga ega. U, avvalo, Vatanni sevishni o‘rgatadi, har qanday to‘siqqa qaramasdan so‘nggi nafasigacha o‘z ahidiga sodiq qolishga chorlaydi. Vatanni himoya qilish, uni ozodligi yo‘lida kurashish uchun nafaqat jismoniy, balki ma‘nan yetuk bo‘lish kerakligini ko‘rsatib beradi. Bu to‘plamni o‘qigan har bir xizmatchi ajdodlaridan meros jasoratni avlodlarga yetkazishi kerakligini anglab yetadi. Qolaversa, bugungi tinch hayotning qadriga yetishni va bu tinchlik uchun javobgarlik mas‘uliyatini chuqur his qiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

To‘plam ko‘plab ziyolilarning ayanchli qismatini tasvirlar ekan, mustamlaka yurtda bo‘ladigan jabr-zulmlar, haqiqat va jaholat o‘rtasidagi ziddiyatlar, ma‘rifat targ‘ibotchilariga bo‘lgan bo‘htonlar, soxta tergovlar, hozirgi farovon turmushimizga taqqoslaganda nechog‘lik

dahshatli ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Asar o‘quvchi uchun tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash va jasorat, burchga sadoqat, ajdodlarga bo‘lgan ehtirom, katta mas‘uliyat, hushyorlikni yo‘qotmaslik hamda ma‘naviy yetuklikka chorlovchi adabiy qo‘llanmadir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Uyushtirilgan “ko‘rsatma” siyosati qay tarzda amalga oshirilgan va uning oqibatida nimalar sodir bo‘ldi?

2. To‘plamda keltirilgan quyidagi savol to‘g‘risida mulohaza yuriting: “Nega ilm olish huquqi barchaga teng emas?”

3. Iste‘dodli va ziyoli bo‘lish o‘sha davr uchun og‘ir yuk ekanligini qaysi qahramonlar qismatida chuqurroq his qildingiz?

4. SSSR hukumatining “qatlnoma”larni maxfiy saqlashdan maqsadi nima edi?

5. Ayblanuvchilarning yozgan ko‘rsatma va arizalarida ularning ichki kechinmalari qay darajada aks etgan?

6. Fidoyilar qilgan sa‘y-harakatlar vatan ozodligi uchun qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?

7. To‘plamning qaysi o‘rinlarida sho‘ro hukumatining haddan tashqari qilgan johilliklari tasvirlangan?

8. Fayzulla Xo‘jayevning shaxsiyatiga baho bering.

9. Muallifning “kecha” va “bugun” o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaratishiga munosabat bildiring.

10. To‘plamga kiritilmagan, ammo “Millat fidoyilari” nomiga munosib yana kimlarni bilasiz? Bu nomga bugun ham sazovor bo‘lish mumkin deb o‘ylaysizmi?



# RUSTAMXON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... RUSTAMXON

**MUALLIFI:** .....XALQ

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Dostonning bosh qahramoni Rustam yoshligidan baquvvat, mard va jasur bo'lib ulg'aydi. Doston voqealari rivojida Rustamning qo'rqmas va dovyurakligini, chin insoniylik sifatlarini ko'rish mumkin. Kundoshlari tuhmat bilan onasini yurt-dan haydab, dorga osdirmoqchi bo'lganida, Rustam sarosimaga tushmadi. Onasini jallodlar qo'li-dan qutqarib: "Adashganning oldi yo'l", – deya yo'lga tushadi va Hukumu tog'ida qo'nim topib, ovchilik bilan kun ko'ra boshlaydi.

Rustam ov kunlarining birida o'tovga bog'lab qo'yilgan xushsurat qizni ko'rib qoladi va uning ajdarga yemish uchun turganligidan xabar topa-di. Xabarni eshitgan Rustam ajdar bilan jangga otlanadi. Oftoboy yalinib-yolvorib Rustamni o'z

ahdidan qaytarishga urinadi, biroq dovyurak Rustam: "Mard so'zidan, yo'lbars izidan qayt-maydi" degan gap bor, ajdarho domiga torta-di, meni yutadi deb vahm qilmayman, qayish-may ajdahoning yo'lini aytgin", – deydi. Ajdar bilan mardonavor kurashib, uni yengadi va qiz-ni o'limdan qutqaradi. Ajdar zulmidan xalos bo'lgan Bujul yurti Rustamni shohlikka ko'tara-di va Oftoboyim bilan to'yini qiladi. Erkin va od-diy hayot yo'lini tanlagan Rustam uch kundan so'ng shohlikdan voz kechib, suyukli yorini olib, onasining yoniga qaytadi. Shu tariqa doston-da Rustam obrazi soddadil, mard va qo'rqmas, jis-monan baquvvat inson, mehribon farzand va sadoqatli yor sifatida gavdalanadi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVİY OZUQASI

“Rustamxon” dostoni o‘quvchiga Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fidoyilikning naqadar muhim ekanini anglatadi. Asarda sadoqat va vafodorlik fazilatlarini ulug‘lanadi. Bu orqali o‘quvchi so‘zida turish, yaqinlariga mehribon bo‘lish, ota-onani hurmat qilish kabi insoniy fazilatlarining ahamiyatini tushunadi.

“Rustamxon” dostoni vatanparvarlik, jaso-

rat, sadoqat va fidoyilik kabi g‘oyalarni ilgari suradi, harbiy xizmatchi uchun Vatan himoyasi muqaddas vazifa ekanini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, bu asar harbiy xizmatchi qalbida Vatanga muhabbatni yanada mustahkamlaydi, uni jasur, fidoyi va ma’naviy barkamol bo‘lishga chorlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Rustamxon” dostonida Ximcha kim edi?
2. Sultonxon Rustam va Xuroyimning xabarini eshitib, kimning qiyofasida ularni izlaydi?
3. *Dardim ko‘pdur kim biladi ishimni,  
Qo‘limdan qochirdim olg‘ir qushimni?*  
Ushbu satrlar kimning tilidan aytilgan?
4. Sultonxon qayerga safarga otlanadi?
5. “Ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilgudek, aqli ketib otdan yiqilib qolgudek” degan ta’rif kimga tegishli?
6. Sultonxon qaysi viloyatda yashar edi?
7. Rustam Bujulda qancha vaqt podsho bo‘ladi?

8. *Maydon bo‘lsa bedov otlar topilar,  
Chopib kelsa banot jullar yopilar,  
Men ham bildim, yo‘qchi bo‘lib kelibsan,  
G‘am yema begijon, yo‘g‘ing topilar.*  
Ushbu parcha kimning tilidan aytilgan?
9. Momogul Mastonga xizmati evaziga qancha haq berishadi?
10. Dostonda ajdarhoni yengish uchun kuttayotgan Rustam, ajdarhoning har tarafga o‘t sohib, tog‘ ustidan qaysi ko‘lga tushib ketayotganini ko‘radi?



# GULISTON BO'STON

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....GULISTON BO'STON

**MUALLIFI:** ..... SA'DIY SHEROZIY

**YOZILISHI:** .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Shayx Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" (yoki "Sa'diynoma") asari 1257-yilda yaratilgan bo'lib, shoirning birinchi yirik asari hisoblanadi. Masnaviy(epik) vaznida yozilgan ushbu asar 10 bobdan iborat: adolat, rahm-shafqat, muhabbat, ta-voze, qanoat, ixlos, ta'lim-tarbiya, shukr, tavba va ibodat.

Asarda shoirning ko'p yillik sayohatlari davomida to'plagan tajribalari, inson psixologiyasiga oid kuzatishlari va hayot haqidagi hikmatlari latifalar orqali bayon etilgan.

"Guliston" esa 1258-yilda yaratilgan bo'lib, nasr va nazm aralash tarzda yozilgan. Asar

podsholar va darveshlar uchun hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadida ta'rif etilgan. U Ezop masallariga o'xshash ibratli hikoyatlardan iborat bo'lib, insoniy fazilatlar, axloq-odob va davlat boshqaruvi masalalariga bag'ishlangan.

Ushbu ikki asar ham Bokklubben Jahon kutubxonasi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, barcha davrlarning eng buyuk 100 ta kitobidan biri sifatida e'tirof etilgan. Hindiston maktablari-da "Guliston" va "Bo'ston" maxsus o'qitilib, yod olinishi shart bo'lgan. Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek adabiyoti va ta'lim tizimiga ham bu asarlar katta ta'sir ko'rsatgan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar komil inson bo‘lib yetishish, axloq-odob qoidalarini o‘rganish, hayotiy hikmatlarni anglash va ma’naviy kamolotga erishishning bebaho manbayidir. Asarlardagi har bir hikoyat insonni yaxshilikka, adolatga, sabr-qanoatga va poklikka chorlaydi.

Harbiy xizmatchiga Vatan himoyasidek og‘ir

va sharaflı burchni ado etishda adolat, mardlik, sadoqat va insoniylik kabi fazilatlarni mustahkamlovchi ma’naviy qo‘llanmadir. Ayniqsa, “Bo‘ston”ning adolat va rahm-shafqat boblaridagi hikmatlar harbiy xizmatchining ma’naviy dunyosini boyitib, uni nafaqat jangchi, balki komil inson sifatida tarbiyalaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarining o‘zbek adabiyotiga, xususan, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa mumtoz shoirlar ijodiga ta’siri qanday bo‘lgan?

2. “Guliston”da nasr va nazmning aralash kelishi asarning ta’sirchanligiga qanday xizmat qilgan?

3. Sa’diy Sheroziyning hind safari va Sumanot ibodatxonasidagi voqeasi “Bo‘ston”da qanday badiiy talqinda berilgan?

4. Ikki asardagi “podshoh va darvesh” munosabatlari tasviri orqali muallif qanday ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni ilgari suradi?

5. Asarlarda keltirilgan latifalarning ko‘pchiligidan bir hikoyatning o‘zida ham podshoh, ham gado uchun ibrat borligi qanday badiiy vositalar orqali ifodalangan?

6. Sa’diyning “Odamzod” g‘azalida (“Bani Odam a‘zoyi yakdigarand...” ) ifodalangan insonparvarlik g‘oyasi ushbu ikki asarda qaysi hikoyatlarda yanada chuqurroq ochib berilgan?

7. “Guliston” va “Bo‘ston”dagi tasavvufiy qarashlar va darveshlar hayoti tasviri orqali muallif qanday ruhiy-ma’naviy fazilatlarni ulug‘lagan?

8. Asarlardagi “tavoze” va “qanoat” boblarida keltirilgan hikoyatlar orqali insonning moddiy boylikka munosabati qanday talqin etilgan?

9. Sa’diyning sayohatlari davomida uchragan turli xalqlar va ularning urf-odatlarini tasviri asarlarning badiiy qimmatini qanday oshirgan?

10. “Guliston”dagi “libos” haqidagi mashhur hikoyat (“Ey qafan-p‘shidai bozorgard...” ) orqali muallif insonning zohiriy va botiniy olami o‘rtasidagi munosabatga qanday yondashadi?



# JIMJITLIK

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

KITOB NOMI: .....JIMJITLIK

MUALLIFI: .....SAID AHMAD

YOZILISHI: .....KIRILL VA LOTIN  
ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Jimjitlik” – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ijodiga mansub bo‘lgan roman. Roman yovuzlik bilan ezgulikning abadiy kurashiga bag‘ishlangan. Said Ahmadning “Jimjitlik” romani sovet davridagi turg‘unlik yillari illatlarini, rahbarlarning chirkin hayoti va xalq turmushini ochib beradi. Asarda uzoq yillik tazyiqdan so‘ng uyiga qaytgan Tolibjon, mansabparast rais Mirvali va fojiaiviy taqdirlar orqali tuzum inqirozi va soxta xotirjamlik dramatik tarzda tasvirlangan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarni o‘qigan inson haqiqiy insoniylik tuyg‘usi qanday bo‘lishini anglab yetadi. Asarda boylik, nafrat, yomonlik illat ekanligi ko‘rsatilgan. Asar qahramonlarining xatolari insonni yaxshilik qilib, ezgu niyat bilan yashashga undaydi. Ikki bir-biriga qarama-qarshi obraz orqali hayot ziddiyatlarini ko‘rish mumkin.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda bir-birini tepmoqchi bo‘lib turgan ikkita xo‘rozga o‘xshatilgan obrazlar kimlar edi?
2. Samarqand meditsina institutini tugatib kelgan, asli Vorganzedan bo‘lgan qahramon kim?
3. Tolibjonga Kiyiksovdi momo tarixi to‘g‘risida kim gapirib beradi?
4. Mirvalining gunohi nima edi?
5. Kimning xotini Bodomgulning ma‘rakasida ko‘rinib, keyin yo‘q bo‘lgandi?
6. Erali chavandozning laqabi nima edi?
7. “Ishton polvon” laqabli polvon kim?
8. Tolibjonning sunnat to‘yiga bir qop marvariddek shakar chiqargan kim?
9. Kim uylanganida “Ro‘molim” plastinkasi endi chiqqan edi?
10. Asarda Zohir shohni Eronda ham laqillatib ketgan personaj kim?



# QORAKO'Z MAJNUN

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI: ..... QORAKO'Z MAJNUN**

**MUALLIFI: ..... SAID AHMAD**

**YOZILISHI: ..... LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu kitobdan xalqimizning suyuqli adibi, hayoti ibratlarga to'la, mustahkam iroda sohibi Said Ahmadning ayrim hikoyalari o'rin olgan. Deyarli har bir hikoyada o'quvchi o'zligini, qalbidagi imon-e'tiqod, ona-yurt, o'zgalarga hurmat, mehr-muruvvat tuyg'usini yo'qotmagan insonlar bilan uchrashadi va ulardan ibrat oladi.



# ASARNING O'QUVCHIGA BERADIGAN MA'NAViy OZUQASI

O'quvchi asarni o'qish orqali tinchlikni qadrlash va shukronalik tuyg'ularini o'rganadi. Harbiylarni esa millatparvarlik, xalq muhabbati, ota-bobolar yo'liga sodiq qolishga, ota-onani hurmat qilishga, insonlarni qadrlashga o'rgatadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. To'plamga kiritilgan "Sarob" hikoyasida GPU xodimi nima uchun Pavlik Morozov haqida gapirib beradi?

2. To'plamga kiritilgan qaysi hikoyalarda otasidan voz kechgan o'g'il obrazlari bor?

3. To'plamga kiritilgan "Sarob" hikoyasida Olimjon domla tahlil qilib bergan: "G'amlarim shuncha ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo'ladi", jumalari qaysi shoirning qalamiga mansub?

4. To'plamga kiritilgan "Menga yetib kelmagan xat" hikoyasida Saida Zunnunova tug'ilgan kuniga sovg'a qilingan qo'l soatini sotib, o'rni-ga nima oladi?

5. To'plamga kiritilgan "Sarob" hikoyasida Kimsan nima uchun o'lganidan keyin uning terisini shilib olishlarini vasiyat qiladi?


6. To'plamga kiritilgan "Qorako'z Majnun" hikoyasida Saodat ayaning vafotidan keyin Qorako'zning taqdiri nima bo'ladi?

7. Said Ahmadga qanday jirkanch ish qildirishadi?

8. Asarda yaponlar haqida qanday ma'lumot keltirilgan?

9. Hikoyalardan birida xizmatchiga 72 inson o'lib ketaversa qarab turaverasanmi deyishganda, u nima deb javob beradi?

10. "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasida qanday illat qoralanadi?



# **DASHTI QIPCHOQ LOCHINI YOXUD SHAYBONIYXON QISSASI**

## **KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT**

**NOMI:.....DASHTI QIPCHOQ LOCHINI  
YOXUD SHAYBONIYXON QISSASI**

**MUALLIFI:.....SA'DULLA SIYOYEV**

**YOZILISHI: ..... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## **KITOBNING QISQACHA MAZMUNI**

sohibqironning tashabbusi bilan poytaxt Samarqand va mamlakatning boshqa hududlarida amalga oshirilgan ulkan obodonchilik, bunyodkorlik ishlari keng yoritilgan boʻlib, davlatning madaniy yuksalishi oʻz aksini topgan.

Asar faqat sohibqironning harbiy yurishlarini maqtab, koʻklarga koʻtarishdan iborat emas. Unda inson tabiati, qahramonlarning ichki dunyosi va Temurning xarakteri muallif Sharafiddin Ali tomonidan zoʻr mahorat bilan koʻrsatib berilgan.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

“Zafarnoma” asarini o‘qigan har bir inson, xususan, harbiy sohaga qiziqqan o‘quvchilar, Vatanni cheksiz sevish, uning har bir qarich tuprog‘ini e‘zozlash va yurt tinchligini ta‘minlash kabi yuksak tuyg‘ularni chuqur anglab yetadi. Ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni bayon qiladi, balki mamlakat xavfsizligi va sarhadlar daxlsizligini asrash yo‘lidagi fidoyilikning yorqin namunasini ko‘rsatib beradi.


Harbiy nuqtayi nazardan, kitobxon buyuk sarkarda Amir Temurning jang san‘ati, harbiy strategiya va taktikasi, shuningdek, qo‘shinni boshqarishdagi yuksak mahorati bilan yaqin-

dan tanishadi. Asarda tasvirlangan harbiy yurishlar va janggohdagi tezkor qarorlar o‘quvchini qat‘iy intizomga, chuqur tahliliy fikrlashga hamda murakkab sharoitlarda ham to‘g‘ri strategik qadamlar tashlashga o‘rgatadi.

Tarixiy shaxslarning buyukligi, xususan, Amir Temur siymosi asar orqali haqiqiy jasorat, mardlik va yengilmas iroda timsoli sifatida gavdalanadi. Bu yozgilar kelajak avlodni, ayniqsa, harbiylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda chinakam yetakchilik qobiliyatlarini va vatan oldidagi burchga sadoqat hissini shakllantirishda yuksak ahamiyatga ega manbadir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarning asosiy maqsadi nima?
2. Asarda Amir Temurning qaysi yurishlari haqida ma‘lumot berilgan?
3. Asarda Amir Husayn bilan Amir Temurning munosabatlari qanday tasvirlangan?
4. Asarda yana nimalar aks etgan?
5. Hozirgi kunda asarni o‘qish bizga nima uchun zarur?
6. Amir Temur eng mas‘uliyatli va og‘ir vazifalarni farzandlaridan ham ko‘ra kimga ishonardi?
7. Asarda butun Eron va Turonda katta qudratga ega bo‘lgan ayol kim edi?
8. Qaysi o‘rinlarda Amir Temurning qahramonligi tasvirlangan?
9. Qaysi o‘rinlarda esa Amir Temurning shaxsiy xarakteri tasvirlangan?
10. Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari qanday edi va bugungi kunda ulardan davlat boshqaruvida foydalanib bo‘ladimi?



# OLTIN ZANGLAMAS

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** ..... **OLTIN ZANGLAMAS**

**MUALLIFI:** ..... **SHUHRAT  
(G'ULOM ALIMOV)**

**YOZILISHI:** ..... **KIRILL ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Oltin zanglamas” romani qatagʻon siyosati davri, qonli urush yillari va “tikanli simlar” ortidagi achchiq hayotni yaqqol tasvirlagan haqqoniy asardir. Romanda qahramonlarning vatanga boʻlgan sadoqat va xiyonati, “ikki yuzli” shaxslar fojiasi, nohaq jabr chekkan, “xalq dushmani” degan yolgʻon nom olgan insonlar va ularning oilasi koʻrgan qiyinchiliklar va yillab “yer”da qolib ket-sa-da, “zanglamaydigan oltinlar” haqida hikoya qilingan.

Asarning asosiy gʻoyasi – inson matonati, inson qadrini ulugʻlash, vatanga boʻlgan sadoqatni hamma narsadan ustun qoʻyish kerakligini oʻquvchi ongiga singdirishga qaratilgan. Muallif bir nechta davrni birlashtirib koʻrsatish mobaynida adolatsiz hukumat va gʻarazgoʻy insonlarning asl yuzini ochib beradi.

Bu asar harbiy xizmatchi va askar uchun katta maʼnaviy ahamiyatga ega. U vatan himoyasi qanchalik muqaddas burch ekanligini va bundayin sharaflı ishni xiyonatkor va razil kimsalar emas, balki haqiqiy mard qahramonlargina bajara olishini koʻrsatadi. Vijdon xotirjamligi ochlik, qahraton sovuq, chidab boʻlmas qiynoqlar, zax qamoqxonalardan azobidan ming chandon yaxshiroqligini uqtiradi. Zeroki, ruhida xavotiri bor odam hashamatli uyda ham tikan ustida yotganday boʻlishi necha zamonlardan beri anglatilib kelayotgan haqiqatdir. Bu asarni oʻqigan har bir harbiy xizmatchi oʻz yurtini yanada qattiqroq sevishtga, uning sarhadlarini himoyalash yoʻlida hattoki jonini berishga ham tayyor boʻladi, oʻzida yanada kuchliroq masʼuliyat seza boshlaydi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar inson va davr munosabati ziyolilik va ilmsizlik, qalb amri va nafs o‘rtasidagi ziddiyatlarini tasvirlash orqali insonning yetuk xislatlarini ochib bergan. O‘quvchi asar mutolaasiga kirishar ekan, o‘zini asar muhitida yashayotgandek his etadi, qahramonlar taqdirini o‘z boshidan kechiradi va jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini chuqurroq anglaydi.

Vatan oldida har bir shaxs tepa-teng javobgardir. Vaqt qadrini anglash, har bir lahzani millat manfaati yo‘lida sarflash ham har birimizning burchimizdir. Bu borada ajdodlarimiz hayotidan o‘rnak olish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan ham roman nafaqat badiiy, balki ma’naviy, tarbiyaviy, psixologik jihatdan ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Oltin zanglamas” iborasi orqali qaysi qahramonga nisbat berilgan?

2. Totalitar tuzum sharoitida shaxsning ichki erkinligi qanday ifodalanadi?

3. Roman g‘oyasida ayb va javobgarlik masalasi qanday qo‘yilgan: tarix aybdormi, tizimmi yoki insonning o‘zi?

4. Asarda “umr” tushunchasi shaxsiy taqdir doirasidami yoki jamoa milliy fojia kontekstidami?

5. Asarda milly xotira va tarixiy haqiqat o‘rtasidagi ziddiyat qanday badiiy shaklda ochilgan?

6. Asardagi ayol obrazlari milliy mentalitet va

tarixiy fojia kesishgan nuqtada qanday ramziy ma’no kasb etadi?

7. Ikkilamchi obrazlar asosiy g‘oyani to‘ldirishda qanday ahamiyatga ega?

8. Asarda yaqinlar o‘rtasidagi uzilmas rishtalar, oilaviy qadriyatlar, ota-ona va farzand munosabatlari qaysi o‘rinlarda yaqqol namoyon bo‘lgan?

9. Asar shu mavzudagi boshqa asarlardan qaysi jihatlariga ko‘ra farqlanadi?

10. Asar yakuniga fikringiz? Hatto o‘limi ham jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo‘lish uchun inson qay darajada matonatli bo‘lishi kerak?



# SHINELLI YILLAR

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** .....SHINELLI YILLAR

**MUALLIFI:** ..... SHUHRAT  
(G'ULOM ALIMOV)

**YOZILISHI:** ..... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Shinelli yillar” romani Ikkinchi Jahon urushi yillarida sovet orqasidagi og’ir mehnat fojiasini yoritgan tarixiy-publitsistik asardir. Romanda urushning oldingi saflaridagi qonli janglar emas, balki front ortidagi fidokorona mehnat qilayotgan o’zbek ayollari, qariyalari va bolalarining og’ir taqdiri tasvirlangan.

Asarning markazida Nazira obrazi tura-di. Urushning dahshatli kunlarida u cheksiz jabr-musibatlarga, mehnat azoblariga duch keladi. Uning uch farzandi – Hakim, Fotima va Saodat og’ir hayot tarzida turli yo’llardan

ketadi. Asarda front ortidagi odamlarning – xotin-qizlarning, o’smirlarning, keksalarning urush yukini yelkasida ko’tarib, Vatan g’alabasi uchun fidokorona mehnat qilgani ta’sirchan tasvirlangan.

“Shinelli yillar” romani shunisi bilan ahamiyatli, unda urushdagi hayot, mehnat frontlaridagi og’ir sharoit, ochlik va mahrumiyatlar badiiy jihatdan yoritilgan. Muallif romanga “Shinelli yillar” nomini tanlashi orqali frontdagi odamlarning hayotini ham harbiy formada-gi askarlarning hayoti kabi og’ir va muqaddas ekaniga ishora qiladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar o‘quvchi uchun urush fojiasini chuqur anglash, tinchlik ne‘matining qadriga yetish, onalarning fidoyiligi, mehnatsevarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi ma’naviy manbadir.

Harbiy xizmatchi uchun Vatan himoyasining nafaqat jang maydonlarida, balki front ortidagi fidokorona mehnat bilan ham ta‘minlanishini anglash, onalarning ulkan jasoratini qadrlash, Vatanga sadoqat va burchga mas‘uliyatli munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Muallif nega romanga “Shinelli yillar” deb nom bergan?

2. Nazira obrazi orqali muallif o‘zbek ayoli-ning urush davridagi qanday fazilatlarini umumlashtirgan va bu obrazning fojiali taqdiri nimalarda namoyon bo‘ladi?

3. Romandagi Naziraning uch farzandi – Hakim, Fotima va Saodat obrazlari orqali urush davridagi yoshlar taqdirining turli jihatlari qanday ochib berilgan?

4. Asarda front ortidagi mehnat fojiasi qanday badiiy vositalar (peyzaj, portret, monolog) orqali tasvirlangan?

5. Romanda “orqa front” tushunchasining mohiyati nimada va muallif nega birinchi marta ushbu mavzuga murojaat qilgan?

6. Naziraning ichki kechinmalari, farzand-


lariga bo‘lgan mehri va ularni oyoqqa turg‘izish uchun qilgan jasorati asarning g‘oyaviy mazmunini qanday chuqurlashtirgan?

7. Romanda ayollar, bolalar va qariyalarning og‘ir mehnat sharoiti (zavod, kolxoz dalalari) qanday yoritilgan?

8. “Shinelli yillar” romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi asarning ta’sirchanligiga qanday xizmat qilgan?

9. Asarning “publitsistik” xarakterga egaligi qaysi jihatlarda ko‘rinadi va bu uslub romanining mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

10. Naziraning og‘ir hayot sinovlarida ayollik qadrini saqlab qolishi, boshqalarga yordam qo‘lini cho‘zishi (masalan, aroqxo‘r erkakka bo‘lgan munosabati) orqali muallif qanday ma’naviy g‘oyalarni ilgari surgan?



# KIMSASIZ HOVLI

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... **KIMSASIZ HOVLI**

**MUALLIFI:** ..... **SHUKUR XOLMIRZAYEV**

**YOZILISHI:** ..... **LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev kitobxonlarga juda ko'p hikoyalari, bir necha qissa va romanlari bilan yaxshi tanish. Uning asarlari milliyligi, turfa xarakterlarga boyligi, goho kutilmagan yechim bilan tugashi bilan ajralib turadi. Bu holat, ayniqsa, uning hikoyalarida yaqqol seziladi.

Mazkur "Hikoyalar xazinasi" rukni ostidagi "Kimsasiz hovli" to'plamidagi hikoyalar ham kitobxonni hayotning so'qmoqli yo'llariga bosh-

lab kiradi, o'ylatadi, ranjitadi, quvontiradi va ularga turmush kechinmalarining turli qirralarini ko'rsatib beradi. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o'sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va ayrim atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

Ushbu to'plam barcha yoshdagi kitobsevar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ularning oilaviy kutubxonalarini yana bir ajoyib kitob bilan boyitadi, degan umiddamiz.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Bu to‘plamda yozuvchi insonning ichki dunyosi, vijdon, mas’uliyat va tanlov masalalarini markazga qo‘yadi. Qahramonlar orqali yaxshilik va yomonlik, halollik va manfaatparastlik, burch va egoizm o‘rtasidagi kurash ochib beriladi.

Kitobdagi roman va hikoyalarda inson har qanday sharoitda ham ma’naviy qadriyatlariga sodiq qolishi kerakligi ilgari suriladi. Yozuvchi oddiy hayotiy voqealar orqali katta falsafiy ma’noni ko‘rsatadi: insonning haqiqiy qiymati uning

boyliги yoki mavqeyida emas, balki uning qalbi, vijdoni va insoniyligidadir.

Asarda jamiyatdagi ma’naviy inqiroz, adolat va insofga ehtiyoj, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda samimiylık va ishonch masalalari ham ko‘tariladi. Bu orqali yozuvchi o‘quvchini fikrlashga, o‘z hayoti va qarorlarini qayta baholashga undaydi. “Kimsasiz hovli” insonni ichki poklik, ma’naviy mas’uliyat va hayotga ongli munosabat ruhida tarbiyalaydigan falsafiy-badiiy to‘plamdir.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Kimsasiz hovli” asaridagi asosiy g‘oya nima, Ummatjonning harbiy xizmatdan qaytib kelishi sah-nasi orqali muallif nimani ko‘rsatmoqchi bo‘lgan?

2. Umar aka va Hosila opaning hayot tarzi, pul-ga munosabati hamda oilaviy munosabatlari Um-matjonning taqdiri va xarakter shakllanishiga qan-day ta’sir ko‘rsatgan?

3. Asardagi qahramonlar orqali muallif inson ruhiyatining qaysi jihatlarini ochib bergan?

4. Siz uchun kitobdagi eng ta’sirli bo‘lgan hikoya qaysi va nima uchun shu hikoyani tanladingiz?

5. Hikoyalar orqali ilgari surilgan axloqiy, insoniy qadriyatlar haqida yozuvchining qarashlarini aytib bering.


6. Asardagi qaysi vaziyatlar sizda vatanparvar-lik yoki mas’uliyat hissini kuchaytirishga turtki bo‘ldi?

7. Harbiy xizmatchi nuqtayi nazaridan qaragan-da, asardagi qaysi epizodlar intizom va burch tu-shunchasini anglatadi?

8. Asar qahramonlari qaror qabul qilish jarayoni-da qanday qiyinchiliklarga duch keladi? Siz bun-day vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

9. Asardagi qaysi fikrlar yoki voqealar siz uchun amaliy ahamiyatga ega?

10. Asarni o‘qib chiqqaningizdan keyin inson, jamiyat va vatan haqidagi qarashlaringizda qan-day o‘zgarish paydo bo‘ldi?



# KAFANSIZ KO'MILGANLAR

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI: ...KAFANSIZ KO'MILGANLAR**

**MUALLIFI: ..... SHUKRULLO**

**YOZILISHI: .... KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI**

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Asarda bosh qahramon millatchilik va hukumatga qarshilikda ayblanib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan yozuvchining qatag'onlik davri dahshatlari ifodalangan bo'lib, begunoh millatimizning dur-u gavharlari bo'lmish adiblarimizga tuhmat toshlarini yog'dirib, adolatsizlik bilan jazolanganligi tasvirlanadi. Bir inson hayoti misolida butun siyosiy tizim ochib beriladi.

E'tibor tortadigan jihati shundaki, jabrlanuvchi shunchaki san'at insoni, ziyoli bir xokisor odam

ekanligi, unga qilingan beshavqat adolatsizlik insonni ta'sirlantirmay qo'ymaydi. Asar oxiridagi adolatli qarorlar o'quvchini asarga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi. Mutolaa jarayonida bevosita o'quvchi ongida shukronalik barq uradi. Hozirgi tinch davr va adolatli siyosat insonda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Bosh qahramonning har qanday vaziyatda faqat rost so'zlashi, ko'plab azob-uqubatga bergan bardoshi hozirgi yosh avlod uchun o'rnak bo'la oladi.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Kitobxon asarni o‘qir ekan bugungi kun va sovet tuzumi o‘rtasidagi farqni taftish qila boshlaydi. Bir begunoh yozuvchining nohaq ayblangani har bir o‘zbek farzandini sergaklikka chorlaydi. Vatan himoyachilarini o‘z ishida mas‘uliyatli bo‘lishi, yo‘qsa, qanday oqibatlariga olib kelishini eslatib turadi. Vatan oldidagi burchimizga yuzaki qaramaslikka undaydi. Bu-

gungi kunda biz sevib o‘qiyotgan asarlarni o‘z davrida qanday mashaqqat bilan yozilganligini eslatadi.

Harbiylarimizning qalbida faxr va shukr tuyg‘usi uyg‘onadi. Bugungi kundagi tinchlik ortida qiyinchiliklar bo‘lganligini eslatadi va hozirgi tinch zamonning har bir lahzasini qadrlashga chorlaydi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda qatag‘onlik davrining inson hayotiga ta’siri qanday voqealar orqali ko‘rsatilgan?

2. Muallif nima sababdan asarga “Kafansiz ko‘milganlar” deb nom bergan, bu nom qanday ramziy ma‘noni anglatadi?

3. Qamoqdagi hayot sharoitlari va mahbuslarning ruhiy holati qanday tasvirlangan?

4. Muallif boshidan kechirgan eng og‘ir sinov qaysi epizodlarda aniq ko‘rinadi?

5. Asarda adolatsizlik va zulmga qarshi insonning ichki kuchi qanday ifodalangan?

6. Qatag‘onlik davrida begunoh insonlarning jazolanishi jamiyatga qanday zarar yetkazgan?

7. Muallif asar orqali kelajak avlodga qanday saboq bermochi bo‘lgan?

8. Asarda do‘stlik, hamdardlik yoki bir-biriga yordam berish holatlari qaysi voqealarda ifodalanadi?

9. Qamoq va surgun voqealari orqali o‘sha davr siyosiy muhitini qanday tasavvur qilish mumkin?

10. Sizningcha, bu asarni o‘qigan odam tarix va inson qadr-qimmatini haqida qanday xulosa chiqaradi?



# ASRGA TATIGULIK KUN

**KITOB HAQIDA QISQACHA  
MA'LUMOT**

**KITOB NOMI:** .....ASRGA TATIGULIK KUN

**MUALLIFI:** .....CHINGIZ AYTMATOV

**YOZILISHI:** .....KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

Asar voqealari keng dasht hududidagi kichik temiryo'l bekatida yashovchi odamlar hayoti haqida. Asarning asosiy qahramoni Edigey ismli oddiy, lekin vijdonli va sadoqatli inson. Hikoya Edigeyning yaqin do'sti Qozangap vafot etgani bilan boshlanadi. Edigey do'stini qadimiy qabriston – Ona Bayitga olib borib dafn qilmoqchi bo'ladi. U do'stiga hurmat sifatida bu ishni bajarishni o'z burchi deb biladi. Safar davomida u o'tmishdagi voqealarni, urush davrini, odamlar boshidan kechirgan qiyinchiliklarni eslaydi.

Yo'l davomida turli to'siqlar paydo bo'ladi, yangi tartiblar va cheklovlar sabab ular qabris-

tonga bermalol kira olmaydi. Bu holat orqali asarda o'tmish bilan hozirgi zamon o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'rsatiladi.

Asarda yana bir muhim qism bor – manqurt haqidagi rivoyat. Bu rivoyatda odamni shunday qiynab qo'yishadiki, u o'z ota-onasini, xalqini va kimligini unutib qo'yadi. Muallif bu orqali shuni ko'rsatadiki, inson o'z tarixini unutsa, u o'zligini ham yo'qotadi. Yozuvchi bugungi kun yoshlari uchun kerakli bo'lgan nodir asarni yozib qoldirgan. Shunday ekan asardan to'g'ri xulosa chiqarmog'imiz, olgan bilim va ko'nikmalarimizni amalda ko'rsatmog'imiz lozim.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asar harbiy xizmat o‘tayotgan har bir insonning o‘zligini unutmaslikka undaydi. Manqurtlik tarixini unutgan inson bilan tenglashtiradi. Asarda ramziylashtirish borligi sababli umumiy xulosa chiqarishga va chuqur o‘ylab fikrlashga undaydi. Asar qahramonining boshiga kelgan kulfatlar uni aybi uchun emas balki begunohligi, sodda va qat’iyatsizligi tufayli yuz bera-

di. Askarlar qanchalik sergak tursa ularning hayoti va vatan tinchligi uchun birdek foydali bo‘lishini anglashga yordam beradi. Tarixsiz kelajak bo‘lmaganidek, o‘z tariximizni yaratishda davom etmog‘imiz hamda bu yo‘lda vatan ostonasida jasorat va mag‘rurlik bilan turishimiz kerak ekanligini anglatadi.

## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Asarda Edigey obrazining hayoti orqali insoniylik va vafodorlik g‘oyasi qanday ochib berilgan?

2. “Manqurt” haqidagi rivoyat asar mazmunida qanday ma’no beradi va u odamning o‘z tarixini unutishi haqida nimani anglatadi?

3. Asarda qaysi qahramon ko‘proq jabr chekadi va sababi nimada?

4. Asarda do‘stlik, sadoqat va insoniy burch masalalari qaysi voqealar orqali ko‘rsatilgan?

5. Bu asar bugungi kunda yoshlarni o‘z tarixini, milliy qadriyatlarini unutmaslikka qanday undaydi?

6. “Manqurtlik” g‘oyasi hozirgi zamonda qanday ko‘rinishlarda uchrashi mumkin deb o‘ylaysiz?

7. Asarda tasvirlangan og‘ir sharoitlarda ham insoniylikni saqlab qolish bugungi jamiyat uchun qanday saboq beradi?

8. Harbiy xizmatchilar uchun asardagi burch, sadoqat va sabr g‘oyalari qanday ibrat bo‘lishi mumkin?

9. Asarda vatan, yer va ajdodlar xotirasiga hurmat masalasi qanday yoritilgan va bu harbiylar uchun nimani anglatadi?

10. Sizningcha, nega bu asar “Asrga tatigulik kun” deb atalgan va u kelajak avlodlar uchun qanday ahamiyatga ega?



# OQ KEMA

## KITOB HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

**KITOB NOMI:** ..... OQ KEMA

**MUALLIFI:** ..... CHINGIZ AYTMATOV

**YOZILISHI:** ..... LOTIN ALIFBOSI

## KITOBNING QISQACHA MAZMUNI

“Oq kema” asarda mehr-muhabbat, toʻkislik, oqibat hamda diydor ramzi. Bolaning fikricha, uning otasi oq kemada, u oq kemaga borsa, otasi bilan koʻrishadi, diydoriga ilhaq boʻlgan insoniga yetishadi. Shuning uchun ham oq kemani oʻz orzulariga yetishtiruvchi moʻjiza deb his qiladi. Ammo... Ammo hayotda doim biz xohlagan narsalar boʻlavermaydi. Biz orzu qilgan, umid ila kutganimiz sarob boʻlib chiqishi mumkin, chunki bu hayot. Hayot esa hech qanday qonuniyatga boʻysunmaydi. Asardagi obrazlar silsilasi oʻz xarakteri, ruhiyati bilan bir-biridan ajralib turuvchi, oʻz shaxsiy hayoti, oʻz dunyoqarashiga ega ushbu insonlardan iborat.



# ASARNING O‘QUVCHIGA BERADIGAN MA’NAVIY OZUQASI

Asarni o‘qigan odam inson qalbini tushunishni, yaxshilikni ulug‘lashni, hoy-u havaslarga ergashmay, tartibli hayot kechirishni, Vatanni sevishni o‘rganadi.



## ASAR YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Oq kema” qissasida Shoxdor ona bug‘u nimaning vasiyat qoldirgan edi?
2. Asarda Mo‘min cholni nima qattiq xafa qilishi mumkin edi?
3. Kimki daraxtlarni asrab qololsa, o‘sha haqiqiy..... bo‘ladi. Tushirib qoldirilgan so‘zni toping.
4. “Oq kema” qissasidagi Olabosh bo‘z ot kimga tegishli?
5. Qissada O‘rozqul daryo bo‘yida nima uchun yig‘laydi?
6. Issiqko‘l haqidagi fikringizni ayting.
7. Bolaning orzusi nima edi?
8. Mazkur qissada oq kema nimaning ramzi?
9. Mo‘min chol obraziga ta‘rif bering.
10. O‘rozqul xarakterini ochib bering.



## 100 TA BADIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

| №  | Muallifi                   | Kitob nomi                         |
|----|----------------------------|------------------------------------|
| 1  | Shavkat Mirziyoyev         | Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston |
| 2  | Shavkat Mirziyoyev         | Yangi O'zbekiston strategiyasi     |
| 3  | Abdulla Oripov             | Sohibqiron                         |
| 4  | Abdulla Qahhor             | Sarob                              |
| 5  | Abdulla Qodiriy            | Mehrobdan chayon                   |
| 6  | Abdulla Qodiriy            | O'tkan kunlar                      |
| 7  | Abdulhamid Cho'lpon        | Kecha va kunduz                    |
| 8  | Abdusalol Rahim            | Abu Ali ibn Sino                   |
| 9  | Akmal Mahkamov             | Dunyoni titratgan ikki sarkarda    |
| 10 | Alisher Navoiy             | Ibratli hikoyatlar                 |
| 11 | Alisher Navoiy             | Lison ut-tayr                      |
| 12 | Alisher Navoiy             | Mahbub ul-qulub                    |
| 13 | Alisher Navoiy             | Xamsa                              |
| 14 | Alixonto'ra Sog'unii       | Turkiston qayg'usi                 |
| 15 | Xalq                       | Alpomish                           |
| 16 | Arminiy Vamberi            | Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi   |
| 17 | Amir Temur                 | Temur tuzuklari                    |
| 18 | Asqad Muxtor               | Chinor                             |
| 19 | Ato Hamdam, Leonid Chigrin | Yapon Zobiti                       |
| 20 | Azamat Ziy                 | O'zbek davlatchiligi tarixi        |
| 21 | Baxtiyor Abdug'afur        | Kazbek. Osiyo arsloni              |
| 22 | Baxtiyor Abdug'afur        | Madaminbek: Qonli gular vodiysi    |

| <b>№</b> | <b>Muallifi</b>      | <b>Kitob nomi</b>                                           |
|----------|----------------------|-------------------------------------------------------------|
| 23       | Bekzod Abdirimov     | Sayfiddin Qutuz – So‘nggi zarba                             |
| 24       | Erix Mariya Remark   | G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q                              |
| 25       | Erkin A‘zam          | Shovqin                                                     |
| 26       | Erkin Vohidov        | O‘zbekim                                                    |
| 27       | Eshqobil Shukur      | Saylanma. Oy yo‘li                                          |
| 28       | Frits Uilford        | Turkiston kundaligi                                         |
| 29       | Fyodor Dostoyevskiy  | Jinoyat va jazo                                             |
| 30       | Xalq                 | Go‘ro‘g‘li                                                  |
| 31       | Hamdam Sodiqov       | Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati                   |
| 32       | Hamid Ziyoyev        | Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash |
| 33       | Ibn Arabshoh         | Sohibqiron Amir Temur tarixi                                |
| 34       | Ibroyim Yusupov      | Tanlangan asarlar                                           |
| 35       | Isajon Sulton        | Bilga Xoqon                                                 |
| 36       | Javlon Jovliyev      | Qo‘rqma                                                     |
| 37       | Jamoa                | Buyuklar haqida 100 ta dalil                                |
| 38       | Jamoa                | Jangovar ruh                                                |
| 39       | Jamoa                | Tomirlarim qoni – VATAN                                     |
| 40       | Jeyms Klir           | Atom odatlar                                                |
| 41       | Xalq                 | Kuntug‘mish                                                 |
| 42       | Lev Tolstoy          | Urush va tinchlik                                           |
| 43       | Luqmon Bo‘rixon      | Imom Moturidiy                                              |
| 44       | Mannop Egamberdiyev  | Sariq ajdar hamslasi                                        |
| 45       | Mansurxo‘ja Xo‘jayev | Shermuhammadbek va qo‘rboshilar jasorati                    |
| 46       | Maqsud Qoriyev       | Spitamen                                                    |
| 47       | Maqsud Shayxzoda     | Mirzo Ulug‘bek                                              |
| 48       | Maqsud Shayxzoda     | Sulton Jaloliddin Manguberdi                                |





| №  | Muallifi                | Kitob nomi                                          |
|----|-------------------------|-----------------------------------------------------|
| 49 | Mirkarim Osim           | Jayhun ustida bulutlar                              |
| 50 | Mirmuhsin               | Xo'jand qal'asi                                     |
| 51 | Mirzakalon Ismoil       | Farg'ona tong otguncha                              |
| 52 | Mirzakalon Ismoil       | Odamiylik qissasi                                   |
| 53 | Murod Muhammad Do'st    | Lolazor                                             |
| 54 | Muhammad Ali            | Temurbek                                            |
| 55 | Muhammad Ali            | Ulug' saltanat                                      |
| 56 | Muhammad Yusuf          | Saylanma                                            |
| 57 | Nazar Eshonqul          | Urush odamlari                                      |
| 58 | Nizomulmulk             | Siyosatnoma                                         |
| 59 | Odil Yoqubov            | Ulug'bek xazinasi                                   |
| 60 | Odil Yoqubov            | Diyonat                                             |
| 61 | Otabek Xasanov          | Liderlar kitobi                                     |
| 62 | Oybek                   | Navoiy                                              |
| 63 | Oybek                   | Qutlug' qon                                         |
| 64 | Pirimqul Qodirov        | Humoyun va Akbar                                    |
| 65 | Pirimqul Qodirov        | Yulduzli tunlar                                     |
| 66 | Poyon Ravshanov         | Amir Temur sulolasi                                 |
| 67 | Qahramon Rajabov        | Ibrohimbek qo'rboshi                                |
| 68 | Qahramon Rajabov        | Turkiston qo'rboshilari                             |
| 69 | Rahmat Fayziy           | Hazrati inson                                       |
| 70 | Xalq                    | Ravshan                                             |
| 71 | Rui Gonsales De Klavixo | Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi |
| 72 | Rustambek Shamsutdinov  | Millat fidoyilari                                   |
| 73 | Xalq                    | Rustamxon                                           |
| 74 | Sa'diy Sheroziy         | Guliston Bo'ston                                    |

| <b>№</b> | <b>Muallifi</b>           | <b>Kitob nomi</b>                                    |
|----------|---------------------------|------------------------------------------------------|
| 75       | Said Ahmad                | Jimjitlik                                            |
| 76       | Said Ahmad                | Qorako'z majnun                                      |
| 77       | Sa'dulla Siyoyev          | Dashti Qipchoq lochini yoxud<br>Shayboniyxon qissasi |
| 78       | Sun Zi                    | Muhoraba san'ati                                     |
| 79       | Tohir Malik               | Odamiylik mulki                                      |
| 80       | Tog'ay Murod              | Ot kishnagan oqshom                                  |
| 81       | Tog'ay Murod              | Otamdan qolgan dalalar                               |
| 82       | To'lqin Qahhor            | Buyuk sarkardalar haqiqati                           |
| 83       | Ulug'bek Dolimov          | Is'hoqxon Ibrat                                      |
| 84       | Ulug'bek Hamdam           | Vatan haqida qo'shiq                                 |
| 85       | Xayriddin Sulton          | Yaldo kechasi                                        |
| 86       | Xudoyberdi To'xtaboyev    | Besh bolali yigitcha                                 |
| 87       | Xudoyberdi To'xtaboyev    | Qasoskorning oltin boshi                             |
| 88       | Xurshid Davron            | Samarqand xayoli                                     |
| 89       | Yulian Semyonov           | Bahorning o'n yetti lahzasi                          |
| 90       | Zahiriddin Muhammad Bobur | Boburnoma                                            |
| 91       | O'lmas Umarbekov          | Odam bo'lish qiyin                                   |
| 92       | O'tkir Hoshimov           | Daftar hoshiyasidagi bitiklar                        |
| 93       | O'tkir Hoshimov           | Tushda kechgan umrlar                                |
| 94       | Sharafiddin Ali Yazdiy    | Zafarnoma                                            |
| 95       | Shuhrat                   | Oltin zanglamas                                      |
| 96       | Shuhrat                   | Shinelli yillar                                      |
| 97       | Shukur Xolmirzayev        | Kimsasiz hovli                                       |
| 98       | Shukrullo                 | Kafansiz ko'milganlar                                |
| 99       | Chingiz Aytmatov          | Asrga tatigulik kun                                  |
| 100      | Chingiz Aytmatov          | Oq kema                                              |



## A vertical stack of seven shelves filled with books, primarily cookbooks and food-related titles. The books are arranged in a slightly staggered manner, showing their spines. Visible titles include 'Naked Food', 'Urban Harvest', 'Mexican', 'Ferment', 'Ottolenghi Flavour', and 'The Food Companion'. The colors of the spines vary, with some having bright, solid colors like red, yellow, and blue, while others are more muted or feature patterns. The shelves are made of a light-colored wood.

A vertical stack of seven shelves filled with books, primarily cookbooks and food-related titles. The books are arranged in a slightly staggered manner, showing their spines. Visible titles include 'Naked Food', 'Urban Harvest', 'Mexican', 'Ferment', 'Ottolenghi Flavour', and 'The Food Companion'. The colors of the spines vary, with some having bright, solid colors like red, yellow, and blue, while others are more muted or feature patterns. The shelves are made of a light-colored wood.

|                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Erkin A'zam. Shovqin</i> .....                                                       | 54  |
| <i>Erkin Vohidov. O'zbekim</i> .....                                                    | 56  |
| <i>Eshqobil Shukur. Saylanma. Oy yo'li</i> .....                                        | 58  |
| <i>Frits Uilfort. Turkiston kundaligi</i> .....                                         | 60  |
| <i>Fyodor Dostoyevskiy. Jinoyat va jazo</i> .....                                       | 62  |
| <i>Go'ro'g'li. Xalq</i> .....                                                           | 64  |
| <i>Hamdam Sodiqov. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati</i> .....                  | 66  |
| <i>Hamid Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash</i> ..... | 68  |
| <i>Ibn Arabshoh. Sohibqiron Amir Temur tarixi</i> .....                                 | 70  |
| <i>Ibroyim Yusupov. Tanlangan asarlar</i> .....                                         | 72  |
| <i>Isajon Sulton. Bilga Xoqon</i> .....                                                 | 74  |
| <i>Javlon Jovliyev. Qo'rqma</i> .....                                                   | 76  |
| <i>Jamoa. Buyuklar haqida 100 ta dalil</i> .....                                        | 78  |
| <i>Jamoa. Jangovar ruh</i> .....                                                        | 80  |
| <i>Jamoa. Tomirlarim qoni – VATAN</i> .....                                             | 82  |
| <i>Jeyms Klir. Atom odatlar</i> .....                                                   | 84  |
| <i>Kuntug'mish. Xalq</i> .....                                                          | 86  |
| <i>Lev Tolstoy. Urush va tinchlik</i> .....                                             | 88  |
| <i>Luqmon Bo'rixon. Imom Moturidiy</i> .....                                            | 90  |
| <i>Mannop Egamberdiyev. Sariq ajdar hamlasi</i> .....                                   | 92  |
| <i>Mansurxo'ja Xo'jayev. Shermuhammadbek va qo'rboshilar jasorati</i> .....             | 94  |
| <i>Maqsud Qoriyev. Spitamen</i> .....                                                   | 96  |
| <i>Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek</i> .....                                           | 98  |
| <i>Maqsud Shayxzoda. Sulton Jaloliddin Manguberdi</i> .....                             | 100 |
| <i>Mirkarim Osim. Jayhun ustida bulutlar</i> .....                                      | 102 |
| <i>Mirmuhsin. Xo'jand qal'asi</i> .....                                                 | 104 |
| <i>Mirzakalon Ismoil. Farg'ona tong otguncha</i> .....                                  | 106 |
| <i>Mirzakalon Ismoil. Odamiylik qissasi</i> .....                                       | 108 |
| <i>Murod Muhammad Do'st. Lolazor</i> .....                                              | 110 |





|                                                                                               |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <i>Muhammad Ali. Temurbek .....</i>                                                           | <i>112</i> |
| <i>Muhammad Ali. Ulug' saltanat .....</i>                                                     | <i>114</i> |
| <i>Muhammad Yusuf. Saylanma .....</i>                                                         | <i>116</i> |
| <i>Nazar Eshonqul. Urush odamlari.....</i>                                                    | <i>118</i> |
| <i>Nizomulmulk. Siyosatnoma.....</i>                                                          | <i>120</i> |
| <i>Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi .....</i>                                                  | <i>122</i> |
| <i>Odil Yoqubov. Diyonat.....</i>                                                             | <i>124</i> |
| <i>Otabek Xasanov. Liderlar kitobi .....</i>                                                  | <i>126</i> |
| <i>Oybek. Navoiy .....</i>                                                                    | <i>128</i> |
| <i>Oybek. Qutlug' qon .....</i>                                                               | <i>130</i> |
| <i>Pirimqul Qodirov. Humoyun va Akbar .....</i>                                               | <i>132</i> |
| <i>Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar .....</i>                                                | <i>134</i> |
| <i>Poyon Ravshanov. Amir Temur sulolasi .....</i>                                             | <i>136</i> |
| <i>Qahramon Rajabov. Ibrohimbek qo'rboshi .....</i>                                           | <i>138</i> |
| <i>Qahramon Rajabov. Turkiston qo'rboshilari.....</i>                                         | <i>140</i> |
| <i>Rahmat Fayziy. Hazrati inson .....</i>                                                     | <i>142</i> |
| <i>Ravshan. Xalq .....</i>                                                                    | <i>144</i> |
| <i>Rui Gonsales De Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga<br/>sayohat kundaligi .....</i> | <i>146</i> |
| <i>Rustambek Shamsutdinov. Millat fidoyilari .....</i>                                        | <i>148</i> |
| <i>Rustamxon. Xalq .....</i>                                                                  | <i>150</i> |
| <i>Sa'diy Sheroziy. Guliston Bo'ston.....</i>                                                 | <i>152</i> |
| <i>Said Ahmad. Jimjitlik.....</i>                                                             | <i>154</i> |
| <i>Said Ahmad. Qorako'z majnun.....</i>                                                       | <i>156</i> |
| <i>Sa'dulla Siyoyev. Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon qissasi.....</i>               | <i>158</i> |
| <i>Sun Zi. Muhoraba san'ati.....</i>                                                          | <i>160</i> |
| <i>Tohir Malik. Odamiylik mulki .....</i>                                                     | <i>162</i> |
| <i>Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom.....</i>                                                 | <i>164</i> |
| <i>Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar .....</i>                                             | <i>166</i> |
| <i>To'lqin Qahhor. Buyuk sarkardalar haqiqati.....</i>                                        | <i>168</i> |

|                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov. Is'hoqxon Ibrat</i> .....     | 170 |
| <i>Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq</i> .....                  | 172 |
| <i>Xayriddin Sulton. Yaldo kechasi</i> .....                        | 174 |
| <i>Xudoyberdi To'xtaboyev. Besh bolali yigitcha</i> .....           | 176 |
| <i>Xudoyberdi To'xtaboyev. Qasoskorning oltin boshi</i> .....       | 178 |
| <i>Xurshid Davron. Samarqand xayoli</i> .....                       | 180 |
| <i>Yulian Semyonov. Bahorning o'n yetti lahzasi</i> .....           | 182 |
| <i>Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma</i> .....                   | 184 |
| <i>O'lmas Umarbekov. Odam bo'lish qiyin</i> .....                   | 186 |
| <i>O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar</i> .....         | 188 |
| <i>O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar</i> .....                 | 190 |
| <i>Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma</i> .....                      | 192 |
| <i>Shuhrat (G'ulom Alimov). Oltin zanglamas</i> .....               | 194 |
| <i>Shuhrat (G'ulom Alimov). Shinelli yillar</i> .....               | 196 |
| <i>Shukur Xolmirzayev. Kimsasiz hovli</i> .....                     | 198 |
| <i>Shukrullo. Kafansiz ko'milganlar</i> .....                       | 200 |
| <i>Chingiz Aytmatov. Asrga tatigulik kun</i> .....                  | 202 |
| <i>Chingiz Aytmatov. Oq kema</i> .....                              | 204 |
| <b>100 TA BADIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> ..... | 206 |





## LOYIHA RAHBARI:

**Otabek Xasanov** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, siyosatshunoslik fanlari doktori

## LOYIHA EKSPERTLARI:

**Hamdam Qarshiyev** O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri o'rinbosari, general-mayor

**Botu Alimov** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari doktori

**Feruz Boboyev** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktorining birinchi o'rinbosari, tarix fanlari doktori

**Suxrob Xidirov** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Loyiha bo'limi boshlig'i, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Gulnoza Jo'rayeva** Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, filologiya fanlari doktori, professor

**Xasan Xalilov** O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i, polkovnik

**Asilbek Togayev** O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti mas'ul xodimi, kapitan

**Zikrillo Ne'matov** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat ishlari departamenti boshlig'i, iste'fodagi polkovnik

**Nargiza Mullajonova** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Axborot-resurs markazi boshlig'i, podpolkovnik

**Umid Tojiyev** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi tarbiyaviy va  
mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo'limi katta  
ofitseri, podpolkovnik

**Farruxjon Abdurahmonov** O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar  
vazirligi mas'ul xodimi

**Umid Abdurahmatov** O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

**Ma'mura Zohidova** O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Kitob bo'limi  
boshlig'i

**Bekzod Nugmanov** O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi,  
mas'ul xodimi

#### LOYIHA ISHCHI GURUHI:

**Mubora Omanova** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Mahbuba O'razbayeva** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti, Filologiya fakulteti O'zbek tili va  
adabiyoti kafedrasida mudiri, dotsent, filologiya  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Ziyodaxon Akbarkulova** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bosh  
mutaxassisi – mustaqil tadqiqotchi

**Farangiz Ne'matova** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi yetakchi  
mutaxassisi

**Kozim Isroiljonov** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi  
yetakchi mutaxassisi

**Azamat Abdullayev** Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi  
1-toifali mutaxassisi

UO'K: 355.43

KBK: 68.9

Y 20

100 kitob haqida kitob [Matn] / jamoa. – Toshkent:  
«Ma'naviyat», 2026. – 216 b.

ISBN 978-9943-04-547-7

# 100 KITOB HAQIDA KITOB

*Toshkent “Ma’naviyat” 2026*

**Muharrir:** Z.Qudratov

**Musahhih:** Sh.Nazarova

**Dizayner va sahifalovchi** Sh.Sohibov

© “Ma’naviyat” nashriyoti, 2026. Litsenziya №1577389, 12.05.2026-yilda berilgan.  
Bosishga 15.06.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x60  $\frac{1}{6}$ . Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 24,5. Nashr tabog'i 23,92. Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 26-68.

“Ma’naviyat” nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.  
100047. Toshkent. Taraqqiyot 2-berk ko'cha, 2-uy.